

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**Qo'lyozma huquqida
UDK**

BERDIEV OYBEK BEKMUROTOVICH

**ABU BAKR AN-NARSHAXIYNING «BUXORO TARIXI» ASARIDA
KO'RSATILGAN MANBALARNING AHAMIYATI TO'G'RISIDA (IX-XII
asrlar)**

**5A 220204 – Tarixnavislik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari
mutaxassisligi**

**Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya**

**Ish ko'rib chiqildi va himoyaga ruxsat
berildi
«Tarixshunoslik va manbashunoslik»
Kafedrasi mudiri
Prof. Saidov I.M. _____**

**Ilmiy rapbar:
dos. Ilalov I.N.**

M.O'.

SAMARQAND - 2011

Reja

Kirish	3 - 12 betlar
I bob. Manbashunoslikda «Buxoro tarixi» asaridagi manbalardan foydalanish	
1.1. V.V.Bartold va A.Lukashinlarning asarni o'rganishi.....	13–18 betlar
1.2. «Buxoro tarixi» asaridagi manbalarning A.O'rinbaev va A.Rasulovlar tomonidan tahlil qilinishi.....	19–23 betlar
1.3. Asardagi manbalarning xususiyatlari va I.M.Umnyakov, G.A.Pugachenkova va boshqalar tomonidan o'rganilishi.....	24–37 betlar
II bob. «Buxoro tarixi» asarida ijtimoiy-siyosiy voqealarning aks ettirilishi	
2.1. O.A.Suxareva tomonidan. «Buxoro tarixi» asaridagi manbalarning baholanishi.....	38-47betlar
2.2. Mahalliy hukmdorlarning ko'rsatilishi va A.A.Simonovning yondashuvi.....	48-54 betlar
III bob. «Buxoro tarixi» asarining bugungi kunda o'rganilishi va manbalarning ahamiyati	
3.1. B.Lunin, L.I.Rempellarning. «Buxoro tarixi» asaridagi manbalar xususidagifikrlari.....	55-67 betlar
3.2. Tadqiqotchi G.Vamberi tomonidan asarda ayrim manbalarning o'rganilishi.....	68-79 betlar
Xulosa	79–81 betlar
Foydalanilgan adabiyot va manbalar	82–83 betlar

Kirish

Mavzuning dolzarbligi:

Tarixdan ma'lumki O'rta Osiyo – er yuzining eng qadimiy, O'rta Osiyoliklar dunyo tarixiga, kishilik madaniyatiga ulug' hissa qo'shgan va so'nmas yodgorliklar yaratgan buyuk xalqlardandir. Avlod-ajdodlarimizdan hamon tarixni va tarixiy yodgorliklarni va yozma manbalarni o'rganishga to'la-tekis o'rganish baxtiga mustaqillikka erishganimizdan so'ng muyassar bo'ldik. Istiqlool sharofati bilan mamlakatimiz o'tmishi xolisona yoritilib, boy tariximiz qisqa bir davrda olamga tanildi.

«Bugun bizning oldimizda shunday tarixiy imkoniyat paydo bo'ldiki, biz bosib o'tgan yo'limizni tanqidiy baholab, milliy davlatchiligimiz negizlariga aniqlab, buyuk madaniyatimiz tomirlariga qadimiy merosimiz ildizlari qaytib, o'tmishimizdagi boy an'analarimizni ya'ni jamiyat qurilishiga tatbiq etishimiz kerak».¹

Bizning madaniyatimiz insoniyatni o'ziga rom etib kelatgan markaz bo'lib qolganligi tasodifiy emas. Samarqand, Buxoro, Xiva faqat olimlar va san'at ixlosmandlari uchungina emas.

Magistrlik dissertasiyasining dolzarbligi O'rta Osiyoda arablar istilosi natijasida Islom dinining tarqalishi, VIII as rva undan bevosita oldingi davrlar hamda IX-XII asrlardagi Buxoro va unga yaqin shahar va qishloqlar xalqlarining iqtisodiy, madaniy, ijtimoiy, siyosiy, tarixiga oid muhim ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Mavzuning o'rganish darajasi:

Abu Bakr an-Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asarida ko'rsatilgan manbalarning ahamiyati to'g'risida o'rganish darajasi quyidagilardan iborat: asosiy adabitlar yirik tarixshunos akademik V.V.Bartold ham Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asarini o'rganib ko'plab ma'lumotlarni uning asarlaridag olib, o'z tadqiqot xulosalarida foydalanilgan.

¹ Karimov I.A. O'zbeiston XXI asr bo'sag'asida, xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. Toshkent. «O'zbekiston» 1997, 137-bet.

Bundan tashqari Narshaxi M., «Istoriya Buxarы» Perev. s pers. Lыkoshin N. Pod.red. Bartold V.V. Izd. inostr. lit. T., 1997.

Umuman olganda mavzu Sharq va G'arb olimlari tomonidan keng o'rganilgan. Yuqorida keltirilgan adabiyotlar albatta hammasi emas, faqatgina asosiylarini keltirdik, barcha adabiyotlar tahlilda kengroq olingan.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari:

Mazkur magistrlik dissertasiyasining maqsadi Abu Bakr an-Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asarida ko'rsatilgan manbalarning ahamiyati to'g'risida (IX-XII asrlar), ularni chuqur o'rganish va dissertasiyada foydalanish, ma'lumotlarga asoslanib, hozirgi davr mafkurasini yoritishdan iboratdir. Shuningdek Buxoro tarixi nazariy-uslubiy asoslariga tayangan holda, dissertasiyada quyidagi asosiy vazifani amalga oshiradi:

- Mavzuga doir manba va asosiy adabiyotlardan foydalangan holda tadqiqotni xolisona yoritish va ilmiy darajasini oshirish;

- Abu Bakr an-Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asarida ko'rsatilgan manbalardan foydalangan holda maqolalar yozish;

Abu Bakr an-Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asarida ko'rsatilgan manbalarning ahamiyatini dissertasiyaning mazmunida ochib berish;

- Fuqarolarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash O'zbekiston Respublikasi jahon bo'yicha eng qadimgi davlatlardan biri ekanligin yoritish.

Dissertasiyaning nazariy-uslubiy asoslari:

Metodologik jihatdan dissertasiyada mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov jamiyatda jemokratik jarayonlarning, milliy mafkurasini shakllantirish, mamlkatimiz va xalqimizning o'tmish tarixini yortish va keng xalq ommasi bu tarix bilan g'oyaviy qurollnatrish haqidagi ko'rsatmalarini chuqur o'rganib, bayon qilish. Bundan tashqari «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q», «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida», «Yangicha

fikrlash va ishlash davr talabi» asarli tadqiqotining ilmiy-uslubiy tomondan foydalanish uchun muhim manba sanaladi.

Shuningdek, ayni paytda manbashunoslikka xos bo'lgan milliy uslubiy yondashuvdan kelib chiqqan manbalarda tanqidiy, tarkibiy, taxminiy, qiyosiy baxo berib, mazmun mohiyat va yo'nalish jihatidan umumlashtirishdan iborat.

Tadqiqotning manbaviy asoslari:

Tadqiqotning asosiy manbalari Abu Bakr an-Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asari, V.V.Bartoldning «Turkiston mug'ullar bosqinchiligi davrida» (M., 1963), V.A.Shishkinning «Varaxsha» (M., 1963), O.A.Suxoveskiyning «Buxoro xonligi shaharlari tarixidan» (T., 1958), O.A.Suxareva «Istoriya narodov buxarskogo xanstva» Izd. Akad.nauk (M., 1952), Murodov A. «O'rta osiyo xattotlik san'ati tarixi»dan. Toshkent, «Fan», 1971. kabi manba va adabitar dissertasiya yozilishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Dissertasiyaning ilmiy yangiligi:

«Buxoro tarixi» bosh so'z bilan aytilganidek, uni dastavval Buxoroning Narshax qishlog'ida bo'lgan Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far an-Narshaxiy 943-944 yillarda arab tilida yozilgan. Hozirda Abu Bakr an-Narshaxiyning nomi O'rta Osiyoning VIII-XII asrlar tarixiga oid deyarli barcha ilmiy tadqiqot ishlarida tilga olinadi, ammo uning hayotiga oid biror biror to'liq ma'lumot keltirilmaydi. Buning sababi, uning o'z asarida ham va unga yaqin davrlarda yashagan boshqa mualliflar asarlarida qam ma'lumotlar berilmaydi. Faqatgina Somoniyning «Kitob ul-Ajoq» asarida uning to'liq nomi ko'rsatib o'tilgan.

Dissertasiyaning amaliy ahamiyati:

Tadqiqot ishi Ozbekiston Respublikasi tarixini boyitishga xizmat qiladi. Dissertasiya qo'llanilgan ilmiy tadqiqot xulosalari tarixini yozishda hamda

tarixshunoslik va manbashunoslik fani bo'yicha maxsus kurslar o'quv-uslubiy qo'llanmalar tayyorlashga va ma'ruza amaliy mashg'ulotlarda foydalanish uchun imkon beradi.

Dissertasiyaning tarkibiy tuzilishi:

Mazkur magistrlik tadqiqot ishi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro'yxatidan iborat.

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va bugungi kundagi ahamiyati ko'rsatilgan.

Birinchi bobda – manbashunoslikda «Buxoro tarixi» asaridagi manbalardan foydalanish, ya'ni tarixshunoslik va manbashunoslik keng tarzad bayon etilgan.

Ikkinchi bobning asosini «Buxoro tarixi» asarida ijtimoiy-siyosiy voqealarning aks ettirishi va uning atrofidagi hududlar quyidagicha ifodalangan. Buxoro hisorining g'arbiy darvozasidan to Marv darvozasigacha bo'lgan masofa Registon deb ataladi. Mana shu Registonda qadimgi davrlardan beri podsholarning saroylari bo'lgan, bundan tashqari O.A.Suxareva tomonidan «Buxoro tarixi» asaridagi manbalarning baholanishi kabi ma'lumotlar kengroq bayon qilingan.

Uchinchi bobda «Buxoro tarixi» asarining bugungi kundagi o'rganilishi va manbalarning ahamiyati hamda B.Lunin, M.I.Deshpellarning «Buxoro tarixi» asaridagi manbalar xususidagi fikrlari bayon etilgan va ko'rsatilgan.

Dissertasiyaning xulosa qismida:

Xulosa qismida «Buxoro tarixi» asaridagi manbalar ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganilib tadqiq qilingani haqida. Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asari O'rta Osiyo xalqlari tarixini o'rganishda muhim manba bo'lib hisoblanadi. Bu asar asosan O'rta Osiyo arablar istilosi natijasida islom dinining tarqatilishi (VIII asr) va undan bevosita oldingi davrlar hamda IX-XII asrlardagi Buxoro va unga yaqin shahar-

qishloqlar xalqlarining iqtisodiyot, madaniyat, ijtimoiy, siyosiy tarixiga oid muhim ma'lumotlarni o'z ichiga olgan.

Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asari asaridagi manbalarida podshohlarning Buxoroda bo'lgan manzillari, Buxoroda durdan va kumush tangalar zarb qilinishi, arablarning bostirib kirishi, somoniylarning hukmronligi, ijtimoiy-siyosiy ahvol batafsil yoritilib o'tilgan. Asardagi manbalarning alohida ahamiyat kasb etishidan guvohlik beradi.

Mustaqillikka erishganimizdan keyin xalqimizning o'z yurti, tili, madaniyati qadriyatlari tarixini bilishga, o'zligini anglashga qiziqishi ortib bormoqda. Bu albatta tabiiy hol. Odamzod borki, avlod-ajdodi kimligini, nasl-nasabini, o'zi tug'ilib o'sgan mahalla, qishloq, shahar, xullas vatanining tarixini bilishni istaydi. Hozir O'zbekiston deb ataluvchi hudud – ya'ni bizning vatanimiz nafaqat Sharq, balki umumjahon sivilizasiyasi beshiklaridan biri bo'lganini butun jahon tan olmoqda. Bu qadimiy va tabarruk tuproqdan buyuk allomalar, fozilu-fuzalolar, olimu-ulamolar, siyosatchilar, sarkardalar etishib chiqqan. Diniy va dunyoviy ilmlarning asoslari mana shu zaminda yaratilgan, sayqal topgan. Beshafqat davr sinovlaridan o'tgan, eng qadimgi toshyozuvlar, bitiklardan tortib, jamiki kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan 20 mingdan ortiq qo'lyozma, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san'at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, fizika, kimyo, astronomiyaga oid ming-minglab asarlar bizning beqiyos boyligimiz, iftixorimizdir. Bu qadar katta merosga ega bo'lgan xalq dunyoda kam topiladi. Shuning uchun ham, bu borada jahonning sanoqli mamlakatlarigina biz bilan bellasha olishi mumkin. Ota-bobolarimizning asrlar davomida to'plagan hayotiy tajribalari, diniy, axloqiy, ilmiy qarashlarini o'zida mujassam etgan bu nodir qo'lyozmalarni jiddiy o'rganish davri keldi. Chunki, bizga ma'lumki sho'rolar zamonida tarixiy haqiqatni bilishga intilish rag'batlantirilmas edi, hukmron mafkura manfaatlariga xizmat qilmaydigan manbalar xalq ko'zidan iloji boricha yiroq saqlanar edi.¹ Ahvol shu darajaga etgan ediki, o'z tariximizni o'zimiz

¹ Karimov I.A. «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q». Toshkent «Sharq» nashriyoti, 1998 y. 3-4 bet.

yozish huquqidan mahrum bo'lib qoldik. Birovlar tomonidan yaratilgan tarix darsliklarini o'qir edik. «SSSR tarixi» deb atalgan darslikda O'zbekistondagi mamlakatga bor-yo'g'i 34 sahifa berilib, tarixiy voqealar va shaxslar haqida noxolis fikrlar aytilar yoki umuman lom-mim deyilmasdi. Faqat bunday soxtakorlik, ko'zbo'yamachilikni bugun eng olis qishloqlarda yashayotgan oddiy fuqaro ham, maktab o'quvchisi ham yaxshi biladi. Endi mustaqilligimiz tufayli yaqqol namoyon bo'la olmagan tarixiy haqiqatni bilishga, o'zligini anglashga chanqoqlikning tub sabablari mana shunda ekanligi bizga ma'lum bo'lmoqda. Olimlarimiz tariximizning turli davrlariga doir risolalar yozishmoqda, tarixiy mavzuda yirik nasriy, nazmiy sahna asrlari yaratilmoqda. Ommaviy axborot vositalari ma'naviy qadriyatlarimizni keng targ'ib qilayotgan suhbatlar, muloqotlarda fikrlar rang-barangligi paydo bo'layotgani diqqatga sazovordir. Yoshlarning Vatan, millat taqdiri uchun o'zlarini mas'ul sezib, bu bahslarda daxldorlik tuyg'usi bilan ishtirok etayotganlari yuqori baholanmoqda. Davlatchilik tariximiz tub burilish pallasiga kirgan bir paytda o'zimizning zamon va makondagi o'rnimizni aniq belgilab olishimiz, nasl-nasabimiz, kimligimizni bilishimiz asosiy maqsadlardan biri bo'lib hisoblanadi. Yurtimizda faol mehnat ailyotgan akademiklar, olimlar, adiblar, noshirlar avvalambor tarixchilarimiz birgalashib tadqiqot olib borishlari talab etiladi. O'zbek xalqining tarixiy o'tmishi, o'zligi ma'naviyati haqida gapiralayotganda, bizda chuqur ilmiy asosga tayangan tahlil, muayan masalalarida aniq yondashuv zarurdir. Ilmiy tilda aytganimizda, yaxlit konsepsiya lozim bo'ladi. O'zlikni anglash tarixdan baholanadi. Chuqur tahlil, mantiqqa asoslangan bir yoqlama fikr odamlarni, avvalo tarix o'qituvchilarini chalg'itadi. Faqat bahs, munozara, tahlil mevasi bo'lgan xulosalargina bizga to'g'ri yo'l ko'rsatishi mumkin. Har bir tarixning o'z nuqtai-nazari bo'lsa tarixiy tadqiqotlar yanada mukammallashib boradi. Buni hech bir tarixchi unutmasligi maqsadga muvofiqdir.¹

Tarixning ma'naviyatimizda tutgan o'zni muhim bo'lib hisoblanadi. Tarixni yaxshi bilmasdan turib, yuksak ma'naviyatga erishish mumkin emas. Prezidentimiz I.A.Karimov 1994 yil 7 iyul kuni O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi umumiy yig'ilishida ham, tarixiy bilimlar, tadqiqotlar xususida batafsil so'zlab o'tgan

¹ Karimov I.A. «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q». Toshkent «Sharq» nashriyoti, 1998 y. 5-6 bet.

edilar. Jumladan Mustaqil O'zbekistonda amalga oshirilayotgan siyosat, tarixiy tadqiqotlar, mamlakatimiz hayotidagi eng muhim o'zgarish – dunyo hamjamiyatiga teng huquqli a'zo bo'lib kirganimiz bo'ldi. O'z tarixi, o'z merosiga yuksak hurmat, shu bilan birga, jajondagi eng katta xazina jisoblanmish intellektual salohiyatni o'z hayotida, o'z iqtisodida mujassamlashtirish – ana shu davlatlarning ham moddiy, ham ma'naviy boyligi asosini tashkil etadi deb aytsak yanglishmagan bo'lamiz. Mamlakatimizning intellektual salohiyati, aqliy boyligi – buyuk xazina bo'lib hisoblanadi. Bu boylik bizga o'tmishdagi ajdodlarimizdan meros bo'lib qolgan.

Respublikamiz mustaqilligi va kelajagi haqida gapiradigan bo'lsak, bu eng avvalo mamlakatimizdagi intellektual boylikdan oqilona foydalanishimizga bog'liq ekanligi ayon bo'ladi. Aqliy mehnat tufayli taraqqiy topgan davlatlarni olib qaraylik. Bularga qisqagina qilib, YAponiya va Janubiy Koreyani misol qilib keltirishimiz mumkin. O'zbekiston kelajagi to'g'risida o'ylaganimizda uni Fanlar akademiyasiz tasavvur etib bo'lmaydi. Akademiya millat faxri, mamlakat obro'-e'tiborining ramziga aylanishi kerak. Mamlakatimizning turli viloyatlarida jar xil darajadagi ilmiy muassasalar faoliyat ko'rsatmoqda. Mintaqalarda mavjud ilmiy tashkilotlar, oliy o'quv yurtlari va korxonalar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish yaxshi samara berishini unutmaylik.¹ Biron-bir jamiyat ma'naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi. Xalqning ma'naviy qadriyatlari, ma'naviy merosi ming yillar mobaynida SHarq halqlari uchun qudratli ma'naviyat manbai bo'lib xizmat qilgan. Uzoq davom etgan qattiq mafkuraviy tazyiqqa qaramasdan, O'zbekiston xalqi avloddan-adlodga o'tib kelgan o'z tarixiy va madaniy qadriyatlarini hamda o'ziga xos an'analarini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi.

Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oyat ulkan, bebaho ma'naviy merosini tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan nihoyatda muhim vazif bo'lib qoldi. Xalqimiz siyosiy mustaqqillik va ozodlikni ko'lga kiritgach, o'z taqdirining chinakkam egasi, o'z tarixining ijodkori, o'ziga xos milliy madaniyatining sohibiga aylandi. Tarix xotirasi,

¹ Karimov I.A. «Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir». Toshkent, «O'zbekiston», 1995 y. 50-51 betlar.

xalqning, jonajon o'lkani, davlatimiz hududining xolis va haqqoniy tarixini tiklash, milliy o'zlikni anglashni, ta'bir joiz bo'lsa, milliy iftixorni tiklash va o'stirish jarayonida g'oyat muhim o'rin tutadi. Tarix milliatning haqiqiy tarbiyachisiga aylanib bormoqda. Buyuk ajdodlarimizning ishlari va jasoratlari tarixiy xotiramizni jonlantirib, yangi fuqarolik ongini shakllantirmoqda. Axloqiy tarbiya va ibrat manbaiga aylanmoqda.

Markaziy Osiyo siyosiy aql-idrok bilan ma'naviy jasoratni, ilmiy dunyoqarash bilan qomusiy bilimdonlikni o'zida mujassam etgan buyuk arboblardan juda ko'p bo'lgan. Tarixiy tajriba, an'analarning meros bo'lib o'tishi – bularning barchasi yangidan-yangi avlodlarni tarbiyalaydigan qadriyatlarga aylanib qolmog'i lozimdir. Bizning madaniyatimiz butun insoniyatni o'ziga rom etib kelayotgan markaz bo'lib qolganligi tasodifiy emas. Samarqand, Buxoro, Xiva faqat olimlar va san'at ixlosmandlari uchungina emas, balki tarix va tarixiy qadriyatlar bilan qiziquvchi barcha kishilar uchun ziyoratgohga aylangan.¹ O'zbek olimlarining kuch-g'ayratlari bilan tariximizning ko'pdan-ko'p g'oyat muhim sahifalari, eng avvalo temuriylar va undan oldingi davr tarixi atroflicha o'rganilib chiqilmoqda. «Buxoro tarixi» asari asosiy manba bo'lib O'rta Osiyoning erli xalqlari tomonidan qachonlardir yozilib, endi o'tmish asrlar sahifalarini yoritish uchun xizmat qilib kelayotgan nodir yozma yodgorliklarning eng qadimiylaridan biridir deyilsa, xato qilinmagan bo'ladi. Darhiqiqat, bundan ming yil muqaddam O'rta Osiyoning o'zida, o'z farzandi qo'li bilan yozilib, tugal bir asar holatida bizning kunlarga etib kelgan boshqa tarixiy manba hozir bizga ma'lum emas. Shuning uchun ham «Buxoro tarixi»ni O'rta Osiyo tarixnavislik fanidagi eng dastlabki asarlardan biri deb hisoblaydilar.

Bu asar, O'rta Osiyoda arablar istilosi natijasida islom dinining tarqalishi (VIII asr) va undan bevosita oldingi davrlar hamda IX-XII asrlardagi Buxoro va unga yaqin shahar-qishloqlar xalqlarining iqtisodiy, madaniy, ijtimoiy, siyosiy tarixiga oid muhim ma'lumotlarni o'z ichiga olgan va «Buxoro tarixi»ning qimmatli bosh manbasi sifatida tarix fanida zo'r shuhrat topishiga asos solgan. Ushbu asarning tarixshunosligi masalasi

¹ Karimov I.A. «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xafvsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari». Toshkent. «O'zbekiston», 1994, 139-141 betlar.

ham muhim bo'lib hisoblanadi. V.V.Bartoldning «Turkiston mug'ullar bosqini davrida» (M., 1919), V.A.Shishkinning «Varaxsha» (M., 1963), D.A.Suxarevning «Buxoro tarixi shahidlari tarixidan» (T., 1998) kabi asarlarni ko'rsatib o'tishimiz mumkin.

1. Asosiy qism.

I bob. Manbashunoslikda «Buxoro tarixi» asaridagi manbalardan foydalanish

1.1. V.V.Bartold va A.Lukashinlarning asarni o'rganishi

«Buxoro tarixi»ning bosh so'zida aytilgandek, uni dastavval Buxoroning Narshax qishlog'idan bo'lgan Abu Bakr Muhammad ibn An Narshaxiy 949-944 yillarda arab tilida yozgan. Hozirda Narshaxiyning nomi O'rta Osiyoning VIII-XII asrlar tarixiga oid deyarli barcha ilmiy tadqiqot ishlarida tilga olinadi-yu, ammo uning hayotiga oid biror to'liq ma'lumot qoldirilmaydi. Buning sababi, uning o'z asarida ham va unga yaqin davrlarda yashagan boshqa mualliflar asrlarida ham ma'lumotlar berilmaydi. Faqat Somoniyni «Kitob ul ahsob» asarida uning to'la nomi ko'rsatib o'tilgan. Bu Abu Bakr Muhammad Ja'vfar ibn Zakariyo ibn Hattob ibn Sharik bo'lib, 899 yili Buxoro shahrida tug'ilgan va 960 yili vafot etgan. «Buxoro tarixi» asarining arab tilidagi asl nusxasi bizga etib kelgan emas. To'g'rirog'i hali shu vaqtgacha uning mavjudligi haqida biror-bir ma'lumot yo'q. Asarning bizga etib kelgan nusxasining bosh so'zida aytilishicha, 1190 yili asli hozirgi Quva shahridan bo'lgan Abu Nasr Ahmad ibn Muhammad ibn Nasr al Quboviy Narshaxiyning kitobini kishilar arab tilida yozilgan kitobni o'qishga rag'bat ko'rgazmaganliklari sababli, o'z do'stlarining iltimosiga binoan arabchadan fors-tojik tiliga tarjima qilgan. U arab tilidagi ba'zi so'zlarni qisqartirib yuborgan. Keyinchalik bu asar taxrirla uchragan: 1178-1179 yillar mobaynida Muhammad ibn Zufar ibn Umar fors-tojik tilidagi tarjimini ikkinchi marta qisqartirib bayon qilgan. Ammo asrni o'qir ekanmiz, biz unga ba'zan mazkur 1178-1179 yillardan keyingi to 1220 yilgacha bo'lib o'tgan tarixiy voqealar haqida ham qisqa ma'lumotlarni uchratamiz.¹ Bundan ma'lum bo'ladiki Muhammad ibn Zafardan keyin ham bir necha bizga noma'lum kishilar asrni tahrir qilganlar. Ular ham qisqartirganlar dayishga asos bo'lmasada, lekin qo'shimchalar kiritilganligi voqealar mazmunidan ham bizga ma'lum bo'ladi.

¹ Наршахи М. «История Бухары». Перевод с перс. Лукашин Н. Под ред. Бартольд В.В. Изд. иностр. лит. Т., 1997. стр. 8-9.

«Buxoro tarixi»ning tanishishga muvassar bo'lgan barcha qo'lyozma nusxalari, ular orasidagi ba'zi farqlardan qat'i nazar ana shu 1220 yilgacha davom ettirilgan matnni o'z ichiga oladi. Narshaxiyning hamda uning asarini bevosita qayta ishlab arabchadan fors-tojik tiliga tarjima qilgan Abu Nasr Ahmad va bu tarjimani qisqartirib bayon etgan. Muhammad ibn Zufarlarning asl matnlari hozirgacha ham, manbashunoslik fani uchun noma'lumligicha qolib kelmokda. Lekin bizgacha etib kelgan asar matnining mazmuniga qaraganda shuni aytish mumkinki, tarjimon Abu Nasr Ahmad ham, qisqartiruvchi muharrir Muhammad ibn Zufar ham o'z ishlariga oddiy tarjima yoki tajrir tarzida qaragan emaslar. Tarjimon Abu Nasr Ahmad Narshaxiyning arab tilidagi nusxasida mavjud bo'lgan ba'zi mavzularni tashlab ketishi bilan bir qatorda, asarga katta tarixiy qimmatga ega bo'lgan ko'pgina ma'lumotlarni va bunda o'z davridan ilgarigi voqealarni yoritish uchun boshqa tarixiy manbalardan foydalangan. Bu manbalardan biri Abu Nasr Ahmadning o'zi ko'rsatib o'tgani (Tehron nashri) Abul Hasan Abdurahmon Muhammad Nishopuriyning «Xazoin ul-ulum» nomli asaridir. Bu asarning bizning davrimizgacha etib kelgan-kelmaganligi hozirgacha ma'lum emas. Ammo unda keltirilgan «Buxoro tarixi»dagi ayrim satrlarning o'zi ham Abul Xasan Abduraxmonning kitobi nakadar muxim bir tarixiy manba b'lganligini ko'rsatadi. «Xazoin ul-ulum»dan ma'lumotlar keltirilishi haqiqatdan ham, Abul Nasr Ahmad ibn Muhammad tomonidan bajarilganligi ta'kidlab o'tiladi. Bu bilan bog'liq shu mazmundagi ko'p jumlar shuni aniqlashtiradiki Narshaxiyning asariga qo'shimchalar kiritgan kishi, asosan tarjimon Abu Nasr Ahmad bo'lib, Muhammad ibn Zufarning ishi aniq bildirilmasa ham fors-tojik tilidagi tarjimani qisqartirib bayon qilishdan iborat bo'lgan

Tarjimon Abu Nasr Ahmad va undan keyingi muharrirlar asar matniga yangi o'zgartirishlar kiritgan bo'lsalarda, Narshaxiyning nomini muallif sifatida saqlab kelishgan. Narshaxiy aslida o'z asariga qanday nom berganligi ma'lum emas. Shu sababli asar, qo'lyozma nusxalarda va hozirgi zamon ilmiy-tarixiy adabiyotida ham «Tarixi Narshaxiy» («Narshaxiy tarixi»), «Tarixi Buxoro» («Buxoro tarixi»), «Tahqiq ul viloyat» («Viloyat haqiqatini aniqlash») kabi har xil nomlar bilan yuritilib kelingan. Bu nomlarda keyingi keyingi uchtasi asar mazmuni bo'yicha to'g'ri bo'lib ulardan eng

anig'i «Tarixi Buxoro» hozirgi tarixiy adabiyotda qat'iy o'rtnashib qoldi. «Tarixi Narshaxiy» deb atalishi esa, yuqorida eslatib o'tganimizdek, asarning bizgacha etib kelgan nusxasi Narshaxiydan boshqa kishilarning ham qo'shimcha va tahrirlari, qisqartirishlariga uchraganligi tufayli tobora kamroq shakllanib kelmoqda. Shunga binoan, ushbu nashrda ham asrning nomi «Buxoro tarixi» deb qabul qilindi.

«Buxoro tarixi»ni bosh manba sifatida o'rganib, undagi qimmatli ma'lumotlarni ilmiy tadqiqotlarga jalb qilish ishlari ko'p vaqtlardan beri davom etib kelmoqda. Buxoroning VIII-XII asrlardagi tarixidan bahs etuvchi hozirgi zamon yirik ilmiy-tadqiqot ishlarining hammasida ham «Buxoro tarixi»dan olingan ma'lumotlarni uchratamiz desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Shu bilan barobar asarning bir yoki bir qancha qo'lyozma nusxalari asosida tayyorlangan matnida ham bir necha bor – 1892 yilning Ch.Sheffer tomonidan Parijda, 1904 yili Mullo Sulton tomonidan Buxoroda, 1939 yili Mudarris Rizaviy tomonidan Tehronda nashr qilingan. Shuningdek, «Buxoro tarixi»ning yana bir qancha tahlillari mavjud. R.Drayning izohlar ilova etilgan inglizcha tarjimasini 1954 yili Kemrjda bosilib chiqilgan.¹

Yirik tarixshunos, akademik V.V.Bartold ham Narshaxiyning «Buxoro tarixi»ni o'rganib, ko'plab ma'lumotlarni uning asaridan olib, o'z tadqiqot, xulosalarida foydalangan. Bartold Narshaxiyning asaridagi ko'plab faktlarni keltirib, arablar bosqinchiligi haqida quyidagi fikrlarni bildirib o'tadi: Movaraunnajr arablar bosqinchiligi davrida bir qancha siyosiy murakkabliklarga duchor bo'lgan. Er egalari aristokratlar (dehqonlar deb nomlangan) asosiy hukmron guruhni tashkil qilgan. Monarxiya hukumati va dvoryanlarning ta'siri ham kuchli bo'lgan. Arab manbalarida bir necha ko'rsatilishicha mahalliy hukmdorlarning shaxsiy gvardiyalari mavjud bo'lgan. Ular chokar (xizmatin) deb nomlangan. Ammo Narshaxiyning yozishicha Buxoro podshosi saroyida maxfiy, harbiy guruhlar faoliyat yuritgan. Davlat dini haqida aniq ma'lumotlar keltirilmagan. Shunday bo'lsada, Eronda zarastrizm amal qilganligini bilib olamiz. Buddistlar tashkiloti ham keng yoyilgan. Samarqandda zarastraizm va buddizm o'rtasidagi kurash bo'lganligi ta'kidlab o'tiladi.

¹ Нарцхаи М. «История Бухары». Перевод с перс. Лукашин Н. Под ред. Бартольд В.В. Изд. иностр.лит. Т., 1997. стр 10-11.

Narshaxiy «Buxoro tarixi» asarida Qutayba 708-yil Poykandni qo'lga oladi. Mahalliy harbiy kuchlar osonlikcha bo'ysundirilgan. Turklarning musulmonlarga qarshi kurashi uzoq davom etgan emas. Mahalliy harbiylar mag'lubiyatga uchragan, hukmdorlar arab bosqinchilariga dirham berishga majbur bo'lishgan. Poykanddagi ijtimoiy-siyosiy munosabatlar, Buxorxudot va Buxoro dehqonlarining aloqalari haqida Narshaxiy bir qancha ma'lumotlarni yozib qoldirgan. Uning ma'lumotlariga asoslanadigan faktlar ko'pchilikni tashkil qiladi. «Buxoro savdogarlarining ko'pchiligi boshqa mamlakatlarga doimiy borib kelishgan. Ko'chmas mulk, xususiy mulklarga ega bo'lishgan. Ular o'z qal'alarida yashab dehqonlar (yirik boylar, amaldorlar)dan unchalik farq qilmagan». Musulmon bosqinchiligi davrida ham, ularning savdo-sanoat o'z faoliyatlarini davom ettirishgan. Ammo dehqonlar va savdogarlar o'rtasidagi ziddiyatlar haqida ma'lumotlar kamchilikni tashkil etadi. Buxoro savdogarlarining shaharlari haqida ham Narshaxiy batafsil ma'lumot yozib qoldirmagan. Narshaxiyning aytishicha, arablar bosqinchiliga davrida Buxoro shaharlarida harbiy vaziyat bosqinchilik hukmronlik qilgan. Mahalliy xalqni turli shartlar asosida, shafqatsiz ekspluatasiya qilib kelishgan. Movaraunnahrning turli joylarida ularning hukmronligi o'rnatilgan.

Arablar bosqinchiligi arafasidagi siyosiy vaziyatni Narshaxiy «Buxoro tarixi» asarida yozib qoldirgan. Mahalliy hukmdorlar doimo bir-biri bilan urush holatida bo'lib kelgan. Doimiy, takomillashgan qo'shinga ega bo'lishmagan. Arablar o'z hukmronligini o'rnatib olgach ham, shimoliy va janubiy arab qabilalari o'rtasida o'zaro ziddiyatlar yuzaga kelgan. Xuroson va Movaraunnahr noibining to'liq hukmronligi o'rnatilgan. Arablar falabaga erishishida, mahalliy amaldorlarning ham hissassi bo'lgan. Ko'plab hududlarda ularning xoinligi sodir bo'lgan. Qutayba va boshqa arab yo'lboshchilari mahalliy aholi, siyosiy guruhlarini bir-biriga qarshi qo'ydilar. Bunda dastlab olib borilgan talonchilik yurishlarida to'plangan ma'lumotlar yordamchi omil bo'lib hisoblangan.

Arablar harbiy kuchga, tajriba-sifatga ega bo'lishsada, tabiiy sharoit va vaziyatni tezda bo'ysindiraolmagan.¹ Cho'l, tog'lik hududlaridan o'tish arablar uchun katta qiyinchiliklarni keltirib chiqargan. Bir qancha muvaffaqiyatsizliklarga duch kelishgan. Ummaviylar bosqinchiligining borishi xususida Narshaxiy o'z ma'lumotlarini yozib qoldirgan, yarim afsonaviy hikoyalar ham saqlanib qolingan. Ba'zi xronologik ma'lumotlar bir-biriga zid hisoblanadi. Chokarlar arab bosqinchiliklariga qarshi kurash olib borishi lozim edi. 705 yili Xurosonga noib sifatida Qutayba kelgan edi. Unig ayyorligi, o'zaro nizolarni doimiy yuzaga keltirganligini Narshaxiy o'zining «Buxoro tarixi» asarida yozib qoldirgan. Aynan mahalliy amaldorlarni bir-biriga qarshi qo'ygan Chagoniyon podshosi 705 yili Qutayba huzuriga chaqirib olinib Shuman va Axarun podshosiga qarshi qo'yilgan. Qutayba 712 yili Xorazmda Xorazmshohni o'z ukasi Xurzod hujumidan himoya qilgan. SHu yili Qutayba Samarqandga yurish qilganida, Buxorolik va Xorazmlik mahalliy amaldorlar, harbiylar Qutayba tomonidan yurishlarda ishtirok etishgan. Sug'dda Gurak muvaffaqiyatli urush olib bordi.

713 yilgi urush davrida Buxoro, Kesh, Nasaf va Xorazm Qutaybaning topshirig'iga asosan, unga 200000 kishi etkazib bergan. Qutayba bir qancha yirik janglarda g'alabalarga erishdi. Qutayba Buxoro, Samarqand va boshqa yirik shaharlarda masjidlar qurdirgan. Buxoro aholisi arablarga uylarining yarmini (SHahriston) berishga majbur edilar. Samarqandliklar ham turli xil majburiyatlarga duchor etildilar. Qutayba qo'shinlari shimolda SHosh, Janubi SHarqda Qashg'ar hududlarini bosib oldilar. 715 yil Qutayba yangi xalifa Sulaymonga qarshi qo'zg'olon ko'tarishni rejalashtirgan edi. Ammo u arablar tomonidan o'ldirildi. Uning yordamchilari Qutaybaning faoliyatini davom ettira olishmagan.

Movaraunnahrda arablarga qarshi noroziliklar kuzatilib turildi. Abbosiylar o'z lashkarlari orqali Ummaviylarga qarshi o'z targ'ibotlarini doimiy olib bordilar. Abu Muslim bunda asosiy tashabbuskor bo'lib, dehqonlar va qishloq aholisini o'z tomoniga ag'darib bordi. Ummaviylarga qarshi ijtimoiy guruhlarini aniqladi. Xurosonda unga

¹ Бартольд В.В. «Туркестан в эпохи монгольского нашествия». Отв.ред. Гафуров Б.Г. и Петрушевский Л.П. Изд. Вост.лит. М., 1963. стр. 238-240.

dushman hisoblangan Kermana Nasr o'ldirildi. 749 yil oxiriga kelib hokimiyat Abbosiylar qo'liga o'tdi. Abu Muslim Ummaviy noiblari ustidan ko'plab hududlarda g'alabaga erishdi. 750-751 yillar Buxoroda arablarga qarshi qo'zg'olon ko'tarildi. Harakatga Sharik ibn Shayxrus-Maxri boshchilik qilgan. Aliylar foydasiga faoliyat yuritgan 30000 kishi uning atrofida to'plangan. Buxoro va Xorazmdagi arab hukumati vakillari qo'z'olonni qo'llab-quvvatladi. Ammo qo'zg'olon shafqatsizlik bilan bostirilgan. Buxorxudot Qutaybaga bir qancha muhim topshiriqlar bergan. Islom dini masalasida Buxorxudot ham Abu Muslim buyrug'i asosida o'ldirilgan. Buxorxudot Qutayba arablar tomonidan qo'zg'olonni bostirishda ishtirok etgan. Bu xizmatlari bilan bog'liq holatlar albatta Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asarida ta'kidlab o'tilgan. Abu Muslim mana shu tariqa ichki va tashqi dushmanlar ustidan g'alaba qozondi. Uning Xuroson mahalliy amaldorlari orasida ta'siri oshib bordi. Abbosiy hukmdorlar bundan xavotirga tushdilar.

752 yil Movaraunnahr hukmdorlari Abu Muslim bilan maxfiy til biriktirib olishga kelishib oldilar. Xalifaga Saffohga qarshi harakatlari maxfiy bo'lsada, xalifalikka tezda ma'lum bo'ldi. Abu Muslimning yordamchilari Sibab an No'mon Amula shahrida o'ldirildi. Ziyod ham yollanma qotil orqali qatl etildi. 755 yili uning o'zi ham halok bo'ldi (Abu Muslim xalifalik saroyiga chaqirilib o'ldirilgan). Uning tarafdorlari Abbosiylarga dushman bo'lib qolsada, biror-bir mudofaa himoyaga erishmaganlar.¹

¹ Бартольд В.В. «Туркестан в эпохи монгольского нашествия». Отв.ред. Гафуров Б.Г. и Петрушевский Л.П. Изд. Вост.лит. М., 1963. стр. 244-246.

1.2. «Buxoro tarixi» asaridagi manbalarning A.O'rinbaev va A.Rasulovlar tomonidan tahlil qilinishi.

Abu Nasr Ahmad ibn Muhammad ibn Nasr al-Kubaviy («Al-Kubaviya» - «Buxoro tarixi»ning arabchadan fors-tojik tiliga tarjimoni hozirgi Quva shahridan bo'lganligi ma'lum bo'ladi) shunday deydi: «Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far an-Narshaxiy Buxoro shahri, uning xususiyat va fazilatlari, shaharning o'zida va qishloqlarida mavjud bo'lgan qulay sharoitli va foyda etkazuvchi narsalar, shaharga aloqador bo'lgan barcha narsalar haqida yozib qoldirgan. Buxoroning fazilati borasida aytilgan hadislar haqida bir kitob yozgan va uni amir Hamid Abu Muhammad Nuh ibn Nasr ibn Ahmad ibn Ismoil as-Somoniya (somoniylar sulolasidan, hukmronlik yillari – 943-954) nomiga bag'ishlangan. Bu kitob go'zal iboralar bilan 944 yil 29 avgust kuni yozilgan edi. Ammo ko'pchilik kishilar arab tilidagi ushbu kitobni o'qishga rag'bat ko'rsatmaganliklari sababli, do'stlarim mendan bu kitobni fors tiliga tarjima qilishni iltimos qildilar. Men iltimosni qabul qildim va 1188 yil may oyida kitobni fors tiliga tarjima qildim. Biroq arab tilidagi nusxada keraksiz va ba'zi so'zlarni tarjima bayoniga kiritmadim».

Buxoroda qozilik qilayotgan kishilar to'g'risida Narshaxiy «Buxoro tarixi» asarida ko'plab ma'lumotlarni yozib qoldirgan. Sebavayx ibn Abdulaziz al-Buxoriy an-Nahviy shular jumlasidandir. Buxoroda qozilik qilganda, xalqning I kki dirhamiga ham adolatsizlik qilmadi. Yana Muhammad ibn Umar ham yillar davomida, toki vafotiga qadar qozilik qilgan. Hozim Sadusiya ham farmonga asosan qozilik qildi. Fanjor deb mashhur bo'lgan (marhum) Iso ibn Muso ismli kishi esa, qozilikni qabul qilmagan bular asosli holatdir.¹ Yana Umar ibn Imron qozi bo'ldi. Ishoq ibn Ibrohim ibn al-Xitay ham qozilik qildi. Bu kishi qozilikdan bo'shatilgandan keyin 824 yili Tusda vafot etdi. Bundan tashqari Sobid ibn Xalan an-Balhiy 808 yili avgust oyining oxirida qozilikka tayinladilar. Bu kishi qozilikni shunday olib bordiki, amalda yaxshi qonun-qoidalar o'rnatdi. To'g'onlarni qurdirib, Buxoro suvini adolat va insof yuzasidan taqsimlashni u kishi asoslagan. Yana bir kishi Abdulmajid ibn Ibrohim an-Narshaxiy

¹ Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far Narshaxiy «Buxoro tarixi». Fors tildan tarj. Rasulov A. Ma'sul muharrir O'rinboev A. «Fan» nashriyoti. T., 1966. 13-14 bet.

qozi bo'ldi. Bu kishini xushxulq, taqvodor bandalar jumlasidan hisoblar edilar. Shunigdek, Ahmad ibn Ismoil Somoniyni davrida, Ahmad ibn Ibrohim al-Barkadiy qozilik qildi. U ham zohid (molu dunyoga rag'batiyu xohishi bo'lmagan, tarki dunyo qilgan kishi), ham faqih (shariat ilmini, shariat hukmlarini yaxshi biluvchi kishi) edi. Yana Abu Zar Muhammad ibn Yusuf al-Buxoriy bo'lib, u rahmatli Imom Shofiyning suhbatdoshlari jumlasidan hamda olim va zohid edi. U kishini yashirin pora berish va boshqa har xil yo'llar bilan sinab ko'rdilar. Ammo u biror narsa olmay salbiy tomonga o'zgarmadi. Bu kishi keksaygach qozilikdan bo'shatishlarini iltimos qildi va hajga ketib haj marosimini ado etdi. «Muxtasari Kofiy» muallifi marhum Abul Fazl ibn Muhammad ibn Ahmad al-Marvizi as-So'lamiy ko'p yillar davomida Buxoroda qozilik qildi va zarracha ham o'ziga ayb yuqtirmadi. U barchaga adolat va insof bilan ish ko'rar edi. Uning davrida olimlik va zohidlikdan butun dunyoda unga teng keladigani kishi yo'q edi. Shundan so'ng u sultonga vazir bo'lda va ko'p o'tmay shahid bo'ldi. Bu kitobning muallifi aytadi: Agar Buxoro olimlarining hammasini zikr qilsak, bir nechta daftarni tashkil etadi. Fazl Muhammad ibn Ja'far an-Narshaxiy bu faslni o'z kitobida keltirmagan. Ammo Abul Hasan Abdurahmon Muhammad an-Nishopuriy «Xazoin ul-ulum» kitobida shunday keltirgan: Hozirda Buxoro joylashgan bu mavze ilgari botqoqlik bo'lib, uni ba'zi erlarini to'qayzor, daraxtzor va ko'kalamzorlar tashkil etgan. Ayrim joylari esa, shunday bo'lganki, hatto biron ham oyoq qo'yishga joy topa olmagan. Buning sababi shuki Samarqand tomonidan viloyatlarda tog'larda qor erib suvi oqib kelib, o'sha joyga yig'ilib yotar edi. Samarqand tomonida bir katta daryo borki, uni «Rudi Mosaf» - «Mosaf daryosi» deb atalar edi. Bu daryoga ko'p suv yig'ilgach, u bir talay erlarni yuvib-o'pirib, ko'p loyqalarni surib kelgan va natijada bu botqoqliklar to'lib qolgan. Suv ko'p oqib kelaverdi, loyqalarni to Bitik (Chorjo'y ro'parasilagi Amudaryo bo'yida joylashgan qishloq va Forbgacha, Bitikka yaqin hududda) surib keltiraverdi. So'ng suv to'xtadi, Buxoro o'rnamashgan joy to'lib, tekis erga aylandi. Shunday qilib, katta daryo Sug'd va bu to'lgan mavze Buxoro bo'lib qoldi, har tomonda odamlar yig'ilib, u joy obod bo'ldi. Odamlar Turkiston tomonidan kelar edilar. Ular uchun tabiiy sharoit ma'qul edi. Xalq ko'paygach, bir kishini saylab amir qiladilar. Uning nomi Abruy (VI asr Buxoroda hukmronlik qilgan), hali Buxoro

shahri vujudga kelmagan edi. Lekin qishloqlardan ba'zilar paydo bo'lgan edi. Nur, Harqandrud, Vardona, Tarovna, Safni va Isvonalar – o'sha qishloqlar jumlasidandir. Podshoh turadigan katta qishloq Poykand edi. Shahar «Qala'yi Dabusiy» bo'lib, shahar deb shu joyni atar edilar. Bir qancha muddat o'tgandan keyin, Abro'y ulg'ayib, shu viloyatga zulm o'tkaza boshladi. Xalq doimiy zulmga ortiq chiday olmadi, dehqonlar va boylar bu viloyatdan qochdilar hamda Turkiston va Taraz yaqinida bir shahar qurdilar. Uni Hamuket deb atadilar. Chunki Buxorodan qochib ketgan kishilar orasidagi raisning nomi Hamuk edi. «Hamuk» deb, Buxoro tilida gavharni aytishadi. «Ket» esa shahar, ya'ni gavharning shahri degan ma'noni bildiradi. Buxoro tilida katta odamni «hamuk» ya'ni falokni gavhar deyдилar. So'ngra, Buxoroda qolgan kishilar o'zlarining sarkardalariga odam yuborib, Abro'yning jabr-zulmidan qutqarishini so'radilar. Shunda sarkardalar va dehqonlar turklar podshohining oldiga bordilar.¹ U podshohning nomi Qorajurin turk bo'lib (Abro'yni o'ldirgan deb, boshqa manbalarda ham tilga olinadi), unga Bilg'u deb taxallus bergan edilar. Sheri Kishvar nomli o'z o'g'lini ko'p lashkar bilan yubordi. Sheri Kishvar Buxoroga kelgach, Poykandda Abro'yni tutib band qildi. Uning farmoni bilan bir katta qopni qovoqariga to'ldirib, Abro'yni shu qopga soldilar va u qop ichida o'ldi.

Sheri Kishvarga bu viloyat yoqib qolib otasiga xat yubordi va undan bu viloyatni talab qilib, Buxoroga turishi uchun ruxsat berishini iltimos qildi. Qochib ketgan boy va katta dehqonlar qaytib keldi. Buxoroga qaytib kelgan guruh orasida bir katta dehqon bor edi, u qadimiy dehqonzoda va ko'proq daromadli erlar uniki bo'lgani uchun, uni «Buxorxudot» der edilar. Buxorxudot qolganlarning ko'pchiligi uning kadivarlari va xizmatkorlari edilar. Sheri Kishvar Buxoro shahristonini qurdi hamda Mamostin, Saqmatin, Samtin, va Farov qishloqlarini qurdirdi. U 20 yil podshohlik qildi. Undan keyin bo'lgan boshqa podshohlar esa, Iskajkat, Sharg va Roshtin qishloqlarini bino qildilar. So'ngra esa, Faraxshiy qishlog'iga asos soldi. Xitoy podshohining qizini kelin qilib, Buxoroga olib kelganlarida, uning jihozlari orasida Xitoydan bir butxona ham olib keldilar va Roshtinga o'rnatdilar.

¹ Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far Narshaxiy «Buxoro tarixi». Fors tildan tarj. Rasulov A. Ma'sul muharrir O'rinboev A. «Fan» nashriyoti. T., 1966. 15-16 bet

Amir Abu Bakr Siddiqning xalifaligi davrida, Buxoroda sof kumushdan tanga pul zarb qildilar. Bundan ilgari Buxoroda tanga pul yo'q edi. Muovig'ning davrida, Qutayba ibn Muslim tomonidan Buxoro fath qilindi va Tug'shoda Qutayba ibn Muslim tomonidan tomonidan podshoh bo'lib, 32 yil hukmron bo'ldi. Abu Muslim uni Xuroson amiri bo'lgan Nasr ibn Sayyor davrida Samarqandda o'ldirdi. U to o'ldirilgunicha, Qutaybadan o'n yil hukmronlik qildi. Undan so'ng uning birodari Sukon ibn Tug'shoda etti yil podshohlik qildi. Xalifaning farmoni bilan Varaxsha qasrida o'ldirildi va to'polon ko'tarildi. U ramazon oyida o'z ko'shkida oldiga Qur'on qo'yib, o'qib o'tirgan edi, uni shu holatda o'ldirdilar. Sukon ibn Tug'shodadan keyin birodari Bunyod ibn Tug'shoda etti hukmronlik qildi. U Xalifaning farmoni bilan Faraxshiy qasrida o'ldirildi. Shundan keyin Buxoroda amir Ismoil Somoniy davrigacha Tug'shodaning farzandlari, xizmatchilari va nabiralari qo'lida bo'ldi. So'ng podshojlik Buxorxudot bolalarining qo'lidan ketadi.

Muhammad ibn Ja'far an Narshaxiy aytadi: Buxorxudot o'lgan vaqtda, undan yosh o'g'li qoldi, uning nomi Tug'shoda edi. Bolaning onasi bo'lgan xotin taxtga o'tirdi va o'n besh yil hukmronlik qildi. Uning davrida arablar Buxoroga kela boshladilar. Har gal kelganlarida xotin ular bilan sulh tuzar va mol berar edi. Aytishlaricha uning davrida undan ko'ra donoroq birorta kishi bo'lmagan, u donolik bilan hukmronlik qilar va xalq unga itoatda edi. Uning odati shunday ediki, u har kuni otga minib, Buxoro hosi darvozasidan tashqari chiqar va «Alloffurushlar darvozasi» deb atalgan Registon darvozasiga kelib, taxtga o'tirar, uning oldida esa g'ulomlar, xoja sarolar, ya'ni qullar turar edilar. U qishloq aholisi uchun shunday qoida o'rnatgan ediki, har kuni dehqonlar va malikzodalardan ikki yuz nafar yigit zarrinkamar bog'lab, qilichlarini osib xizmatga hozir bo'lib, uzoqroqda turishar, xotin tashqariga chiqqach, hammalari uni olqishlashar va safga tizilishar edi. Xotin esa (mahalliy hukmdor ayol kishi) podshohlik ishlari bilan shug'ullanar, yaxshilikka da'vat qilib, yomonlikdan qaytarar, istagan kishisiga sarpo kiygizib, istagan kishisiga jazo berar edi. Shu tarzda ertalabdan to tushgacha o'tirib, so'ng Hisorga qaytib kirar, dehqonlar va malikzodalar ikki saf bo'lib, uning xizmatida turishar edi. Quyosh botgach, taxtdan turib, otga minar va qasrga yo'l olar, yigitlar esa o'z qishloqlariga qaytar edilar. Ertasi

kuni boshqa jamoa kelib, shu sifatda xizmat qilar va nihoyat yana o'sha jamoalarga kelib etar edi. Shu tarzda har bir jamoa bir yilda to'rt marotaba xizmatga kelishi lozim edi.

Bu xotin hukmdor o'lganida, uning o'g'li Tug'shoda podsholikka munosib keladigan darajada katta bo'lib, asta-sekin mamlakatni egallashga ta'ma qilayotgan edi. Bir vazir Turkistondan kelgan edi, uning nomi Vardonxudot – Zardona erlari unga tegishli edi. Qutayba bilan ko'p marotaba urush qilishga majbur bo'lgan. Qutayba uni o'ldirib, Buxoroni egalladi.¹

¹ Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far Narshaxiy «Buxoro tarixi». Fors tildarij. Rasulov A. Ma'sul muharrir O'rinboev A. «Fan» nashriyoti. T., 1966. 17-18 bet.

1.3. Asardagi manbalarning xususiyatlari va I.M.Umnyakov, G.A.Pugachenkova va boshqalar tomonidan o'rganilishi

Buxoro tarixi bilag bog'liq holatlarni o'rganishda, tadqiqotchilar besovita Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asariga murojaat qiladilar. Tadqiqotchi I.P.Petrushevsikyning 1949-yil nashr etilgan «Xulagular davrida shahar amaldorlari» nomli tadqiqot ishida, o'rta asr feodal shaharlari qatorida, Buxorodagi shaharlarni tahlil qilib o'tgan. O'rta Osiyo shaharlari qatorida, Buxoro hududining shaharlari bir qadar kengroq o'rganib chiqilgan. Akademik V.V.Bartold Buxoro tarixi bilan bog'liq maxsus maqola ham chiqargan. Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asaridagi joy nomlari, ularning tarixiy kelib chiqishi to'g'risida rus tadqiqotchisi kengroq fikr yuritgan. 1923 yil I.I.Umnyakovning ham «Buxoroning tarixiy topografiyasiga oid masalalar» nomli kitobi chiqarildi. Unda Buxorodagi topografik joylar Narshaxiyning «Buzoro tarixi» asaridagi holatlar asosida ilgari suriladi: Karmana – Buxoro qishloqlari jumlasidan bo'lib, uning suvi Buxoro suvidan keladi. Xiroj Buxoro hisobiga qo'shiladi. Uning o'ziga tegishli alohida bir qishloq ham bor, unda masjidi jome barpo etilgan. Karmanada adib va shoirlar ko'p bo'lganlar.

Masalda aytilishicha, qadim vaqtlarda Karmanani «Badyayi xurdak» («Ko'zacha») deb ataganlar. Buxorodan to Karmanagacha o'n to'rt farsangdir (bir farsang, taxminan 7-8 km). Nur katta joy, unda masjidi jome bor, u ko'pgina robotlarga ega. Buxoro va boshqa joylarning odamlari har yili ziyorat uchun erga boradilar. Buxoro axolisi juda ko'p afsonalarni ham keltiradilar. Nur ziyoratiga borgan kishi haj qilgan kishi xususiyatiga ega bo'ladi. Nurni boshqa yurtlarda Nuri Buxoro deb ataydilar. Tavsif bu Buxoro viloyatlaridan bo'lib, nomi Arquddir. Unda boy va zebu-ziynatni yaxshi ko'ruvchi kishilar yashaganlar. Zebu-ziynatga berilganligidan, jar bir kishi ziynat uchun uyida bitta yoki ikkita tovuq saqlagan.¹

Tadqiqotchi G.A.Pugachenkova va L.I.Rempel tomonidan 1954 yil chiqarilgan «Buxoro» nomli kitob ham, Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asarini o'rganishda, uning tarixshunosligida katta ahamiyat kasb etadi. Unda Buxoroning tarixiy-topografik

¹ Умняков Л.М. «К вопросу об исторической топографии Бухары». Изд. Турк. Вост. инст. Т., 1923 стр 24-25.

holatlari o'rganilib chiqilgan. Tadqiqotchi manbalardan foydalanishda, «Buxoro tarixi»dan ko'plab ma'lumotlardan asosli foydalana olgan. Buxoroning maxsus tarixiy-geografik jihatdan o'rganilishida ham, tarixshunos-tadqiqotchilar Narshaxiyning asariga murojaat qiladilar. Arab tilidagi «Buxoro tarixi» (Narshaxiy qalamiga mansub) asari keyinchalik ko'pchilik tadqiqotchilarga ma'lum bo'lsada, ko'pgina kitoblarda, Narshaxiy va uning asari alohida tilga olinadi. Ammo, akademik V.V.Bartoldning aytishicha Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asari fors tilidagi nusxasi shaklida, bir qancha qisqartirishlar bilan etib kelgan.

Ba'zida Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asariga qo'shimchalar ham kiritilgan. Buxoroning mug'ullar tomonidan egallanishiga qadar bo'lgan davr yoritilgan. Arablar bosqiniga qadar ham, Buxoroda ko'plab mahalliy hukmdorlar podshohlik qilishgan. Ko'pgina shaharlar arablar bosqinchiligi natijasida vayron etilgan. Narshaxiy ayrim hududlardagi inshootlarni aks ettirish bilan birga, Samarqand bilan bog'lik ma'lumotlarni ham keltirib o'tgan. Tadqiqotchi N.Veselovskiy ham Narshaxiyning asaridan ba'zi o'rinlarda foydalangan. Akademik V.V.Bartoldning «Turkiston tarixi» va «Turkiston madaniy hayoti» nomli maqolalari o'z navbatida «Buxoro tarixi» asari o'rganilishida asosiy tadqiqot ishi bo'lib hisoblanadi. Orta asr Buxoro topografiyasini o'rganishda barcha tadqiqotchilar o'z qarashlarini ilgari sursalarda, «Buxoro tarixi» asariga juda ko'p hollarda murojaat qilishadi. Narshaxiy ma'lumotlarini tahlil qilgandan so'ng, quyidagi fikrlarni ilgari suradilar: Arablar Orta Osiyoga bostirib kelganida, o'zaro, ichki ziddiyatlar davom etgan. Dehqon-mahalliy amaldorlar o'z kiyimlari bilan boshqa aholidan ajralib turgan. Qilich va qimmatbaho kiyimlar ularga tegishli bo'lib hisoblangan. Somoniylar davrida ham ular ba'zan an'alarini saqlab qolgan. Samarqandning Janubiy-Sharqiy qismida joylashgan ba'zi qishloq, joylar aholi bilan gavjum bo'lgan. Binnit shahrida ham dehqonlarning ta'siri yuqori bo'lgan. Urush davrlarida ular mahalliy-harbiy kunlarga boshchilik qilgan.

Bir qator Eron tarixchilarining fikricha, Sosoniylar davridagi kunli monarxik hukumat Movaraunnahrga to'liq yoyilmagan. Mahalliy hukmdorlar dvoryanlar orasida faqat birinchi hisoblangan xolos. Narshaxiyning yozishicha, Buxoroda mahalliy hukmdorlarga «Buxor-xudat» unvoni berilgan («Buxoro xo'jayini»).

Narshaxiy quyidagi fikrlarni ilgari suradi: «Dvoryanlar orasida asosiy amaldorlar, dvoryan dehqonlar edi. ular o'zlarini qadimgi dehqonlar sulolasidan deb hisoblashganlar. Asosiy er-mulklar ularning tasarrufida bo'lib, aholining ko'pchilik qismi ishlashga majbur edilar».¹ Dehqonlar o'zlarini kunli mahalliy hukmdor sifatida his qilishib, o'zaro nizolarga yo'l qo'yishgan. Ba'zida yirik hudud, qishloq, viloyatlar yagona hukmdor qo'l ostida birlashganlar. Farg'ona, Samarqand va Shosh (Toshkent) hududlarida mahalliy hukmdorlarning ijtimoiy-siyosiy ahvoli xususida Narshaxiy batafsil ma'lumotlarni yozib qoldirgan. Ammo amaldorlarni bo'ysindirish doimo muvaffaqiyatli kechmagan. Dehqon-mahalliy hukmdorlar qishloqlar bilan cheklanib qolmasdan, shaharlarga ham egalik qilib kelgan. Narshaxiyning aytishicha, Buxorodagi dehqonlardan biri butun ko'cha bo'ysingan. Qo'shni Erondagi singari, bu hududda ham, ijtimoiy-mulkiy munosabat rivojlanib borgan. «O'lik er» iborasi bu davrda er-mulkka nisbatan ishlatilgan. Narshaxiy juda ko'p bor ta'kidlab Movaraunnahrda xususiy er egalari bo'lganini bildiradi. Ismoil Somoniy davrida bo'sh yotgan erlarni o'zlashtirishga alohida e'tibor qaratilgan. Uning davrida mahalliy amaldorlarning boyligi yanada oshib borgan. O'rta Osiyoda oddiy aristokratiya bilan bir qatorda, savdogarlarning mavqei baland bo'lgan. Buxoro bilan Xitoy o'rtasidagi savdo aloqalari bo'lganligini Narshaxiy o'zining «Buxoro tarixi» asarida aytib y'tgan: «Buxoro viloyatidagi asosiy savdo punkti – Poykand edi. Bu «savdogarlar shahri» deb ham atalar edi» (Narshaxiy «Buxoro tarixi»).

Narshaxiyning so'ziga qaraganda, Buxoro savdogarlari nafaqat Xitoy bilan, balki Kaspiy bo'yi viloyatlari bilan ham, dengiz savdo aloqalarini olib borgan. Arablar bosqinchiligi davrida Poykand shahri vayron etilgan. Ammo keyinchalik Poykand shahri yana qayta tiklangan. Buxoroning arab bosqinchiligi tomonidan egallanganligi bilan bog'liq ko'plab ma'lumotlarni Narshaxiy o'zining «Boy tarixi» asarida, boy savdogarlarning ko'pchiligi boshqa hududlardan ekanligini ko'rsatib o'tadi. Savdogarlar o'z xizmatchilari uchun alohida uylar qurib, o'zlari uchun bog' ham yaratishganlar. Ammo arab bosqinchiligidan so'ng, ayrim shaharlar ilgarigi holatlariga ega bo'lishgan. Qayta tiklash to'liq amalga oshmagan. Yangi shaharlarda musulmon

¹ Пугаченкова Г.А. и Ремпель Л.И. «Бухара». Изд. Иностран. лит. М., 1954, стр. 38-40.

dini, urf-odatlarini hukmronlik qila boshlagan. Musulmonlar tomonidan yangi qal'alar ham qurilgan. Ammo, me'moriy inshootlarning ko'rinishi o'z asl holatiga kelmagan 700 ta qal'a mavjud bo'lsa, arab bosqinchiligi natijasida 2-3 tasi qolgan xolos. Yangi binolar asosan musulmonlar masjidi hisoblangan. Arablar bostirib kelgandan so'ng, badavlat savdogarlar ham, o'zlarini dehqon deb atashmagan. Ular kelib chiqishi jihatidan, aristokratlardan unchalik farq qilmagan, ko'chmas mulk egalari bo'lib qolishaveradi.

Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asarida bildirilishicha, Somoniylar xalifadan ayrim xizmatlari uchun investitura (hukmdorlik uchun yorliq) olgan. Islom dini Movaraunnahrga tezda yoyila boshlagan. IX asr boshlaridanoq Buxoroda ko'plab ko'zga ko'ringan musulmon ta'limotchilari bor edi. IX asrning ikkinchi yarmiga kelib, Abu Abdulloh faqihning ta'siri oshib bordi. Ismoil ham Abu Abdulloh shahar aholisiga ta'sir o'tkazishini bilar edi. Ismoil dastlab Buxorxudot dehqon va savdogarlari bilan kurash olib borishga kirishgan. Ularning xalq orasida ta'siri oshib ketishidan qo'rqqan. Ismoil Buxorxudot bilan uchrashish uchun, akasi Nasrni elchi qilib yuborgan. Bu bilan maxfiy rejalarini amalga oshirishni mo'ljallagan edi.¹

Ismoil o'z ahvolini mustahkamlab olish maqsadida shaharlardagi aholi ommasini o'z tomoniga og'dirishga harakat qildi. Buxorxudot lavozimini bekor qilib, unga 20000 dirham nafaqa tayinlash bilan vaziyatni oqlashga harakat qildi. Buxorxudotlarning ilgarigi saroylari, Buxorodan Xorazmga ketish yo'lida joylashgan. Buxorodan bir kunlik yo'l masofani tashkil qilgan. Ismoil Varaxsha aholisiga murojaat qilib, saroy va masjid qurishni taklif etadi, ammo aholi buni qat'iyan rad etadi. Somoniylar davrida byurokratik boshqaruv o'rnatilganligini Narshaxiy aytib o'tadi. Turk qullaridan iborat saroy gvardiyasi, doimiy faoliyat yuritib kelgan. Somoniylar hukmronligi davomida, despotik boshqaruv bilan birgalikda feodal tartib o'rnatildi. Ular fan va san'atga homiylik qildi. Feodallarga qarshi kurashish uchun, somoniy hukmdorlar ayyorona siyosat yuritishgan. Buxoro va uning atrofodagi ko'plab Ismoilga tegishli deb e'lon qilingan. Er-mulk siyosati alohida o'rin egallab, Ismoil katta

¹ Бартольд В.В. «Проблемы по отдельным пробоемам истории Средней Азии». Изд. «Наука». М., 1964, стр. 326-329

hisobdagi erlarni to'lov evaziga jam sotib oladi. Hatto ba'zi hududlar uchun 170000 dirham mablag' to'lagan. Somoniylarga bo'ysunuvchi mahalliy hukmdorlar ham ko'pchilik bo'lib, er-mulklarga soliq to'lasalarda, o'z hisoblarida saqlab kelishgan. Iloq viloyati – Angren vohasida joylashgan bo'lib, hukmdorlari somoniylar bilan ijtimoiy-siyosiy masalalarda kelishishga majbur bo'lishgan. Ushbu viloyatning markazi – poytaxti Tunkat shahri edi. Uning hukmdori o'z nomidan tanga zarb qildirganligini Narshaxiy o'z ma'lumotlarida aytib qoldirgan. «Kuchli dejqon» sifatida ta'riflangan, Narshaxiy bergan ma'lumotlarda ko'rstatilishicha, Movaraunnahrda Buxoro va Samarqanddan tashqari, faqat Tunkatda tanga-pul zarb qilingan. Iloq dehqonlarining ba'zi tangalari hozirga qadar saqlanib kelinmoqda. Tunkat shahri Angren sohillarida joylashgan bo'lib, asosiy boshqaruv ko'rinishlariga ega bo'lgan. (Toshkent va Xo'jandga nisbatan sharqiy qismda joylashgan. (Narshaxiy).

Umuman Movaraunnahning sharqiy, shimoliy viloyatlari arablar tomonidan faqat IX asrda bo'ysindirilgan. Ustrushona hududiga kelgan arablar mahalliy mahalliy aholi bilan aralashib ketishadilar. Tohariston masalasida bildirilgan fikrlar tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgach, ba'zi noaniqliklar borligi ma'lum qilinadi. Musulmon davriga qadar Buxoro bilan bog'liq holatlarni asosan Narshaxiy ma'lumotlariga tayanib o'rganamiz. Buxoro qishloqlaridagi urf-odatlar mahalliy an'analar borasida bir qator faktlar keltirib o'tiladi. Buxoro topografiyasini o'rganishda tadqiqotchilar V.V.Bartold va Shishkinlarning izlanishlari katta ahamiyat kasb etadi. V.V.Bartold o'zining «Turkiston mug'ul bosqinchilari davrida» nomli ishida, ko'plab ma'lumotlarni yig'a olgan. Yozma manbalar va Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asaridagi holatlarni batafsil tekshirib chiqishga harakat qilgan.¹ L.A.Zimin tomonidan chiqarilgan «Buxoro arxeologik yodgorliklari» nomli maqolada ham, Narshaxiyning asari ko'plab tahlil qilingan. Ularning tadqiqotlari Narshaxiy asari tarixshunosligi bo'lib hisoblanadi. Musulmonlar hukmronligi o'rnatilgunga qadar, Buxoroda ko'plab shaharlar, markazlar mavjud bo'lgan. Arablar tomonidan masjidlar ham qurilgan. Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asarida batafsil ma'lumotlar berilgan. Shahriston, butxona bo'lganligini (arablarga qadar) ham Narshaxiy yozib qoldirgan. Diniy

¹ Нильсен В.А. «Бухарский намазгах». Изд. АН УзУзССР. Т., 1950, стр. 108-110.

markaz, muassasalar qanday bo'lganligi ayrim bahslarga sabab bo'ladi. Narshaxiy o'z asarida, zardushtiylik diniy markazlari bo'lganligini yozib qoldirgan. Tarixshunoslikda bu to'liq isbotini topadi. Arablar Buxoroni bosib olgach, yirik savdogarlar o'zlariga qal'a qurish uchun, arab noibi bilan kelishishga majbur bo'lgan. Shimoily-g'arbiy qismda 700 ga yaqin qal'alar vujudga kelgan. Narshaxiy buni aniq ta'kidlab o'tgan. Zardushtiylarning diniy markazlari arablar tomonidan vayron etilgan. Otashxonalarining soni ko'pchilikni tashkil qilishini Narshaxiy tomonidan ko'rsatib o'tilgan. Otashxonalarining ayrim eshiklari tarixiy-arxeologik izlanishlar natijasida topilgan. Tarixshunoslar Ханыков, Умняков, Калмыковlar ham Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asariga murojaat qilib o'tishgan. Umnyakovning so'zlariga ko'ra, Somoniylar davridagi masjidlar shahar (Buxoro) atrofida ko'plab qurilgan. Otashparastlar (zardushtiylar) ibodatxonalari qachon qurilganligini, ya'ni aniq vaqtini Narshaxiy ham ko'rsatib o'tmagan. Bu diniy markazlarning asosiy maydoni bir necha bor vayron etilib, bir necha bor tiklangan. Buxoro hukmdorlarining saroylari esa, Narshaxiy tomonidan aniq bildirib o'tilgan.

XII asrdagi saroylarning ko'pchiligi keyingi davrlarda ham saqlanib qolgan. Shubhasizki, arablar hukmronligiga qadar, diniy markaz, muassasalarning ko'pchiligi zoroastrizm (zardushtiylik) bilan bevosita bog'liq bo'lgan. Siyovush, Afrosiyob nomlari ham ba'zi afsonalar qatorida ko'rsatib o'tiladi. Narshaxiy quyidagi so'zlarni yozib qoldirgan: «Zardushtiylikda har bir erkak kishi quyosh oldiga chigib, xo'rozni qurbonlik qilishgan». Tarixshunoslikda Narshaxiy asariga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda. Narshaxiy yildagi yangi kunni Navro'z deb ataydi. Qurbonlik qilish marosimini Narshaxiy tahlil qilar ekan, ulardagi urf-odatlar doimiy davom etganligini ta'kidlab o'tgan. Narshaxiyning asarida buddizm o'rini zardushtiylik egallaganligini, bu jarayon VII asrda amalga oshganligi bildirilganligini V.V.Bartold tasdiqlaydi. Narshaxiyning hikoya qilishicha, Buxoroda ko'pchilik aholi qadimda butparast bo'lgan. Sohil bo'ylarida masjidlar ko'rinishidagi diniy markazlar faoliyat yuritgan. Uning ta'kidlashicha, otashxonalar ham ko'pchilikni tashkil qilgan. Bozor kunlarida kishilar otashxonalar atrofida yig'ilishib olovga e'tiqod qilishgan. Otashxonalar arablar

bosqinchiligiga qadar saqlanib qolgan. Arablar bu hududlarni egallab olgach, otashxonalar o'rnida masjidlar qurishadilar.

Narshaxiy yana quyidagi holatlarni ta'kidlab o'tgan: Makka darvozasi o'rnida Matok masjidi qurilgan. Umnakovning so'zlariga ko'ra, Buxoroda ikkita masjid bor, bular Attor va Kurgi deb nomlangan. Ziravorlar sotiladigan maxsus darvoza (bozor qismi) mavjud bo'lgan, bu attoron deb nomlangan. Musulmon bosqinchiligi davriga qadar Buxoro shaharlarida me'moriy inshootlar ko'pchilikni tashkil qilgan. Narshaxiyning aytishicha, Arslonxon ko'plab masjid va shahristonlarni o'z ta'siriga o'tkazib olish uchun katta mablag'larni sarflagan.¹ 937 yil Buxorodagi Maxa masjidida katta yong'in sodir bo'lgan. Yong'in Samarqand darvozisidan boshlangan. Masjidning katta qismi yonib ketganligini Narshaxiy ham o'z asarida yozib qoldirgan. Narshaxiy podsho Maxa haqida ma'lumot beradi. Uning to'liq ismi - Abu Muhammad al Avrad ibn Hamid ibn Abd ar-Rahmon ibn Max al Buxoriy al-Maxi. Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asarini tarixshunoslikda keng o'rganilayotganligini ta'kidlab o'tishimiz lozim. Tarixshunoslar Romiton qishlog'ini «Qadimgi Buxoro» deb ham ataydilar. Narshaxiy bu ma'lumotni o'z asarida ko'rsatib o'tgan. Romitonda ham butxonalar mavjud edi. Buxoro majumiylari haqida manbalarda bir qancha ma'lumotlar beriladi. Bunda Kayxisrav tilga olinadi. Qadimgi Buxoroliklarning vujudga keltirgan ibodatxonalari Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asarida ko'rsatib o'tilgan: «Kayxisrav taxtdan voz kechgach, oradan 120 yil o'tib Zaroastr tug'ilgan» kabi ma'lumotlar bor. Tadqiqotchilarning izlanishlari munosabati bilan, Narshaxiy yozib qoldirgan ma'lumotlar, turli xil usullar bilan tahlil qilingan. «Arablar Kesh va Nasafdan Buxoroga qaytishda bir qishloqda to'xtaydilar. Ushbu qishloqda otashxonalar bo'lgani, diniy munosabatlar xususida aniqlik kiritiladi» degan so'zlar Narshaxiy ma'lumoti bo'lib hisoblanadi.

Tarixshunoslikda ilgari surilgan faktlarning ko'pchiligi tarixiy manbalar asosida tahlil qilingan. «Buxoro tarixi» asariga tarixshunoslikda katta o'rin berilgan. Narshaxiyning bildirishicha, arablar Buxorodagi yirik markazlarni umuman

¹ Бартольд В.В. «Проблемы по отдельным пробоем истории Средней Азии». Изд. «Наука». М., 1964, стр. 474-475.

e'tiborlaridan chetda qoldirmaydilar. Buxorodan Sug'dga yo'l bo'lganligi yozib qoldirilgan. Poykend yirik savdo markazi bo'lganligini ko'plab tarixchilar ta'kidlab o'tganlar. Tadqiqotchilarning ba'zi bahslari yuzaga kelsa, aniq faktlar Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asari bilan qiyoslanadi. Tarixshunoslar Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asaridagi holatlar ichida ayrim joy va shaharlarni alohida tahlil qilib chiqadilar. Romiton – bu katta bir Kuhandizga ega. Bu mustahkam bir qishloq bo'lib, Buxorodan qadimiyroqdir. Ba'zi kitoblarda bu qishloqni Buxoro deb ataganlar. Bu qishloq qadim vaqtlarda podsholarning turar joylari bo'lgan. Buxoro shahri vujudga kelgandan so'ng, podshohlar qish faslidagina bu qishloqda turadigan bo'ldilar. Bu erlar islom davlatiga o'tganda ham, shunday bo'lib turgan. Bu qishloqni Afrosiyob (afsonaviy shaxs) qurdirgan. Forslarning kitoblarida bildirilishicha, Afrosiyob ikki ming yil yashagan. (Siyovush va Kayxisrav ham sanab o'tiladi). Haqiqatdan ham Romiton qishloqida otashparastlar ibodatxonasi qurilganligini Narshaxiy o'z kitobida yozib qoldirgan. Buxorodagi otashparastlar diniy markazlari boshqa geograflar asarlarida ham ko'rsatib o'tilgan (Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asarida Afrosiyobning qabri Buxoroning Ma'bad darvozasida ekanligi bildirilgan).

Akademik V.V.Bartold, Rasulev, O'rinboevlar boshqa bir qancha qal'a, qishloqlar, shaharlarni tahlil qilib o'tadilar. Varaxsha – ba'zi hollarda, Varaxsha o'rnida Rashfandun deb yozishadilar. Bu ham katta qishloqlar qatoriga kirib, Buxoroda qadimiyroq bo'lgan. Narshaxiyning yozishicha, bu erda ham Buxoro podshohlari, mahalliy amaldorlar yashagan. Buxoro devoriga o'xshash, inshootlar, arig'lar qurilganligi ta'kidlangan. Buxorxudotlar bu erda katta qasr qurganlar. Ismoil Somoniy bilan Varaxsha munosabatlariga ham e'tibor qaratilib, Ismoil bu erda bir necha bor yig'ilish o'tkazganligini aytib o'tishadilar. «Buxoro tarixi» asarida: Bu qishloqda o'n besh kunda bir bozor bo'ladi. Yilning oxirida esa, yigirma kun bozor amalga oishirilib, yigirma birinchi kun Navro'z – yangi kun bayramini o'tkazganlar. Buni «Naro'zi kishovarzon» - «Dehqonlar Navro'zi» deydilar. Buxoro dehqonlari yil kunlari hisobini o'sha kundan boshlaganlar. Ular bunga alohida e'tibor qaratganlar. Otashparastlarning Navro'zi undan besh kun keyin bo'ladi. Poykand – shaharlar jumlasiga kiradi. Buxoro bilan bog'liq ma'lumotlarni Narshaxiy o'zining «Buxoro tarixi» asarida yozib

qoldirgan.¹ Boykand – buni shaharlar jumlasidan deb hisoblaydilar. Boykand (Paykand) aholisi, biror kishining Boykandni qishloq deb atashiga rozilik bergan emaslar. Agar biror Boykandlik Bog’dodga borsa va undan «sen qaerdansan?» deb so’rasalar, u Boykanddanman degan, Buxorodan degan emas. Boykandda katta masjidi jome va oliy imoratlar bor. To 240 yilgacha (2 iyun 854 – 21 may 855) Boykand darvozasi oldida ko’p robotlar bo’lgan. I.M.Umnyakovning fikricha, Muhammad ibn Ja’far (an-Narshaxiy) o’z kitobida keltirishicha, Poykandda Buxoro qishloqlari soniga, mingdan ortiq robot bo’lgan. Buning sababi shuki, Poykand katta va yaxshi joy bo’lib, har bir qishloqning aholisi u erda bir robot qurib, unga bir to’da kishilarni joylab qo’ygan va ularning nafaqalarini qishloqdan yuborib turgan. Qish faslida dushman hujum qiladigan vaqt bo’lganida har bir qishloqdan u joyga ko’p xalq to’planib, g’azot qilganlar. Shunda har bir qavm o’z robotiga kelib tushgan.

Poykand aholisi hammasi savdogar bo’lgan. Ular Xitoy va dengiz orqali boriladigan mamlakatlar bilan savdo aloqalarini olib borishgan va juda boy bo’lishgan. Qutayba ibn Muslim Poykand juda mustahkam bo’lganligi sababli, uni olshda ko’p qiyinchiliklar ko’rdi. Uni jezdan qurilgan shahriston der edilar. U Buxoro shahridan qadimiyroq. Bu viloyatda bo’lgan har bir podshoh o’zi uchun Poykandni tura rjoy deb bilar edi. Farobdan Poykandgacha o’n ikki porsang masofada biyobon bo’lib edi.

Arslonxon Muhammad ibn Sulaymon o’z davrida Poykandni qaytadan qurishga buyruq bergan. Odamlar u erda yig’ilib, yaxshi imoratlar qildilar. Hoqon Arslonxon o’zi uchun juda hashamatli saroy qurdirdi. Xaromkon suvi Poykandga kelardi. Poykandda qamishzorlar va katta-katta suv xalqoblari tutashadi: ularni «Bargini farax – Kent havza» deydilar. Uni Qorako’l deb ham ataydilar. Ma’lumotlarga ko’ra, u ko’lning kengligi yigirma farangdir. «Masolik va mamolik» kitobida aytilishicha, uni «Buxoroyi Samjan» ko’li deb ataydilar. Buxoro suvining ortiqchasi ham o’sha joyga yig’ilgan va unda suv jonivorlari bo’lgan. Butun Xurosonda bu erdagidek miqdorda qush va baliq tutilmagan. Haromkonning suvi Poykand imoratlari tagiga goh etib kelishi, goh etib kelmasligi tufayli, suv imoratlargacha etib kelmasligi uchun

¹ Наршахи М. «История Бухары». Перевод с перс. Ликашин К. Под. ред. Бартольд В.В. Изд. иност. лит. Т., 1997. стр. 24-28.

Arslonxon alohida ariq qazishga buyruq berganligi eslatib o'tiladi. Poykand tog' tepasida joylashgan bo'lib, lekin tog'i baland emas edi. Hoqon tog'dan ariq qazishga buyurdi. Tosh shunday qattiq qediki, unda hech bir darz (bo'linish, maydalanish) yo'q edi. Toshni maydalash uchun katta mehnat sarf qilingan.

Forob – bu shaharlar jumlasidandir. Forob – Jayxun daryosidan boshlanib, suv toshgan vaqtlarda esa yarim farsang keladi. Goho shunday ham bo'ladiki, Jayxunning suvi toshib, Forobgacha borib etadi. Forobda katta masjidi jome bo'lib, uning devorlari va tomi pishiq g'ishtdan bo'lgan va unga sira yog'och ishlatilmagan. Forobning bir amiri bor ediki, u biror (zaruriy) hodisa yuzasidan ham Buxoroga kelishni lozim topmas edi. U erda bir qozi bor ediki, qattiq siyosat yurgizar edi. Buxoro qishloqlarining soni ko'p bo'lgan. Tadqiqotchilar Umnyakov va boshqalar «Buxoro tarixi» asarida ko'rsatilgan manbalarni atroflicha tahlil qilib chiqdilar. Buxoro dagi – «Bayt ut-tiroz» to'qimachilik korxonasi xususida ko'plab ma'lumotlar berib o'tilgan. Buxoroda Hisor bilan shahriston o'rtasida, masjidi jome yaqinida bir korxona bor edi, unda paloslar, darpardalar, kiyimliklar, yostiq jildlari, ustki kiyimlarning xillari xalifa uchun to'qir edilar. Bitta darpardaga Buxoro xiroji sarf bo'lar edi. Bog'doddan har yili alohida bir kishi kelib, Buxoro xiroji evaziga shu kiyimliklardan olib ketar edi. Bir vaqt kelib, bu korxona bekor qoldi va bu hunar bilan shug'ullanadigan kishilar tarqalib ketdilar.

Buxoro shahrida shunday ishga tayin qilingan ustalar bo'lar edi.¹ Viloyatlardan savdogarlar kelib, odamlar zandaniynilarni olib ketganlaridek, u kiyimliklardan Shom va Misrga, Rum shaharlariga olib ketar edilar. Xurosonning hech bir shahrida bunday matoni to'qiy olmas edilar. Shunisi qizikki, bu hunar egalaridan ba'zilar Xurosonga bordilar va bu ish uchun kerakli asboblarni shaylab, shu kiyimliklardan to'qidilar. Lekin Buxorodagidek sifatli bo'lib chiqmadi. Bu kiyimga ega bo'lmagan birorta podshoh, amir, rais yoki mansab egasi yo'q edi, uning qizil, oq va yashil ranglari bo'lar edi. Lekin, bugun hamma viloyatlarda u kiyimlikdan ko'ra zandaniyni mashhurroqdir.

¹ Источниковедение: Теория, история, метод. Изд. «Наука». М., 1998, стр. 14-15.

Tadqiqotchilar Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asaridagi manbalarni alohida ko'rsatib o'tadilar. Masalan: «Bozori Moh»ning bayoni. Buxoroda bir vazir bor ediki, uni «Bozori Moh ro'z» der edilar. U erda yiliga har gall bir kundan ikki marta bozor qilar va har bir bozor bo'lgan kuni «but» (bolalar o'yinchog'i) sotar edilar. Har bozor kuni ellik ming dirhamdan ortiq savdo bo'lar edi. Muhammad ibn Ja'far an-Narshaxiy o'z kitobida shunday deydi: «Bu bozor bizning vaqtlarda ham bor ediki, men nega bunday odat rasm qilingan deb juda ajablanar edim». Ular: «Qadim vaqtlarda Buxoro aholisi butparast bo'lganlar va bu bozor rasm bo'lib, o'sha davrdan boshlab, bu erda but sotganlar, bozor hozirda ham o'sha qadimgidek qolib kelmoqda» - deb javob berdilar. Abul Hasan Nishopuriyning «Xazoin ul-ulum» kitobida aytilishicha, qadimgi vaqtlarda Buxoroda bir podshoh bo'lib, uning nomi Moh edi. u ana shu bozorni qurishga buyurdi, uning farmoni bilan duradgorlar va naqqoshlar bu yildan kelasi yilgacha but yo'nib, belgilangan kunda shu bozorga keltirib sotishar va xalq butlarni sotib olar ekan. Har qachon bu but yo'qolsa yoki sinsa, yoki eskirsa bu bozor kuni boshqa yangisini sotib olishar va eskisini tashlar ekanlar.

Hozir Moh masjidi o'mashgan erda katta ariq bo'yida bir serdaraxt tekislik joy bo'lib, shu daraxtlar soyasida dam olishga qiziqtirish uchun shu bozorga kelib, taxtga o'tirishar, har kim o'zi uchun but sotib olar va uyiga ketar edi. Bu joy yana otashparastlar ibodatxonasi bo'lib, bozor kuni odamlar bu erga yig'ilganlarida hammalari ibodatxoganaga kirib olovga sig'inar edilar. Bu ibodatxona to islom davrigacha bor edi. Musulmonlar quvvatlanib ketgach, Moh masjidini xuddi shu joyga bino qildilar. Hozir u Buxoroning mo'tabar masjidlaridandir. Buxoroning turli nomlari bayoniga tadqiqotchilardan G.A.Pugachenkova e'tibor berib, asosiy ahamiyat kasb etuvchi holatlarni sharhlab o'tgan. Ahmad ibn Muhammad ibn Nasr Buxoro ko'p ismlarga ega deydi va o'z kitobida Numishkat (Hisor qal'a ma'nosida ishlatilmoqda) degan nomni keltiradi. Yana boshqa bir joyda uni Bumiskent deb keltirilganligi ko'riladi. Boshqa bir joyda arab tilida «Madinat us-sufriyo», ya'ni «Miss shahar» va yana boshqa bir joyda arab tilida «Madinat ut-tujjor», ya'ni «Savdogarlar shahri» deb yozilgan. Buxoro degan nom u nomlarning hammasidan mashhurroqdir. Xuroson shaharlaridan birortasi ham bunchalik ko'p nomga ega emas. Bir hadisda Buxoro nomi

Foxiri bo'lib qolgan. Xoja imom, zohid, voiz Muhammad ibn Ali Nujobodiy Salomoni Forsiydan (viloyat) bir hadis rivoyat qilgan. Salomonning aytishicha, payg'ambar, xudo bu shaharga rahmat va salomini yo'llasin, yana aytganki, Jabroil unga xudoning rahmatlari bo'lsin, kun chiqish tomonda bir joy bor, uni Xuroson deydilar. Uning uchta shahrini qiyomat kuni yoqut va marjon bilan ziynatlab keltiradilar va ulardan nur chiqib turadi. U shaharlarning tevaragida farishtalar ko'p bo'lib, ular masboh, hamd va takbir aytadilar. Go'yo kelinni kuyov uyiga olib borgandek u shaharlarni e'zoz va ikrom bilan Mahshargohga olib keladilar. Bu shaharlarning har birida etmish mingdan bayroq, har bir bayroq tagida etmish mingdan shahid bo'ladi va har bir shahidning shifoati bilan forsni so'zlovchi va xudoni bir deb biluvchi etmish ming kishi azobdan qutuladi. Qiyomat kuni u shaharlarning har tarafi: o'ng va so'li, oldi va orqasi o'n kunlik yo'l bo'lib, bularning hammasida shahidlar turadi. Hazrat payg'ambar, xudo unga rahmat va salomini yo'llasin – ey Jabroil, u shaharlarning nomlarini menga ayt deb so'radi. Jabroil unga xudoning salomi bo'lsin, shaharlarning birini arab tilida Qosimiy, fors tilida Yashvard deydilar, ikkinchisini arab tilida Samaron, forschada Samarqand deydilar, uchinchisini esa, arabchada Foxira, forschada Buxoro deydilar. Uchinchisini bildirishgandan so'ng, muhokama qilinadi.¹

Buxoro Arkining bino etilishi haqida.

Ahmad ibn Muhammad ibn Nasr Buxoro Arkining ahamiyati haqida to'xtalib shunday deydi: Abu-l-Hasan Nishopuriyning «Xazoin ul-ulum» asarida aytishicha, Buxoro ko'handizning, ya'ni Buxoro arki hisorining bino etilishiga mana shu voqea sabab bo'lgan: Siyovush ibn Kaykovus o'z otasidan qochib, Jayhun daryosidan o'tib Afrosiyobning oldiga keldi. Afrosiyob uni yaxshi qabul qildi va o'z qizini unga xotinlikka berib, aytishlaricha barcha mulkini ham unga topshirdi. Bu viloyat o'ziga vaqtincha berib qo'yilganligi tufayli Siyovush bu erda o'zidan bir yodgorlik qoldirishni istadi. Shunday qilib, u Buxoro hisorini bino qildi va ko'proq vaqt o'sha joyda turdi. Kimlardir u bilan Afrosiyob o'rtasida ziddiyot keltirib chiqardi. Natijada Afrosiyob uni o'ldirdi va ana shu hisorda sharqiy darvozadan kiraverishda «Darvozai g'uriyon» deb atalgan somonfurushlar darvozasining ichiga dafn etdilar. Spu sababli,

¹ Источниковедение: Теория, история, метод. Изд. «Наука». М., 1998, стр. 18-22.

Buxoro otashparastlari o'sha joyni aziz tutadilar. Unga atab har bir erkak kishi har yili Navro'z kuni quyosh chiqishidan oldin o'sha joyda bittadan xo'roz so'yadi. Buxoro aholisining Siyovushning o'ldirilishiga bag'ishlab aytgan marsiyalari bo'lib, u barcha viloyatlarda mashhurdir. Kuychilar unga moslab kuy yozganlar va qo'shiq qilib aytilgan. Qo'shiqchilar uni «otashparastlar yig'isi» deb ataganlar. Bu voqealar bo'lib o'tganiga hozir o'n ming yildan ortiqroq vaqt o'tdi.

Shunday qilib, yuqoridagi rivoyatga ko'ra bu hisorni Siyovush barpo qilgan, ba'zilar esa Afrosiyob bino qilgan deganlar. Keyinchalik bu hisor buzilib ketib, ko'p yillar vayronligicha qoldi. Biz aytib o'tgan xotinning eri Tug'shodaning otasi bo'lgan. Bidun Buxordot taxtga o'tirganidan keyin, odam yuborib, bu hisorni tuzattiradi va o'z nomini temirga yozdirib qasrning eshigiga maxkam o'rnattiradi. Shu xat bitilgan temir tarijimonning zamonigacha o'sha qasr eshigida mavjud edi. Lekin, Ahmad ibn Muhammad ibn Nasrning aytishicha, hisorni vayron qilganlarida, u eshikni ham buzib yuboradilar. Ahmad ibn Muhammad ibn Nasrning ma'lumotiga ko'ra, Muhammad ibn Ja'far va Abu-l-Hasan Nishopuriy bunday deganlar: Bidun Buxorxudot u qasrni bino qilganida buzilib ketadi, qaytadan bino qilgan edi, yana buziladi. U necha marta bino qilmasin, yana vayron bo'laveradi. Hukamolarni yig'ib, ulardan maslahat so'raydilar. Ular bu qasrni osmondagi etti qaroqchi yulduzlari shaklida ettita tosh ustun ustiga qurishga qaror qildilar. Shu shaklda qurilgandan keyin qasr buzilmadi.

Bu hisorning kichkina darvozasi bo'lib, biri sharq tomonda, biri g'arb, sharq tomondagisini «Dari g'uriyon», g'arb tomondagisini «Dari Registon» deb ataganlar. Tarjimonning davrida keyingisini «Dari allofuro'shon» deb ataganlar. Hisorning o'rtasida, bu darvozadan to u darvozagacha to'g'ri yo'l bo'lgan. Bu hisor podshohlar, amirlar va askar boshliqlarining turar joylari bo'lib, zindon, podshohlik devonlari va podshohlar turadigan qasr qadimdan shu erda bo'lgan. Saroy harami va xazina ham shu qasrda bo'lgan. Tarjimonning davrida bu hisor buzilib ketdi. Bundan bir necha yil ilgari Arslonxon uni yangilashga buyurdi va o'ziga turar joy qilib oldi, hamda Hisorni ma'lum shartlarga muvofiq idora qilib turishi uchun, ulug bir amirni qutvol – ya'ni qal'a boshlig'i etib tayinladi. Bu Hisor xalq ko'z o'ngida zo'r e'tiborga ega edi.

534 yili oylaridan birida (28 avgust 1139 – 16 avgust 1140) Xorazmshoh (bu erda Xorazmshoh otsiz ko'zda tutilishi kerak. U 1127-1156 yillarda hukmronlik qilgan) Buxoroga kelganida amir zangi Ali xalifa hamda Sulton Sanjarning farmoni bilan, Buxoroning valiyi edi. Xorazmshoh uni qo'lga olib o'ldirdi va Hisorni vayron qildi. Hisor ikki yildan ortiqroq shu vayronligicha qoldi. 536 yili (6 avgust 1141 yil – 26 iil 1142 yil) Gurxon (Gurxon 1141 yili sulton Sanjarni mag'lubiyatga uchratgan. Qoraxitoylar sulolasi hukmdorining unvoni) tomonidan Buxoroga valiy qilib tayinlangan. Alptegin o'sha yiliyoq Hisorni obodonlashtirishga buyurdi va uni o'zi uchun turar-joy qilib oldi. Hisor ilgarigisidan ham yaxshiroq bo'ldi. 538 yili ramazon oyida (8 mart – 6 aprel 1144 yili) g'uz askarlari (turk qabilalaridan biri bo'lgan g'uzlarning sulton Sanjar saljuqiylardan) ixtiyoridagi askarlarni ko'zda tutish kerak) Buxoroga etib keldi. Aynuddavla, Qorachabek va Shahboz vazirlar hisorga qamaldilar, ko'p jang va qiyinchiliklardan keyin g'o'z askarlari hisorni olib, Shahob vazirni o'ldiradilar va hisorni vayron qiladilar. Hisor shu vayronligicha qoldi.

560 yili (18 noyabr 1164 - 6 noyabr 1165) Buxoro shahrining aylanasi devor qurmoqchi bo'ldilar, devorning tagini pishiq g'ishtdan ishlash zarur bo'ldi. Hisorning tagi va minoralari pishiq g'ishtdan edi. uni buzib olib, Buxoro shahrining devoriga ishlatdilar. Hisor bir yo'la vayron bo'ldi va u qasrdan hech bir imorat va nishon qolmadi.¹

¹ Крачковский В.А. «Памятники арабского письма Средней Азии и Закавказье до IX века». Изд. «Прогресс», М., 1952.

II bob. «Buxoro tarixi» asarida ijtimoiy-siyosiy voqealarning aks ettirilishi

2.1. O.A.Suxareva tomonidan . «Buxoro tarixi» asaridagi manbalarning baholanishi

Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asarida Buxoro va uning atrofidagi hududlar quyidagicha ifodalangan: Buxoro hisorining g'arbiy darvozasidan to Ma'bad darvozasigacha bo'lgan masofa Registon deb ataladi. Mana shu Registonda qadim jamiyat davrlaridan beri podshohlarning saroylari bo'lgan. Somoniylar davrida Amiri Sa'id Nasr ibn Ahmad ibn Ismoil Somoniy Registonga bir saroy qurishni buyurdi. G'oyat bir go'zal saroy qurdilar. Amir bunga ko'p mol sarfladi. U o'z saroyi darvozasi oldida amaldorlari uchun saroy qurishni buyurdi. Uni ham shunday qurdilarki, har bir amaldorning podshoh saroyi darvozasi oldida qurilgan o'z saroyida alohida devoni bor edi. Masalan, vazir devoni, moliya ishlari devoni, davlat hujjatlarini boshqarish ishlari devoni, soqchilar boshlig'i devoni, xat-xabarlar mutasaddisi devoni, saroy boshqaruvchisi devoni, xos mulklari devoni, muhtasib devoni, vaqflar devoni, qozilik ishlari devoni. Mana shu tartibda devonlar qurishni buyurdi va ularni qurdilar.

Abdulmalik ibn Nuh ibn nasr ibn Ahmad ibn Ismoilning davrida uning vaziri va «Kitobi yaminiy»ning muallifi Ahmad ibn Hasan al-Utbiy – uning go'ri Darvozayi Mansur mahallasida, don hammomining yonidadir. Madrasa ro'parasida juda yaxshi bir masjid bino qildi vash u masjid tufayli o'sha mavzu kamol topdi. U dono amir otdan yiqilib o'lgach, qullar kechasi saroyga kirib uni talashga kirishadilar. Amirning yaqin kishilari va kanizlari o'rtasida janjal chiqib, saroyga o't qo'yib yubordilar. Saroy butkul yonib ketdi va undagi tilla va kumushdan ishlangan hamma go'zal narsalar yaroqsiz bo'lib qoldi. Shunday yong'in bo'ldiki, u binolardan biron nishon qolmadi.

350 yil shabbon oyida (13 noyabr – 11 dekabr 961) Amiri Sidid Mansur ibn Nuh Jo'yimushyon degan joyda taxtga o'tirgach, uning farmoniga binoan u saroyni yangidan qurib nobud va zoe ketgan narsalarni avvalgidan ham yaxshiroq qilib vujudga keltirdilar. Shunda Amiri Sadid saroyga joylashdi. Biroq, bir yil o'tmay, bir bayram kechasi o'tkazilib, qadimiy odatga muvofiq katta gulxan yoqdilar. Bir parcha olov o'tib saroyning shipi alanga oldi va saroy yana butunlay yonib ketdi. Amiri Sadid kechasi Jo'yimushyonga ketdi. Vazir narsalarni ishonchli kishilar orqali Jo'yimushyonga

yubordi. Tong otgach bita tilla kosadan boshqa hech narsa yo'qolmaganligini aniqladilar. Amiri Sadidning vaziri xolis o'z puliga og'irligi etti yuz misqol (4,25 gramm) keladigan bir kosa buyurtirdi va uni xazinaga yubordi. O'sha vaqtdan beri yana Registon «bo'sh maydon»ga aylanib, vayron bo'lib qoldi. Keyinchalik podshohlar saroylari Jo'yimushyonda bo'lgan. Jo'yimushyonning jannatni eslatuvchi go'zal maqomidan ko'ra yaxshiroq biror joy va manzil Buxoroda yo'q edi. Chunki uning atrofida saroylar, bog'lar, guzarlar va bo'stonlar bo'lib, doimiy oqib turadigan suvlar bilan ta'minlangan. U erdagi chamanzorlar bir-biriga tutashib ketgan va ularning oralaridan ariqlar o'tib, chamanzorlar va gulzorlar tomon ming tarafga qarab oqar edi. Oqib turgan suvlarni tomosha qilgan har biri kishi, bu suv qaerdan oqib kelayopti deb hayron qolar edi. O'z zamonasining nodir ustodlari va me'morlari ana shunday go'zal tarh chizgan edilar.

Bundan tashqari yana Registonning darvozasidan to Dashtakkacha bo'lgan hamma er toshdan ishlanib naqshlangan, bir tartibda baland uylar, turli suratlar ishlangan mehmonxonalar, chiroyli chorbog'lar va chiroyli sarhovuzlardan iborat edi. Sada qayrag'ochlar bir shunday tarzda o'tqazilgan ediki, chodir shaklini olgan edi. Sarhovuz labidagi o'tiradigan joyga sharq tomondan ham, g'arb tomondan ham zarracha quyosh tushmas edi. Bu chorbog'larda nashvati, bodom, yong'oq, gilos, jiyda va anbar bo'yli jannatda bo'ladigan har bir meva g'oyatda go'zal tarzda o'tkazilgan edi.

Jo'yimushyonning bayoni va uning tavsifi.

Jo'yimushyon erlari qadim vaqtlarda Tug'shodaning mulki bo'lib, u o'z farzandi va kuyovlarning har biriga taqsimlab bergan edi. Marhum amir Ismoil Somoniy bularni xalifa an Musta'ih ibn an-Mu'tasimning lashkarboshisi bo'lgan. Hasan ibn Muhammad ibn Tolutdan sotib oldi. Amir Ismoil Jo'yimushyonda saroylar va binolar barpo qilib, uning ko'p qismini mavoliylar (aslida mavlo (xoja) ning umumiy qo'ygan nomi. Bu erdagi o'zshash «ozod etilgan qul» ma'nosida ham keladi. Mavoliy (ozodlik olgan qullar Ismoil Somoniyning gvardiyasida xizmat qilgan) vaqf qilgan. U hozirgacha ham vaqf er bo'lib kelmoqda. Amir Ismoil o'z mavoliylariga g'amxo'rlik qilar edi. Bir kuni amir Ismoil Buxoro hisoridan Jo'yimushyonga qarab turganida, uning yonida otasining mavlosi Simo – ul-Kabir «Ulug' siymo» turgan edi. Amir Ismoil uni juda do'st tutar va

yaxshi ko'rar edi. Unga qarab: «Bir vaqti kelsada, xudoi taollo biror sabab tug'dirib, bu erlarni sizlar uchun sotib olsam va menga umr bergan bo'lsa, bu erlar sizlarniki bo'lganini ko'rsam. Chunki bu erlar Buxoroning barcha erlaridan qiymatliroq, yaxshiroq va xush havoroqdir» - dedi. Xudoyi taollo nasib etib amir Ismoil bu erlarni hammasini sotib olib, mavoliylarga berdi va nihoyat u erlar Jo'yimavoliyon deb ataldi. Ko'pchilik xalq esa uni Jo'yimushyon deydilar.¹

Buxoro hisoriga bir tekislik er tutashgan bo'lib, uni «Dashtak» der edilar. Bu erning hammasi qamishzor edi. Amir Ismoil bu joyni ham Husun ibn Muhammad ibn Talutdan o'n ming dirhamga sotib oldi va birinchi yildayoq qamishning pulidan o'n ming dirhamlik hosil bo'ldi. Amir Ismoil bu joyni masjidi jomega vaqf qildi. Amir Ismoildan keyin, uning farzandlaridan kimki amir bo'lsa, u go'zalligi va xush-havoligi tufayli Jo'yi Mushyonda o'zi uchun bog' va ko'shklar bino qildi. Darvozayi navda shahar darvozasiga tutash bir mavzu bor ediki, uni «Qoraki Alasiyon» - «Ali avlodi ekinzori» deyilardi. Amir Mansur ibn Nuh bu joyga g'oyat go'zal bir ko'shk qurdi. Go'zallikda uni misol qilib gapirar edilar. U 356 yili (17 dekabr 966 – 6 dekabr 967) qurilgan edi. Qoraki Alasiyonning bu erlari to Nasrxon ibn Tamg'anxon qabrigacha sultonlik mulki bo'lgan. Nasrxon bu erlarni shaharga yaqin bo'lganligi uchun faqihlarning dehqonchilik qilishlari osonroq bo'lsin deb, ilm ahllariga berdi va o'zi buning evaziga uzoqroq erlardan oldi. Jo'yi Mushyon va Qoraki Alasiyon somoniylar hukmronligi davrining oxirigacha obod edi. Mamlakat somoniylar qo'lidan ketgach, u saroylar xarob bo'ldi va toki Shamsulmulk Nasr ibn Ibrohim Tashg'inxon davrigacha Buxoroda faqat xisordan boshqa podshohlar uchun biror muayan qarorgoh bo'lmadi. Shamsulmulk Shamsobodni bino qildi. Malik Shamsulmulk darvozayi Ibrohim oldidan ko'p daromadli erlarni sotib olib, darvozagacha qariyb yarim farsang keladigan joyda go'zal bog'lar barpo etdi, imoratlarga ko'p mablag' sarfladi va u joyga Shamsobod deb nom berdi. Shuningdek, Shamsobodga tutash qilib, podshohlikka xos otlar uchun bir o'tloq joy barpo etdi. Uzun, mustahkam devor bilan o'rab, ichiga bir qasr va bir kaptarxona qurdi. Malik Shamsulmulk dunyodan o'tgach, uning birodari Hizrxon taxtga

¹ Крачковский В.А. «Памятники арабского письма в Средней Азии Закавказье до IX века». Изд. «Прогресс», М., 1952. стр. 24-26.

o'tirdi va Shamsobodga ko'pgina imoratlar qurdirdi. Ular g'oyatda go'zal edi. U ham dunyodan o'tgach, o'g'li Ahmadxon poshdo bo'ldi. U Shamsobodga qaramay qo'ydi va Shamsobod xarobaga aylandi. Malikshoh Xurosondan Buxoroga yurish qilib, ko'p joylarni vayron qildi va Buxorodan Samarqand tomon ketayotganida Ahmadxonni asir qilib, Xurosonga olib keldi. Yana uni Movaraunnahrga qaytarib yubordi. Ahmadxon qaytib kelganida Shamsobod tamoman vayron bo'lgan edi. U o'ziga Jo'lborda saroy qurishni buyurdi. Saroy qurilgach, uning ichiga bog'lar, oqar suvlar va uning takomili uchun zarur bo'lgan barcha narsalarni joyiga keltirdilar. Bu saroy o'ttiz yilgacha Buxoro hukmronligining qarorgohi bo'lib turdi. Arslonxon taxtga o'tirgach, har vaqt Buxoroga kelganida, shu saroyda bo'lar edi, keyinroq u saroyni buzdirib, hisorga olib ketishni lozim topib, shunga buyruq berdi. U joy xarob bo'lib qoldi, bir necha yildan keyin Arslonxonning farmoni bilan Bulays ko'chasidagi Darvoza mahallasida saroy va unig ichida podshohlikka xos hammom qurildi. Yana saroy davrozasi oldida misli ko'rilmagan boshqa bir hammom ham solindi. U saroy ko'p yillar davomida Buxoro podshohining qarorgohi bo'lib turdi. Keyinroq esa Arslonxonning farmoni bilan u saroyni faqihlar uchun madrasa qilib berdilar. Saroy darvozasi oldidagi hammomni va bir necha qishloqlarni u madrasaga vaqf qildilar. O'zi uchun xos saroyni esa Arslonxon Sa'dobod darvozasi oldida qurishga buyurdi va saroy qurildi. Muhammad ibn Ja'far an-Narshaxiy o'z kitobida keltirganki, Qutayba ibn Muslim Buxoroga kirib uni olgach, Buxoro aholisiga o'z uylari va erlarining yarmini arablarga berishni buyurdi. Buxoroda bir qavm bor ediki, uni Qashqashon der edilar: ular hurmatli, qadr-qimmatli va e'tiborli odamlar bo'lib, Buxoro aholisi o'rtasida zo'r obro'ga ega edilar. Ular dehqonlardan bo'lmay, chetdan kelgan kishilar bo'lib, aslzoda, savdogar va boy odamlar edilar. Qutayba uylar va asbob-anjomlarni taqsimlab berishga qistay bergach, ular o'z joylari va asbob-anjomlarini butunlay arablarga qoldirib, o'zlari uchun shahar tashqarisida etti yuz ko'shk bino qildilar. U vaqtlarda shaharning kattaligi shahristongacha kelar edi. Kashkashonlardan har biri o'ziga qarashli odamlar uchun uylar qurdi.¹

¹ Крачковский В.А. «Памятники арабского письма в Средней Азии Закавказье до IX века». Изд. «Прогресс», М., 1952. стр. 32-34.

Tadqiqotchilar I.M.Umnyakov va V.V.Bartold Buxoro shaharlari tarixini o'rganishda Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asaridagi manbalardan ko'proq foydalangan. V.V.Bartold Buxoro tarixiga oid maxsus maqolalar yozgan. O.A.Suxareva ham Muhammad Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asaridagi manbalarning ahamiyati xususida to'xtalib o'tgan, Narshaxiyning to'plami 943-944 yillarda arab tilida yozilganligi, asl nusxasi bizgacha etib kelmaganligini ta'kidlaydi. Keyingi tarjima jarayonida ayrim o'zgartirishlar, manbalar ham kiritilgan. O.A.Suxareva ham asar xususida quyidagilarni bildirib o'tadi: Ushbu tarjima 1128 yili Abu Bakr Ahmad Qubbavi tomonidan amalga oshirilgan. Oradan bir necha yil o'tgach, Narshaxiyning asari Zafarning o'g'li Muhammad tomonidan qayta ishlangan. Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asari nafaqat qisqartirib yuborilgan, balki asar tarkibiga qo'shimcha manbalar ham kiritilgan. Dastlabki matn bir qadar o'zgarib ketgan, yangi manbalar bilan boyisada «Buxoro tarixi» asosiy manba sifatida namoyon bo'ladi. Me'moriy inshootlar bilan bog'liq bo'lgan ko'plab manbalar keltirib o'tilgan. Abu Nasr Ahmad Qubbavi esa Narshaxiyning kitobini to'ldirgan «Xazoin ul-ulum» kitobidan ko'plab ma'lumotlar keltirgan.

Buxoro VIII asr boshlarida feodal ko'rinishdagi feodal shaharga aylangan. Arab bosqinchiligi davrida Buxoroning ijtimoiy-siyosiy ahvoli xususida, tarixiy adabiyotlarda ko'plab ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Tadqiqotchi V.V.Bartold Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asaridagi manbalarning bir qadar ahamiyatli va ishonchli ekanligini ta'kidlab o'tadi. Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asaridagi manbalar xususida A.Yakubovskiy ham o'z qarashlarini bildirib o'tadi. Asardagi manbalarda shahriston, devorlar, robotlar keng ma'lumotlar asosida ko'rsatib o'tilgan. Shahriston darvozalari xususida, uning joylashishi, shuningdek ayrim ijtimoiy-siyosiy munosabatlar atroflicha o'rganib chiqilgan. Buxoro topografiyasini o'rganishda ham ko'plab tadqiqotchilar Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asaridagi manbalardan foydalanishgan. Manbalarda Buxorodagi ayrim masjidlar aniq ko'rsatib o'tilgan. Mig'oki attor, Mig'oki ko'rpa va boshqa shu kabilarni tahlil qilishga harakat qilingan. Ammo buning ayrim shakllari boshqacha nom bilan ham atalgan. Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asaridagi manbalarda ayrim bozorlarning joylashuvi ko'rsatib o'tilgan. Attoron bozorining darvozasi

shaharning janubiy qismiga qaratilgan. Narshaxiy quyidagilarni yozadi: «Bir qator bozorlar umumiy tovarlar mo'ljallangan atrofdagi viloyatlardan doimiy ravishda savdogarlar kelib, savdo ayirbosh faoliyatini olib borishgan». Haqiqatdan ham Buxoro shahar bozorlariga boshqa hududlardan savdogarlar kelishi boshqa manbalarda ham ko'rsatib o'tilgan. Narshaxiy o'zining «Buxoro tarixi» asarida mahalliy hukmdorlar xususida kengroq to'xtalib o'tgan. Tadqiqotchi O.A.Suxarevning fikricha, Narshaxiyning asarida keltirilgan manbalar ko'proq mahalliy sharoit bilan bog'liq bo'lgan. Shahrustonning ko'plab darvozalarining joylashuvi atrofdagi inshootlar bilan birga ham tilga olinadi. Xakkal na qanday atama ekanligiga turlicha yondashuvlar mavjud. «Shahruston darvozasi» Narshaxiy asaridagi ko'plab manbalarda birdek ta'kidlab o'tilgan. «Buxoro tarixi» asaridani manbalarda, shu bilarn birgalikda shahar atrofidagi bir qator mavzalar ham ko'rsatib o'tilgan. Aholining ko'pchiligi dehqonchilik bilan ham shug'ullangan.

O'rta Osiyodagi ijtimoiy-siyosiy voqealar albatta Buxoro tarixidagi ayrim o'zgartirishlarni keltirib chiqargan. Bog'doddan kelgan ko'plab amaldorlar Buxorodagi ijtimoiy-siyosiy voqealarni doimiy kuzatib borgan. Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asaridagi manbalarda ushbu voqealar batafsil hikoya qilib berilgan. Tadqiqotchilar tomonidan ma'lumotlar tasdiqlanadi. Buxorodagi dastlabki ishlab chiqarish sohasi hisoblangan Zandanadagi to'qimachilik Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asarida atroflicha tahlil qilib o'tilgan. Asardagi manbalarda aytilishicha, Buxoroda robotlar soni ko'pchilikni tashkil qilgan. Tadqiqotchilar V.V.Bartold, I.M.Umnyakovlar esa Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asaridagi manbalardan foydalanib, shahar darvozalarining nomlarini ko'rsatib o'tadilar. Shahruston ushbu shahar manbalaridagi holatlar ichida alohida o'rin egallaydi. Ushbu asar manbalarida keltirilgan ma'lumotlardan biri quyidagicha: «Malik Shams ul-mulk katta erlarni sotib olib, (Ibrohim darvozasi atrofi) bu erlarni Shamsobod deb atagan», yana bir joyda shuni ko'rsatib o'tadi: «Arslonxon buyruq berib, asosiy bayramlar shahar atrofida o'tkazilishini belgiladi. Ibrohim darvozasi yonida bog'lar qurilgan. Hukmdorning buyrug'iga binoan, bu joy Shamsobod deb atalgani ta'kidlanadi». Robotlar doimiy ravishda kengayib borgan. Arab mualliflarining bergan ma'lumotlari ham,

tadqiqotchilar tomonidan o'rganilib Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asaridagi manbalar bilan taqqoslab ko'rganlar. Arslonxon (1102-1130) tomonidan o'tkazilgan islohotlar natijasida ayrim nomozgohlar atrofida bayramlar o'tkazilishi talab qilingan.¹

Boshqa tadqiqotchilar singari V.V.Bartold O.A.Suxareva ham Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asaridagi manbalarni mukammal o'rganishgan. Ko'proq Afrosiyob bilan bog'liq ma'lumotlar qiziqarli bo'lib, buni quyidagicha ko'rsatib o'tadilar: «Afrosiyobning qabri Buxoroda joylashagn. Bu aynan Ma'bid darvozasigi tegishli hudud bo'lib hisoblanadi. Kattaqo'rg'onda er maydoni katta hududlarni egallaydi». Bu ma'lumotlar esa, boshqa manbalarda ham ta'kidlanib o'tilgan. Ko'plab tadqiqotchilar Ma'bid darvozasini ko'proq tahlil qilishadilar. Chunki ayrim manbalarda Afrosiyobning qabri joylashgan darvoza boshqa nom bilan tilga olinadi. Darvozani Nur, Nun yoki Nau deb ham ataydilar. Narshaxiy Buxorodagi ijtimoiy-siyosiy voqealarni hikoya qilar ekan, arablar bosqinchiligi davrida vayron etilgan qal'alarni ko'rsatib o'tgan. Arab bosqinchilari ko'plab qal'alarni vayron etsada, o'rnatilgan boshqaruvda keyingi me'moriy inshootlar tizimiga e'tibor qaratgan. Shahar darvozalarning nomlarini ko'rsatib o'tgan Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asaridagi manbalarda shaharlar me'moriy tizimi bir qadar aniq ko'rsatib o'tilgan. Shaharlardagi bozorlarda qaysi hudud savdolarlarning o'rni, ta'siri kuchli bo'lganligiga ham e'tibor qaratgan. Bozorlarda o'rnatilgan ikki tartib, soliq tizimi ham batafsil yoritib o'tilgan. Tadqiqotchilar bunga ham e'tibor qaratishgan.

Ko'shk haqida Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asaridagi manbalar atroflicha aniqliklar kiritadi. Muxammad ibn Ja'far shunday yozgan: «Amiri Hamid davrida eshitishimizcha, Ko'shki Mug'on erlarining qimmatbaho ekanligiga sabab shuki, podshohlar Buxoroda joylashganlar va ularning xizmatchilari, yaqin kishilari u erlarni sotib olishga qiziqqanlar. Natijada bu erlarning har biri jufti hatto to'rt ming dirhamga etgan». Ahmad ibn Muhammad ibn Nasr esa: «Bizning davrimizda bu Ko'shki Mug'on erlari shunday arzon bo'ldiki, uni tekinga bersalar ham hech kim olishni istamaydi.

¹ Вамбери Г. «История Бухары или Трансханье с древнейших времен до настоящего» Изд. Вост. лит. М., 1964, стр. 36-39.

Sotib olingani ham hukmdorning xalqqa qilgan zulm va shafqatsizligi sababli foydalanilmasdi».

Buxoro va uning atrofidagi anhorlar.

Birinchisi Karmana anhor: bu katta anhor, ikkinchisi Shopurkom anhor. Buxoroning oddiy aholisi buni Shofurkom deyishadi. Hikoyatda keltirilishicha, sosoniylar sulolasidan bo'lgan Kisroning (Xisrav I 531-573 yoki Xisrav II 590-628) farzandlaridan biri o'z otasiga achchiq qilib, bu viloyatga kelgan. Uning nomi Shopur edi. «Pur» eron tilida «o'fil» demakdir. U Buxoroga kelganida Buxorxudot uni yaxshi qabul qildi. Uchinchi anhorni Harqonat, to'rtinchisi Harqanrud, beshinchisi Ovxfatar, - bu g'oyat keng va katta anhordir, oltinchisi Samjan, ettinchisi Baykonrud va sakkizinchi Farvizi Ulle deyilar. Bu sakkizinchi anhorda ko'p qishloqlar joylashgan. To'qqizinchisini Faroviz is-Suflo yoki Komi Daymun ham deyilar. O'ninchisi Arvon, o'n birinchisi Kayfur, o'n ikkinchisi Rudi Zar deganlar. Bu shaharni sug'oruvchi anhordir. Yuqorida aytilgan anhorlarning hammasi sersuv bo'lib, ularning asosiy qismida ko'plab qishloqlar joylashgan.

Somoniylar va ular qo'l ostidagi amirlar davrida Buxoroning xiroji Karmana bergan to'lov bilan qo'shilib, bir gal bir million bir yuz oltmish sakkiz dirhamni tashkil qilgan. Undan keyin xiroj miqdori kamaygan. Ba'zi erlar suv tagida qolib ketib, podsho u mavzedan xiroj olishni to'xtatgan. Suv olib ketgan joydan xiroj olmay qo'ygach, erlarning bir qismi alaviylar va faqihlar qo'lga o'tib ketgan. Sulton bulardan ham xiroj olmagan. Ba'zi erlar masalan, Poykand va boshqa qishloqlar sulton mulki sifatida e'tirof etilib, xiroj daftaridan o'chirilgan. Karminaning xiroji Buxoro xirojidan ajratilib, alohida undirilgan.¹

«Kanpirak devori». Ahmad ibn Muhammad ibn Nasr aytadiki, Muhammad ibn Ja'far Narshaxiy bu holatni quyidagicha e'tirof etadi: Ko'plab so'zlarni ba'zi qismlarda bildirib o'tadi. Ammo Abul Hasan Nishopuriy «Xazoin ul-ulum» tartibli keltirganki, xalifalik Amirul-mo'mining Mahdiyga, ya'ni Horun ar-Rashidning otasiga etgach abbosiy xalifalarning hech biri undan ko'ra etakchiroq bo'lmagan. U butun Xuroson

¹ Вамбери Г. «История Бухары или Транссанье с древнейших времен до настоящего» Изд. Вост. лит. М., 1964, стр. 36-39.

amirligini 166 yili (13 avgust 782 – 4 avgust 783) Abul Abbos al Fazl ibn Sulaymon Tusiya berdi. Bu amir Marvga kelib shu erda o'rnashdi. Shundan keyin Buxoroning ko'zga ko'ringan kishilari, jamoalar sardorlari va ulug'lar uning oldiga bordilar. Sug'dning barcha sardorlari Xuroson amiriga salom berish uchun Marvga keldilar. Xuroson amiri ulardan o'z viloyatlari haqida so'radi. Buxoroliklar aytadilarki, talon-taroj ularning noroziligini keltirib chiqarmoqda. Abul Abbos To'siy so'radi: «Sizlarda biror chora bormi, uni amalga oshirsak?» Bu erga kelgan Sug'd maliki Yazid ibn Furak javob berdi: Xuroson amirining umri uzun bo'lsin! Qadim jamiyat davrlarida turklar so'g'dni talar ekan. Sug'dda bir xotin kishi podshoh ekan, u So'g'dning atrofiga devor ko'targan va so'g'd viloyati turklar tazyiqidan himoya qilindi. Shunda Abul Abbos To'siy uning o'zi tomonidan Buxoro amiri bo'lib turgan Muhtadiy ibn Hammod ibn amir az-Zuhiyga Buxoro atrofiga devor oldirishni buyurdi. Turklarning qo'llari Buxoro viloyatiga etmasligi uchun, xuddi Samarqanddagiga o'xshash, Buxoroning ham hamma qishloqlari devor ichkarisida bo'lsin deydi. Muhtadiy ibn Hammod shunday devorni urishga, har bir farsang masofada bir darvoza qurishga va har yarim mil (masofada) bittadan mustahkam minora ko'tarishga buyurdi. Buxoroning qozisi bo'lgan marhum Said ibn Halaf al-Buxoriy bu ishga mutasaddiy bo'ldi. Nihoyat devor 215 yili (28 fevral 836 – 17 fevral 837) Muhammad ibn Yahyo ibn Abdulloh ibn Mansur ibn Xojad ibn Varaqning davrida qurib bitkazildi. Bundan keyin amir bo'lgan har bir kishi devorni tuzattirib, saqlab turar va shu sababli Buxoro aholisiga ko'p xarajat tushar, har yili ko'p pul sarflashga, juda ko'p hashar tashkil qilishga to'g'ri kelar edi. Oxiri ismoil Somoniy xalqni qiyinchiliklardan ozod qildi va devor ham xarob bo'ldi. Amir «To men tirik ekanman, Buxoro viloyatining devori men bo'laman» - dedi va zimmasiga olgan bu vazifani to'liq bajardi. U doimo janglarda o'zi qatnashdi va Buxoro viloyati ustidan dushmanlarning zafar topishiga yo'l qo'ymadi.

Buxoro shahri haqida Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asarida ko'plab manbalar keltirilgan. Amirlarning yuritgan ichki siyosati, ulardagi o'zaro keskinliklar, ijtimoiy-

siyosiy ahvol batafsil ifodalab berilgan. Ammo, shu bilan birga, Buxorodagi me'moriy inshootlar alohida e'tirof etilganligi bizga ma'lum bo'ldi.¹

¹ Ahmedov B. «O'zbekiston tarixi manbalari». Toshkent, «O'qituvchi», 2001, 13-14 betlar.

2.2. Mahalliy hukmdorlarning ko'rsatilishi va A.A.Simonovning yondashuvi

Tadqiqotchi A.A.Semyonov ham Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asaridagi ko'plab manbalarni o'rganib, o'z asarlarida ko'rsatib o'tadi.

Buxoro shahrining devori. Buxoro xalqi Xuroson amiri Muhammad ibn Abdulloh ibn Talha at Tohiriy tomonidan Buxoro amiri bo'lib turgan Ahmad ibn Hamiddan, shahrimiz atrofida devor bo'lishi kerak, toki biz kechasi darvozalarni berkitib, o'g'rilar va yo'l kesarlardan tinch bo'laylik, deb iltimos qildilar. Shundan so'ng u devor urishga buyurdi va juda yaxshi maxkam devor urib, minoralar qurdi, darvozalar o'rnatdi. Bu ish to 235 yili (26 iyul 849 – 14 iyul 856) tamom bo'ldi. Har qachonki biror lashkar Buxoroga qasd qilsa, devorni qaytadan tuzatishar edilar. Arslonxon o'z hukmronligi davrida eski devor oldida bir yangi devor qurishni buyurdi. Ikkala devor bir-biriga yopishib, mustahkam bo'ldi. Lekin keyinroq bu devor ham buzilib ketdi. 560 yili (18 noyabr 1164 -6 noyabr 1165) odil va bilimdon hoqon, dunyo va dinning suyanchig'i Ma'sud Qilich Tamg'anxonning buyrug'i bilan Buxoro shahri eski devorining tashqarisidan devor urdilar. Lekin u ham vayron bo'ldi. 604 yili (28 iyul 1207 – 15 iyul 1208) Xorazmshoh Muhammad ibn Sulton Takash Buxoroni oldi va yana sirdan devor urishni buyurdi. Ikkala devorni yangiladilar. 616 yili (13 mart 1219 – 7 mart 1220) tatar lashkari kelib Buxoroni oldi va u devorlar yana vayron bo'ldi.

Buxoroda siym-kumush (tangani) dastlab ishlatgan kishi Koko Buxorxudot nomli podshoh edi. U Buxoroda o'ttiz yil podshoh bo'lib faoliyat yuritgan. Buxoroda savdo bo'z va bug'doy vositasi bilan bo'lar edi. Boshqa viloyatlarda kumush tanga zarb qilganliklari haqida podshohga xabar bergan edilar. U ham Buxoroda sof kumushdan tanga zarb qilib, unga o'zining toj kiyib turgan suratini ishlashga buyurgan. Bu voqea Amirul-mo'minning Abu Bakr Siddiq davrida bo'lib, bu kumush tanga Xorun ar-Rashid davrigacha davom etdi. 185 yil ramazon oyida (13 sentyabr 800 – 12 oktyabr 801) Fitrif ibn Ato Xurosonga amir bo'ldi. Fitrif Xorun ar-Rashidning onasi bo'lgan Xayzoron nomli ayolning birodari edi. Xayzuron Atoning qizi bo'lib, yamandagi Jurash deb atalgan shahardan edi. U asir tushib, Tobaristonga va u erdan Mahdiyning huzuriga keltirilgan edi. Mahdiy bu xotindan ikki o'g'il ko'rdi: birinchisi Muso al-Hodiy bo'lib,

ikkinchisi Xorun ar-Rashiddir. Xorun ar-Rashid Xurosonni Fitrifga berdi. U vaqtda Buxoro aholisi qo'lida Xorazm kumush tangasi muomalada bo'lib, odamlar u kumush tangani salbiy baholar edilar.

Buxoro fath etilishining boshlanishi.

Muhammad ibn Ja'farning bayon qilishicha Ubaydulloh ibn Ziyod Muoviya tomonidan Xurosonga yuborilib, u Jayxun daryosidan o'tib, Buxoroga kelgan vaqtida Buxoro podshohi, o'fli Tog'shoda kichik yoshli bo'lgani uchun, bir xotin kishi edi. Ubaydulloh ibn Ziyod Poykand va Romitonni olib, ko'p kishilarni asir qildi. To'rt ming buxorolik asirni shaxsan o'ziga oldi. Bu voqea ellik uchunchi yilning oxiri va ellik to'rtinchi yilning boshida (noyabr-dekabr 679) bo'lgan edi. U Buxoro shahriga etgach, askarlarni saf qilib, palaxmonlarini shaharga to'g'rilab qo'ydi. Xotin turklarga odam yuborib, ulardan yordam so'radi. Shuningdek, Ubaydulloh ibn Ziyodga ham odam yuborib, etti kun muhlat talab qildi va «men sizning itoatingizdaman» dedi, ko'p hadyalar yubordi. Shu etti kun ichida turklardan yordam kelmagach, Ubaydulloh ibn Ziyod yana odam yuborib, yana etti kun muhlat so'radi. Nihoyat, turk lashkarlari etib keldi va boshqaqalar ham yig'ilib lashkar ko'paydi. Ko'p urushlar qildilar va oxiri kofirlar engilib qoldilar. Musulmonlar ularni orqalaridan quvib ko'plarini o'ldirdilar. Xotin qal'aga kirdi, yig'ilib kelgan lashkarlar o'z viloyatlariga qaytdilar. Musulmonlar qurol, kiyim-kechak, ko'plab o'ljalarga ega bo'ldilar.¹ Ular xotinning bir poy etigini paypog'i bilan topib oldilar. Etik va paypoq tilla ishlanib tikilgan va qimmatbaxo toshlar bilan bezatilgan edi. Uni baholaganlarida bahosi ikki yuz dirham turdi. Ubaydulloh ibn Ziyodning farmoni bilan daraxtlarni kesdilar va qishloqlarni vayron qildilar. Shahar ham xatarda edi, xotin odam yuborib omonlik tiladi. Bir million dirham barobariga sulh tuzildi. Xotin tomonidan mol-mulk yuborildi. Ubaydulloh ibn Ziyod molnii olib qaytdi va yuqorida aytilgan to'rt ming kishilik – buxorolik asirlarni ham o'zi bilan birga olib ketdi. U ellik oltinchi yili (25 noyabr 675 – 13 noyabr 676) Xuroson amirligidan tushirilgandan keyin, Sa'id ibn Usmon Xuroson amiri bo'ldi va Jayhun daryosidan o'tib, Buxoroga keldi. Xotin unga odam yuborib: «Ubaydulloh ibn Ziyod bilan tuzgan sulhimda barqarorman», - dedi molidan bir ozini yubordi. Nogoh shu

¹ Ahmedov B. «O'zbekiston tarixi manbalari». Toshkent, «O'qituvchi», 2001, 18-120 betlar

asnoda So'g'd, Kesh (Shahrisabz) va Naxshob (Qarshi) lashkarlari etib keldilar. Ularning soni bir yuz yigirma ming edi. Xotin sulh tuzganligi va mol yuborganligiga pushaymon bo'ldi. Sa'id: «Men ham shu fikrdaman» deb, molini qaytarib yubordi va «Bizning oramizda sulh yo'q » deb, fikr bildirdi. Shundan so'ng lashkarlar yig'ilib, birlariga qarama-qarshi turib, saf tortdilar. Oллоh kofirlar diliga vahima solib, ularning hamma lashkarlari orqaga qaytdilar. Xotin yolg'iz qolib, yana odam yubordi va Sa'iddan yana sulh so'radi. Mol miqdorini ko'paytirib, hammasini yubordi. Sa'id: «Men endi So'g'd va Samarqandga boraman, sen mening yo'limdasan. Qaytishimda yo'limni to'smasliging uchun (ranjitmaslik) sen tomondan biror garov bo'lishi lozim», - dedi. Xotin malikzodalar va Buxoro dehqonlaridan sakson kishini garov qilib Sa'idga yubordi. Sa'id Buxoro darvozasidan qaytib ketdi va qaytmadi. Voqeada keltirilishicha xotin o'z erining xizmatkorlaridan biriga oshiq edi. Odamlar uning o'g'li Tog'shoda o'sha kishidan bo'lgan, lekin, xotin bolani eridan bo'lgan deb ko'rsatadi deyishgan. Ammo, xalq bu bola Buxorxudotdan emas deb gapirar edilar. Uning lashkarlaridan bir guruhi esa: «Biz uning mamlakatini beshak podshohzoda bo'lgan boshqa xudotxodaga beramiz» der edilar. Xotin ularning bu qasdlaridan ogoh bo'lib, ularni o'zidan daf qilish uchun tadbir qidirar edi. Sa'id bilan sulh tuzilib, Sa'id undan garov talab qilgach, xotin hiyla qildi va haligi maqsadni ko'zlagan lashkarlar guruhini garovga berib, ulardan xalos bo'ldi va Sa'iddan ham qutuldi.

Sa'id to'g'risida yana hikoyat qiladilarki, u xotin bilan sulh tuzganda: «Menga salom berish uchun huzurimga chaqirishing kerak» degan. Xotin sarkardalaridan har biri uchun salomga chiqqan. Sa'idning lashkarboshilaridan biri Abdulloh Hakim edi. U o'zining chodiri ichida katta gulxan yoqishga buyurdi va o'zi olov yonida turdi. Chodir ichi issiq edi. Abdulloh rangi qizil kishi bo'lib, olovning issig'idan ko'zlari ham qizarib ketgan edi. Kallasi kattaligi sababli uni Bayg'ariya – deb masalda keltirar edilar. Vahshatli kishi bo'lib, u qurollangan holda qilich yalang'ochlab turdi. Uning yoniga kirgan xotin qo'rqib, tez qochib ketdi. Sulaymon Laysiy aytadiki, Sa'id xotin bilan sulh tuzilgandan keyin, Buxoroda kasal bo'lib qoldi. Xotin uni ko'rrgani kirdi, uning tillaga to'la bir hamyoni bo'lib, qo'lini hamyonga solib, undan ikkita narsa chiqardida: «Buning bittasini o'zim uchun saqlayman, mabodo kasal bo'lib qolsam

eyman. Mana shu ikkinchisini senga beraman, uni esang sog'ayasan», -dedi. Sa'id: «Bu nima ekanki, bu xotin shunday aziz va ulug' tutib menga berdi», -dedi. Xotin chiqib ketgach qarasa u narsa eskirib ketgan bir dona xurmo ekan. Shunda u odamlariga buyurdi: ular beshta tuyaga yangi xurmoni ortib, xotinning oldiga olib bordilar. Xotin qoplarni ochib xurmolarini ko'rdi. Hamyonini ochib xurmoni oldida, u xurmolar bilan solishtirdi. Qarasa ular o'zi saqlab yurgan xurmodek ekan. Shunda u uzrga kelib, o'zinig fikrlarini Sa'idga bildirgan.¹ Sa'idning Buxoro bilan bo'lgan munosabati tadqiqotchilar tomonidan o'rganib chiqilgan. Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asarida ko'rsatilishicha, Buxorodagi hukmdorlar doimiy ravishda ichki ijtimoiy-siyosiy munosabatga alohida e'tibor qaratishgan. Buxoroda hukmronlik qilgan xotin yoqimli va go'zal bo'lib, Sa'id unga oshiq bo'lib qolgandi. Buxoroliklarning bu haqda Buxoro tilida qo'shiqlari bo'lgan.

Bir rivoyatda keltirilishicha, Sa'id Buxoroga kelgan vaqtda rahmatli Qusam ibn Abbos ham Buxoroga kelganida, Sa'id uni hurmat qilib: «Bu o'ljalardan har kishiga bir hissa songa, ming hissa beraman» - desa, Qusam ibn Abbos: «Shariat buyurgan bir hissadan boshqa narsa olmayman», deb javob bergan. Shundan so'ng Qusam ibn Abbos Marvga borgan va ko'p o'tmay vafot etgan. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra u Samarqandda vafot etgan. Sa'id Buxoro ishlaridan forig' bo'lgach, Samarqand va So'g'dga borib ko'n janglar qildi va doimo zafar uning tomonida bo'ldi. O'sha davrda Samarqandda biron podshoh yo'q edi. Sa'id Samarqanddan o'ttiz ming kishini asir qilib, ko'p mol-mulkni qo'lga kiritib qaytdi. U Buxoroga etib kelganida xotin odam yuborib: «Sog'-salomat qaytib kelding, endi garovni bizga qoldirib ket», - dedi. Sa'id esa: «Hali sendan xotirjam bo'lganim yo'q, toki Jayxundan o'tgunimcha birovlar men bilan birga bo'ladi», - dedi. Jayxundan o'tganda xotin yana odam yuborsa: «Marvga etgunimcha qo'yatur», Nishopurga etganida «Kafaga etib olay», - dedi va undan Madinagacha olib ketdi. Madinaga etgach, Sa'id g'ulomlariga buyurib (u garovga berilgan odamlarni) qilich va kamarlarini echtirdi va ularda bor bo'lgan kimxob kiyimlar, tilla va kumushlarning hammasini oldirdi. Kiyimlari o'rniga ularga sholcha kiyimlar berib, ekin ekish ishlariga band qilib qo'ydilar. Ular bundan juda xafa bo'lib:

¹ Бартольд В.В. «К истории арабских завоеваний в Средней Азии». Изд. Вост. лит. М., 1928, стр 54-55.

«Bu kishi bizga bermagan yana qanday xorlik qoldi? U bizni qul qilib olib, ishlarini buyurmoqda, biz xorlik bilan o'lgandan ko'ra bir yo'la foydali ish qilib o'laylik», - dedilar va Sa'idning saroyiga kirib eshiklarni maxkam berkitdilar. Sa'idni o'ldirdilar va o'zlarini ham o'linga topshirdilar. Bu voqealarning barchasi xalifa Muoviya xalifaligi davriga to'g'ri keladi.

Sa'idning o'limidan so'ng Muslim ibn Ziyod ibn Abiyh Xuroson amiri qilib tayinlandi va u Xurosonga keldi. Bu erda lashkar tuzib, Buxoroga bordi. Xotin bu lashkar va tayyorgarlikni ko'rib, Buxoro lashkari ularga qarshi turishini bildi-da, So'g'd podshosi Tarxunga odam yuborib: «Men senga xotin bo'lay, Buxoro sening shahring, sen kelib arablar qo'lini uzoqlashtirishing lozim», dedi. Tarxun bunga javoban bir yuz yigirma ming kishi bilan keldi. To bu lashkar etib kelgunicha, xotin Muslim bilan sulh tuzib, unga darvozalarni va tashqarida bo'lgan ko'shk eishiklarini ham ochgan edi. Bidun Buxoroga etib keldi va Harqundrudning u tomoniga tushdi. Muslimga «Bidun etib keldi va xotin unga bo'ysundi hamda shahar darvozalarini berkitdilar», degan xabarni etkazdilar. Muslim ibn Ziyod Muhallabning oldiga odam yuborib: «Muhallabga ayt, borib Bidun lashkarining qanday andozada ekanligini ko'rsin va ayg'oqchilik sharti nima bo'lsa uni joyiga keltirsin», - dedi. Muhallab javob qaytarib: «Hech kim bunday ishga mendek odamni yubormaydi, men hammaga taniqli kishiman, shunday bir kishini yuborginki, agar u salomat qaytib kelsa, senga to'g'ri xabar keltirsin va agar halok bo'lsa, lashkaringga nuqson etmasin», - dedi. Muslim esa: «Har nima bo'lsa ham sen borishing kerak!», deb javob berdi. Muhallab: «Agar men borishim shart bo'lsa, lashkaring har bir to'dasidan bittidan kishini men bilan birga yubor va mening ketganimni hech kimga bildirma!», dedi. Muslim u aytganidek qildi va o'z amakisining o'g'lini ham u bilan birga yubordi. Hammalar kechasi Muhallab bilan yo'lga chiqdilar va dushman lashkariga bildirmay, kerakli ma'lumotlarni bilib oldilar. Tong otgach Muslim ibn Ziyod ertalabki nomozni o'qib bo'ldida, odamlar o'z fikrini bildirdi.¹

Muslim ibn Ziyodning qarashlari quyidagicha mazmun ahamiyat kasb etgan: «Men kecha Muhallabni ayg'oqchilik qilish uchun yubordim», - dedi. Bu xabar lashkar

¹ Бартольд В.В. «К истории арабских завоеваний в Средней Азии». Изд. Вост. лит. М., 1928, стр 61-63.

orasida tarqaldi va buni eshitgan arablar: «Agar bizdan oldin o'lja olsun uchun Muhallabni yuboribdi, agar jang bo'lganida edi u kishi bilan birga bizni ham yuborar edi», - dedilar. Ulardan bir to'dasi tezda otlarga minib, Muhallabning orqasidan to daryo labigacha bordilar. Muhallab ularni ko'rgach: «Sizlar kelib xato qilibsizlar. Endi kofirlar hammamizni tutib oladilar», - dedi. Muhallab sanab qarasa musulmonlar to'qqiz yuz kishi ekan, u: «Azbaroyi xudo! Qilgan ishingizdan o'kinasiz», dedi. Ular saf tortdilar va Bidun lashkarlarining ayg'oqchilari ularni ko'rdilar. Musulmonlar tezlik bilan karnay chalib, hammalari otlarga mindilar va saf tortdilar. Turk podshohi ularga hujum qildi va arablarning tinkalari quridi. Muhallab: «Men shunday bo'lishin bilgan edim», - dedi. Ular: «Endi qanday tadbir qo'llash kerak?», deb so'radilar. U: «Ilgariroq yuringlar», dedi. Lekin, ular orqaga chekindilar va Bidun ketlaridan etib kelib, musulmonlardan to'g't yuz kishini o'ldirdi, qolganlari lashkargohga qochib bordilar.

Ertasi kuni tong otgach, Bidun suvdan o'tib, Xudon amirinig oldiga keldi. Chunki ularning oralig'i yarim farsang kelar edi. shundan so'ng arablar bilan janglar boshlanib ketdi. Muhallab birinchi bo'lib urushga kirdi. Qattiq urush bo'lib, kofirlar yopirilib, uni o'rtaqda oldilar. Muhallab: «Menga yordam bering», deb qichqirdi. Muslim parishon hol b'lib, «Bu Muhallabning tovushiku», dedi. Shu vaqtda Abdulloh ibn Xuton Muslimning oldida so'z qotmay, jim turgan edi. Muslim undan «Senga nima bo'ldi, biro so'z gapirmaysan?», deb so'radi. U: «Azbaroyi xudo! Agar halokat xabari bo'lmasa, Muhallab qichqirmaydi. Endi otga minamanda, o'z gardanimdagi vazifani ado etaman. Agar meni halokat qarshi olsa, unga ham tayyorman», dedi. Arablar har gal qochishga tushganlarida, Muhallab qochishga tushar edi. Muslim: «Bir oz sabr qiling!», dedi va dasturxon yozdirib, non eya boshladi. Abdulloh ibn Xudon: «Hozir non eyish vaqti emas, seni xudo to'yg'azsin. Halok bo'lay deyapsanku, xabaring yo'q, sen jang kishisidan», dedi. Muslim: «Endi nima chora ko'ramiz?», deb so'ragan edi, u: «O'tliqlarga ayt piyoda bo'lib jang maydoniga yursinlar», dedi. Shunday qildilar, Abdulloh ibn Xudon Muhallab tomonga yugurib ketdi, Muhallab qattiq qurshovda qolgan edi. Abdulloh: «Orqangizga qarang», deb qichqirdi. Musulmonlar orqalariga qarab yordamga kelayotgan kishilarni ko'rdilar. Dillari quvvatlanib g'ayratga kirdilar. Ularni tezda jangni kuchaytirib yubordilar, jangda Bidun o'ldirildi.

Musulmonlar takbir aytib yubordilar. Kofirlar birdan qocha boshladilar, musulmonlar ularning orqasidan quvib borib, o'ldira boshladilar. Nihoyat ularni butunlay engib, ko'p o'ljalari oldilar va o'ljalarni taqsimlab oldilar: har bir otliqqa ikki ming to'rt yuz dirhamdan etdi. Xotin odam yuborib, sulh taklif qildi. Muslim u bilan sulh tuzib, juda ko'p mol oldi. Xotin Muslimga: «Sendan iltimos qilamanki, menga Abdullohni ko'rsatsang, uni suratini bir marta ko'rib beshuh bo'lib edim, menimcha u odam jinsidan bo'lmasa kerak», dedi. Muslim Abdullohni o'zi turgan mehmonxonaga chaqirib, xotinga ko'rsatdi. Abdulloh ko'k rangli ipak kiyim kiygan va qizil salla o'ragan edi. Xotin uni ko'rganida unga sajda qildi va g'ajablanganidan hadyab yubordi. Muslim g'alaba qozonib, ko'p o'ljalarni qo'lga kiritib, Xurosonga qaytib ketdi. Qutayba ibn muslimning hukmronligi ham asta-sekin yaqinlashib kela boshladi.

Tadqiqotchilar A.A.Semyonov bir qancha holatlarga e'tibor qaratib, «Buxoro tarixi» asaridagi manbalarning ahamiyatini yuqori baholaydi. Ichki siyosiy vaziyat doimiy bo'lmasada, keskin ko'rinishga ega bo'lgan. Buxorxudotlar tomonidan hokimiyatning amalga oshrilishi cheksiz ekandek namoyon bo'ladi. Narshaxiy o'z asarida bu bilan bog'liq holatlarni ko'rsatib o'tgan.¹

¹ История Бухары с древнейших времен до наших . Под. ред. Лунин Б. Изд. «Фан», Т., 1976. стр. 103-104.

III bob. «Buxoro tarixi» asarining bugungi kunda o'rganilishi va manbalarning ahamiyati

3.1. B.Lunin, L.I.Rempellarning . «Buxoro tarixi» asaridagi manbalar xususidagi fikrlari

Qutayba ibn Muslimning hukmronligi va Buxoroning bosib olinishi, Movaraunnahrining arab va ajam (arab bo'lmagan)lar o'rtasida taqsimlanishi.

Qutayba ibn Muslim Xajjoj (arab xalifaligining sharqiy qismlarning 694-714 yillardagi noibi Xajjoj ibn Yusuf – o'z zolimligi bilan nom chiqargan. Qutayba ibn Muslimning Xuroson amiri bo'lgan yili – 705) tomonidan Xuroson amiri etib tayinlangach, Xurosonga qolib, butun Xurosonni o'ziga bo'sundirdi. To'xar erlarini bosib olinishi uning boshchiligida amalga oshirilgan. U sakson sakizinchi yili (12 dekabr 706 – 30 noyabr 707) Jayxun daryosidan o'tdi. Poykand aholisi bundan xabardor bo'lib, Poykandni juda mustahkam hisor bilan o'radilar. Qadimgi vaqtlarda Poykandni shahriston deganlar va mustahkamligidan uni «jez shahar» deb ham ataganlar.

Qutayba juda qattiq janglar qildi. Musulmonlar ellik kungacha Hisorni olish uchun chora topolmay, zahmat chekdilar. Ular oxiri hiyla ishlatdilar. Bir guruh askarlar devor tagidan minora va hisoring ichkarisi tomon lahm qazib, otxonadan chiqdilar. So'ng, devorlarni kovlab raxna ochdilar, asta-sekin ular ichkariga kirib bordilar. Qutayba: «Har kim shu raxnadan ichkariga kirs, unga xuni bahosida mukofot beraman. Agar o'ldirilsa mukofotni farzandlariga beraman», deb qichqirdi. Bu gapdan so'ng har kim ichkariga kirishga qiziqib, nihoyat Hisorni oldilar. Poykand aholisi omonlik tiladi. Qutayba sulh tuzib, mol oldi va Varha ibn Nasr Bahiliyni amir qildida, o'zi Buxoroga qarab yurdi. Qutayba Xunbunga (Buxoro bilan Poykand oralig'ida joylashgan qishloq) etib kelganida, unga «Xisorning xalqi qo'zg'olon qilib amirni o'ldirdi» degan xabarni etkazdilar. Qutayba lashkariga «Boringlar Poykandni talon-taroj qilinglar, ularning qonlarini to'kishni va mollarini olishni halol qildim» deb buyruq berdi. Qo'zg'olonning sababi shu edi: Poykandlik bir kishining ikkita sohibjamol qizi bor edi. Varha ibn Nasr Bahiliy ikkalasini ham o'ziga oldi. Qizlarning otasi: «Poykand katta shahar, nima uchun katta shahardan mening ikkita qizimni olasan», dedi. Varha javob bermagan,

qizlarning otasi sakrab turib, Varhaning kindigiga pichoq urdi, lekin bundan hech bir ish chiqmadi. Varqa o'lmay qoldi. Bu xabar Qutaybaga etib borgach, u qaytib Poykandga etib keldi va bu erda kimki urushga yaroqli bo'lsa barisini o'ldirdi, qolganlarini asir qilib olib ketdi. Shunday qilib, Poykandda hech kim qolmadi va Poykand xarob bo'ldi. Poykandning aholisi asosan savdogarlar bo'lib, ko'plari Chin mamlakati viloyatlariga borib, u erlarda doimiy savdo aloqalarini olib borishgan. Ular qaytib kelganlarida, bolalari, xotinlari va o'z yaqin kishilarini talab qilib, arablardan sotib oldilar, Poykandni yana obod qila boshladilar. Ma'lumotlarga ko'ra Poykand butkul bo'shab, vayron bo'lib qolgandi. So'ng yana o'z aholisi qo'li bilan tezda obod bo'la boshlagan. Rivoyatlarga ko'ra, Qutayba Poykandni bosib olganida bir butxonada og'irligi to'rt yuz dirham keladigan bitta kumush but topdi. U yana bir necha kumush jomlar topib olgan. Ularning hammasini jamlab, tarozida tortganida bir yuz ellik ming misqol chiqqan. U har biri kabutar tuxumidek keladigan marvaridlar ham topib olgan Qutayba: «Bu qadar katta marvaridni qaerdan keltirdingiz?», deb so'rganida, «Ikkiti qush og'zida olib kelib, mana shu butxonaga tashlagan», deb javob berganlar.

Qutayba bu qimmatbaxo narsalarni yig'ib, haligi ikkita marvarid bilan birga Xajjojga yubordi va unga Poykandni fath etilgani haqida xat yozib, ikki dona marvarid qismini qayd etib o'tdi. Xajjoj unga shunday javob yozdi: «Xatda aytganlaring menga ma'lum bo'ldi, u ikki marvarid donalaridan va ularni qushlar olib kelganidan men juda ajablandim, ammo shunday qimmatli narsani qo'lga kirgizib, uni bizga yuborib ko'rsatgan saxovating undan ham ajoyibroq tuyuldi, xudo senga barakot bersin». Poykand ancha yil xarob holda qoldi. Qutayba Poykand ishidan forig' bo'lgach, Xunbunga qarab jo'nadi va ko'p janglar olib borishiga majbur bo'ldi.¹

Qutayba tomnidan Xunbun, Tarob va ko'pgina mayda qishloqlar bosib olindi, va u Vardonaga qarab yo'l oldi. U Vardonxudot nomli podshoh bo'lib, u bilan ko'plab urush harkatlari olib borildi. Vardonxudot vafot etgach, Qutayba yana ko'plab qishloqlarni egallab oldi. Buxoro qishloqlaridan Tarob, Xunbun va Romiton oralig'ida ko'p lashkar to'planib, Qutaybani o'rab oldilar. So'g'd podshohi Tarxun ko'p lashkari

¹ История Бухары с древнейших времен до наших дней. Под. ред. Лунина Б. Изд. «Фан», Т., 1976. стр. 108-112.

bilan, Xunukxudot ko'p askari bilan, Vardonxudot o'z askarlari bilan keldilar. Xitoy podshohining jiyan malik Ko'rmag'oxunnin yollagan edilar, u ham Qutaybaga qarshi jangda, So'g'd podsholigiga yordam berish uchun qirq ming lashkari bilan keldi. Lashkarlar jam bo'ldilar, Qutaybaning ishi og'irlashdi. Qutayba va uning yordamchi ittifoqchilari quolsiz edilar. Qutayba: «Bundan buyon askarlar quollarini o'zlaridan uzoqlashtirmasinlar, askarlarni lashkargohdan tarqatmasinlar!», deb buyurdi. Shu sababli qurol-yarog' qimmatlashib ketdi. Masalan, bita nayza ellik dirham, bitta qalqon ellik yoki oltmish dirham, bitta sovut etti yuz dirhamga etdi. Hayoni Nabatiy Qutaybaga qarab: «Agar olloh mening sababligim bilan bu baloni sendan qaytarsa nima deysan?», deb so'radi. Qutayba javob berib: «Men o'zim ham shunday yo'l axtarmoqdaman», dedi. Hayoni Nabatiy Qutaybaga: «Menga ertagacha muhlat ber», dedi. Ertasi tong otgach, Hayoni Nabatiy So'g'd malikining oldiga odam yuborib: «Mening senga aytadigan bir nasihatim bor, biz ikkalamiz bir joyda uchrashishimiz kerak», dedi. Tarxun: «Durust, qay vaqtda uchrashamiz?», deb so'radi. Hayoni Nabatiy: «Lashkar urushga mashg'ul bo'lib jang qizigan vaqtda», dedi. Shunday qildilar, urush qizigan vaqtda Hayoni Nabatiy Tarxun bilan uchrashib, «Mulk qo'lingdan ketipti-yu, sening xabaring yo'q», dedi. Tarxun: «Qanday qilib?», deb so'radi. Hayoni Nabatiy unga «Biz arablar havo issiq vaqtdagina bu erda tura olamiz, endi havo sovub qoldi va bizning ketish vaqtimiz keldi. Toki biz bu erda ekanmiz, bu turklar biz bilan urush qiladilar. Bu erdan ketganimizdan keyin esa sen bilan urush qiladilar. Chunki, So'g'd viloyati yaxshi joy, yaxshilikda unga o'xshash joy yo'q, qayoqda ular So'g'dni senga qoldirib Turkistonga ketadilar? Ular mamlakatingni oladilar, sen esa qiyinchilikda qolasan», dedi. Tarxun: «Men qanday chora qo'llayman», deb so'radi. Hayoni Nabatiy: «Chorang shuki, Qutayba bilan sulh tuzib, biror narsa berasan, turklarga ahvolni shunday ko'rsatasanki, go'yo Xajjojdani biz arablarga Kosh va Naxshob yo'li bilan ko'p lashkar yordamga kelayotgan bo'ladi. O'zing esa, Men viloyatimga qaytib ketayapman, deysan shunda turklar ham qaytadilar. Sen biz bilan sulh tuzib qiyinchilikdan qutulishing mumkin», dedi. Kechasi Tarxun Qutayba oddiga odam yuborib, u bilan muzokara ishlarini boshlab yubordi. Qutaybaga ikki ming dirham berdi. Ikkalasi o'rtasida sulh yuzaga keldi. Uning lashkari karnay chalib boshladi. Dehqonlar va

amirlar: «Nima bo'ldi?», deb so'radilar. Tarxun: «Zinhor hushyor bo'ling! Xajjoj Kesh va Naxshob tomonidan ko'p lashkar yuboribdi. Ular orqamizdan kelib bizni o'rtaqta oladilar, men o'z viloyatinga qaytaman», deb javob berdi. Ko'rmafunun turk odam yuborib, bu holdan xabar so'ragan edi, unga ham xabar qildilar. Olloh bu baloni ham musulmonlar boshidan daf qildi.

Qutayba to'rt oydan beri u yoqda qolib ketib, shu muddat ichida, Qutayba va uning yordamchilari haqida Xajjojga biror xabar etmagan va Xajjojning dili bu tomon mashg'ul edi. Masjidlarda qur'on o'qib, xatmlar qilar va duolar o'qir edilar. Qutayba va uning yordamchilari yana Buxoroga bordilar. U jang qilar, mol olar, ayrim viloyatlarni talar, ba'zi kishilarni o'ldirar, ba'zilarini asir, qul qilib olib, shu tarzda to Marvgacha borar va yana Buxoro viloyatiga qaytib kelar edi. Olloh Buxoroni Buxoroni ofat va balolardan saqlasin.¹

Buxoroning bosib olinishi va u erda islom dinining yoyilishi. Muhammad ibn Ja'farning aytishicha, Tog'shodaning onasi bo'lmish xotinning eri Buxorxudot o'lganida, uning o'g'li podshohzoda Tog'shoda kichik yoshli bo'lgani uchun, shu xotin podshohlik qilib turgan. Uning Zikra Ubaydulloh ibn Ziyod va Sa'id ibn Usmon ibn Uffon – xudo ulardan rozi bo'lsin, haqlarida so'zlanganda bayon qilinadi. Islom lashkari har safar Buxoroga kelganida yozda g'azot qilar, qishda esa qaytib ketar edi. U xotin Buxoroga arablardan har kim kelsa, u bilan ozgina urush qilar, so'ngra sulh tuzar edi. Uning o'g'li kichkina ekanligidan foydalanib, qarindoshlarning har biri mamlakatni egallash tomonida edi. Ilgari Buxorxudot Buxoroni jang qilib olgan edi. Buxoro aholisi har safar islom lashkari kelganida musulmon bo'lar, arablar qaytib ketganidan so'ng ular yana dindan qaytar edilar. Qutayba ibn Muslim ularni uch marotaba musulmon qilgan. Ular yana dindan qaytishgan. Qutayba to'rtinchi marta kelganida Buxoro shahrini oldi. Ko'p qiyinchiliklardan so'ng, bu erda yana islom dinini yuzaga chiqardi. Turli yo'llar bilan ularga qiyinchiliklar tug'dirib, dillariga musulmonchilik o'rnatirdi. Ular esa islom dinini yuzakigina qabul qilib, haqiqatda esa butparastlik qilar edilar. Qutayba arablar Buxoroliklar bilan birga turib, ularning hatti-harakatlaridan xabardor

¹ Очерки историографии истории народов Средней Азии. Под ред. Саидкулова Т. Изд. «Ўқитувчи», Т., 1932, стр. 34-36.

bo'lib tursalar, ular zaruratdan musulmon bo'ladilar degan maqsadda Buxoro aholisiga o'z uylarini yarmini berishga undab buyruq chiqarishni to'ri topdi va shu yo'l bilan u musulmonlikni o'rnatdi, hamda shariat hukmlarini bajarishga ularni majbur etdi. Qutayba masjidlar bino qildi. Kofirlik va otashparastlik asarlarini yo'qotdi. U ko'p harakat qilib har kimdanki shariat hukmlarini bajarishda kamchilik sodir bo'lsa uni jazolar edi. u masjidi jome bino qilib, odamlarni juma nomozini o'qishga buyruq berdi, toki olloh bu yaxshi ish sababini Buxoro aholisi uchun oxirat zaxirasi qilsin.

Masjidi jomening bino etilishi.

Qutayba ibn Muslim to'qson to'rtinchi yili (7 oktyabr 712 – 25 noyabr 713) Buxoro hisorining ichida masjidi jome bino qildi. U joy ilgari butxona edi. Qutayba Buxoro aholisiga har juma kuni u erda yig'ilishlarini buyurdi. Cgunonchi, u gar juma kuni jarchi qo'yib, «Juma nomoziga kelgan har bir kishiga ikki dirham beraman», deb odamlarni chaqirtirar edi. Buxoroliklar dastlab islom dinini qabul qilgan paytlarida arabchani o'rgana olishmaganlaridan nomozda qur'onni fors tilida o'qir edilar. Ruku'ga borish vaqtida ularning orqalaridaa bir kishi turib, «Bknitonkint», deb sajda qilmoqchi bo'lganlarida «Nkuniyankuni» - (sajda qilishni anglatuvchi Buxor va So'g'd tillaridagi so'zlar) der edilar.

Muhammad ibn Ja'far o'z kitobida shunday deydi: Buxoro masjidi jome'ni, unga suratlik eshiklar o'rnatilgan bo'lib, suratning yuzi tarashlangan va boshqa joylari o'z holicha qoldirilgan edi. Men buning sababini o'z ustozimdan so'radim. U javob berdi: Men bu eshik va boshqalar haqida eshiklarni dastlab o'rnatgan va ko'p umr ko'rgan duradgor kishidan so'raganimda, u aytgan ediki, Buxoroliklar til uchida musulmonlikka iqrar bo'lib, yashirin ravishda butlarga cho'qinar edilar. Shahardan tashqarida etti yuzta ko'shk bo'lib, ularda boylar turar edilar. Ular itoatsiz bo'lganlaridan masjidi jomega ko'p kishi kelmas edi. Haligi ikki tangani olish uchun kambag'allargina borishga qiziqar, ammo boylar qiziqmas edi. Bir juma kuni musulmonlar ko'shklarning eshiklariga borib, ularni juma nomoziga chaqiraverib, zeriktirdilar. Shunda boylar ko'shk tomida turib musulmonlarni tosh bilan urdilar. Ikki orada urush bo'lib, musulmonlarning qo'llari baland keldi. Ular boylar qasrlarining eshiklarini qo'pirib olib, Buxoroga keltirdilar. U eshiklarga har kim o'zi cho'qinadigan butlarning suratini

ishlatgan ekanlar. Masjidi jome kengaytirilgan vaqtda u eshiklarni masjidga ishlatdilar. Eshiklar eskirib ketmasligi uchun, suratning yuzinigina qirib tashlab, boshqa joylarni o'z holicha qoldirib, qurdilar. Admad ibn Muhammad Nasr shunday deydi: «Hozir o'sha eshiklardan bittasini saqlab qolgan va tomlardan masjidi jome eshigiga qarab tutishdi. Xuroson amirining saroyiga borilmoqchi bo'lsa, birinchi eshikni qoldirsang, ikkinchisi o'sha eshiklardan saqlanib qolganidir. Ular hali ham tarashganlik holati bilan ahamiyatlidir. Hisor ichida bo'lgan juma masjidini Qutayba bino qilgan. Odamlar u erda nomoz o'qir edilar. Musulmonchilik keng tarqala boshladi.¹

Ahmad ibn Muhammad ibn Nasr shunday deydi: Hozir o'sha eshiklardan bittasi saqlanib qolgan. Asta-sekin musulmonlik keng tarqalgach, masjidga sig'may qoldilar. Fazl ibn Yahyo ibn Xolid Barmakiy davrigacha davom etdi. U Xorun ar-Rashid zamonida Xuroson amiri bo'ldi. Buxoro xalqi yig'ildilar, ittifoqlashib 154 yili (24 dekabr 770 – 12 dekabr 771) hisorning oqava suvlari tushadiga hovuzini qazidilar hamda Hisor va Shahrison o'rtasida masjidi jome bino qildilar. Hisor masjidi jomesida juma nomozini o'qir edilar. Masjidi jome eskirgach va Hisor masjidi jomesi bekor qolib, xiroj devoniga aylangach, katta masjidni qurishda hech kim Fazl ibn Yahyo ibn Xolid Barmakiy kabi ko'p sa'y-harakat ko'rgazgan emas. U bu ishda ko'p mol xarj qilgan. Unda keyin to amir Ismoil Somoniy davrigacha har kim bu masjidni kengaytirib bordi. Amir Ismoil ko'p uylarni sotib olib, masjidni undan ikki marotabaga kengaytirdi. Ramazon oyida masjidlarga shamdonlar qo'yishni buyurgan kishi Fazl ibn Yahyo ibn Xolid Barmakiy edi. Aytishlaricha, amiri Sa'id Nasr ibn Ahmad ibn Ismoil davrida, bir yil ramazon oyida juma kuni xalq masjidga to'lib turgan vaqtda, masjid birdan bosib qolib, ko'p kishilar halok bo'lishgan. Butun shaharda ta'ziya o'tkazilgan. Masjid tagida qolganlarning ba'zilarini chiqarib olganlarida, hali nafas olib turar, ammo bir oz vaqtdan so'ng jon berar edilar. Ba'zilarining qo'l va oyoqlari singan edi. Shahar aholisidan ko'p kishilar halok bo'lgach, bu hodisadan keyin Buxoro shahri qariyb bo'shab qoldi.

Shahar kishilari masjidni qayta qurishga yana jaddu-jahd ko'rsatdilar. Sultoning yaqin kishilaridan har biri bunga yordam berdi, qozilar bu ishda boshchilik qildilar.

¹ Saʼdullaev A.S. «Qadimgi O'zbekiston tarixi manbalaridan». T., «O'qituvchi», T., 1996, 12-13 betlar.

Nihoyat yangi masjidi jome bir ichida qurib bitkazildi. Keyingi yili esa u yana buzilib ketdi, ibla tomonining har ikki yoni yiqilib tushdi. Lekin u erda odamlar yo'q edi va hech kimga zarar etmadi. Besh yil muddatda masjidni yana qaytadan tuzatdilar. Abu Abdulloh al-Jayhoni 306 yili (14 iyul 918-2 iyul 919) xolis o'z pulidan minora barpo etdi. U o'sha vaqtda sultonning vaziri edi. Toki Ibrohim Tamg'achxon hukmronligining oxirigacha u taxtda o'tirdi. Tamg'achxonning Shamsulmulk Nasr ibn Ibrohim nomli dushmani bor edi. u Buxoroni olishga qasd qildi. Buxoro hosi mustahkamlandi. Shamsulmulk Buxoro darvozasida turib jang qilardi. Masjidni jomening minorasidan turib o'q otar va bulardan Hosi xalqi aziyat chekar edi. Shamsulmulk buyrug'iga binoan hisordan olov otdilar. Minoraning tepasi yog'ochdan ishlangan edi. yonib turgan yog'ochlar masjidni jomega tushib, kuyib ketdi. Malik Shamsulmulk hosi olib, Buxoroni qo'lga kiritgach, masjidni jomega yana tuzatishga buyurdi. Uning buyrug'iga ko'ra xandaq qazidilar. Minora tepasini pishiq g'ishtdan ishladilar. Yana Shamsulmulk maqsurani va ichkarisda maqsura o'rnatishni saroyni Hosi darvozasida qurishni buyurdi. Xojalar va boylardan har kim yordam berdi va nihoyat bu imoratlar qurilib bitkazildi. Masjidni jomening bu ko'shkini 460 yilda (11 noyabr 1067-30 oktyabr 1068) voqe bo'ldi. 461 yili (31 oktyabr 1068-19 sentyabr 1069) esa, u qayta tuzildi. Muhammad ibn Abu Bakr bunday deydi: «Ishonchli kishilardan eshitishimcha Buxoroda mavjud bo'lganbu maqsura, minbar va mehroblarni podshoh Shamsulmulk buyrug'i bilan Samarqandda yasab, naqshlab Buxoroga olib borishgan». Bu masjid to Arslonxon Muhammad ibn Sulaymon davrigacha shu tarzda bo'lib keldi. So'ng Arslonxonning buyrug'i bilan masjidni jomega uzoqroqda qurdilar. Butun masjid tarkibida bitta miyon saroy bo'lib, ulardan shaharga yaqin turgan ikkitasi minorasi bilan Arslonxon tomonidan, katta saroy va maqsura esa podshoh Shamsulmulk tomonidan bino qilingan. Bular o'rtasida qadimdan qolgan ikkita miyon saroy bo'lib, ulardan shaharga yaqin turgan ikkita minorasi asosiy o'rin egallaydi. Hosi yaqinida joylashgan saroy amir Ismoil Somoniy tomonidan qurilgan. Amir Hamid ibn Nuh nasr ibn Ahmad ibn Ismoil Somoniy bino qilgan.¹

¹ Семёнов А.А. «Описание народных арабских и турецких рукописей». Изд. САГУ. Т., 1935. стр. 105-108.

Iyd namozgohi.

Qutayba ibn Muslim shahar ichkarisidagi hisorning ichida masjidi jome bino qilgan paytida, odamlar «Registon» deb ataydigan bo'sh maydonni iyd nomozi o'qiladigan joy qildi va musulmonlarni iyd nomozini o'qishi uchun o'sha erda chiqardi. U kishilarga (iyd nomoziga chiqarganda) qurollarini ham olib chiqishni buyuradi, chunki islom dini hali yangi bo'lib, musulmonlar kofirlardan xotirjam emas edilar. Hozirda ham sunnat bo'lib qolgan, kimki qurol taqishda qodir bo'lsa, u iyd nomozida qurolini o'zi bilan olib chiqadi. Bu maydonga kiraverishdagi darvozini «Darvozayi saroyi ma'bad» - ibodatxona «Saroyi darvozasi» deyilgan. Bu joy Buxoro amirining «ma'bad ul-xayl» - askarlar ibodatxonasi bo'lgan ekan. Bu nomozgohda ko'p yillar davomida iyd nomozini o'qib kelganlar. Bu joyga sig'may qolishganlaridan keyin amiri Sadid Mansur ibn Nuh ibn Nasr Samtin qishlog'i yo'lidagi devor aylantirilgan erlar va yangi bog'larni sotib olib, u erga ko'p mol sarflab iyd namozgohi qildi, chiroyli minbar va mehrob ishlatdi hamda, iyd nomozida takrib aytuvchi mukabbirlar, takbir o'qib kishilarga eshittirsinlar deb minorachalar qurdirdi. Nomozgohdan Buxoro hitori darvozasigacha yarim farsang masofa bo'lib, iyd nomozida bu er odamlar bilan to'lar edi. Ko'p yillar iyd nomozini shu erda o'qidilar. Bu 360 yilda (4 noyabr 970 – 23 oktyabr 971) barpo bo'lib, toki Arslonxon davrigacha nomozgoh bo'lib turdi. Arslonxon odamlar qiynalmasinlar deb va dushman shaharga qasd qilganida aholi shaharda yo'q vaqtda to'g'ri kelib qolmasin deb, shaharga yaqin joyda nomozgoh qilishga buyurdi. Darvozayi Ibrohimda podsholarning bir bog'lari bor edi, uni Shamsobod der edilar, bu bo'f buzilib ketgan bo'lib, u erda ekin ekar edilar. Turk hoqoni Arslonxonning farmoni bilan u erning hammasi tartibga solib, tevaragiga baland devor urdilar, pishiq g'ishtda minbar va mehrob qurdilar, takbir aytib turuvchilar uchun minorachalar tikladilar. Bu ish payg'ambarning – xudo unga va xonadoniga rahmat va salomini yo'llasin – hijratingi keyingi 513 yilda (14 aprel 1119-1 aprel 1120) bo'lgan edi.

Buxoro shahrining arab va ajam o'rtasida taqsimlanishi.

Muhammad ibn Ja'far Xotin al-Faqihdan keltirib rivoyat qilishicha, Qutayba to'rtinchi marta kelib Buxoroni olganida u quyidagi shartlarga binoan sulh tuzdi: Buxoroliklar har yili ikki yuz ming dirham xalifaga, o'n ming dirham Xuroson amiriga, uylar va ekin erlarining yarmini musulmonlarga beradigan bo'ldilar. Yana shahardan tashqarida turuvchi Buxoroliklar arablarning otlari uchun beda, o'zlari uchun o'tin va boshqa zarur narsalarni berib turadigan bo'ldilar.

Shahar ichida ko'shklar bor edi, ba'zi mahallalar qishloq singari tarqoq va bir-biridan uzoq edi. shahristonning ettita darvozasi bo'lib, birinchi darvozani «Darvozayi bozor» - Bozor darvozasi der edilar, u vaqtlarda bundan boshqa hech bir darvoza oldida shaharga yaqin bozor yo'q edi. Hozirgi paytda uni Darvozayi attoron – Attorlar darvozasi deyiladi. Qutayba shahristonni taqsim qilib, uning Darvozayi attorondan kirib kelaverishdagi joyidan Hisor darvozasigacha va undan to Darvozayi Nungacha bo'lgan joylarini arablardan rabiya va muzor qabilalariga, qolganini yamanliklarga bo'lib berdi. Shaxarga kiraverishda chap qo'l tomonidagi birinchi ko'chani «Ko'yirindon» «Beboklar ko'chasi» deb ataganlar, uning orqasida otashparstlar kolisiyo (ibodatxona)si bo'lgan. Hozir u erda bir masjid bor. Uni «Masjidi Bani Hanzala» - Hanzala avlodining masjidi deydilar. Shahar darvozasidan kirganda o'ng qo'lda bir ko'cha bor, uni Vazir ibn Ayub ibn Hasan ko'chasi deb ataydilar. Bu ko'chani yana «Qoh» - «Qasr» ko'chasi ham deydilar. Bu vazir ibn Qutaybaning lashkarboshilaridan biri bo'lib, uning otasi Ayub Buxoroni amiri bo'lgan edi. Buxoroda islom dini o'rnatilgandan keyin Qutayba ibn Muslim tomonidan Buxoroga dastlab amir bo'lgan kishi ana shu Ayub edi. Buxoro amirlari hamisha shu Qoh ko'chasida turganlar. Bu erda Buxoro amirlari uchun alohida bir saroy bo'lgan. Xino nomli bir dehqon bo'lib, u islom dinini qabul etgan Ahmad deb atalgan. Ana shu Qoh ko'chasining hammasi uniki bo'lib, shu ko'chada bu dehqonning bir qasri bo'lgan. Buxoro amirlari hamisha shu qasrda turar edilar. U dehqon vafot etgach, qasr o'z egasi qo'lidan chiqdi. 150 yili (16 fevral 767 – 25 yanvar 768) u dehqonning Qadrai xina nomli merosxo'rlari, o'sha vaqtdagi xalifa Abu Ja'far Davonaqiy oldida, u qasrni o'zlariniki deb da'vo qildilar va xujjat ko'rsatdilar. Hujjatda ko'rsatilgan joyning bir tarafi shahristonning Jo'vayi

baqqolonga yopishgan devori, ikkinchi tarafi shahristonning «Pista shikanon» - «Pista chiqaruvchilar» (devoriga) bozoriga payvast devori, uchinchi tarafi esa, Nun darvozasidan chiqqanda shahristonning o'rtasiga borguncha bo'lgan to'g'ri yo'l edi. Attorlar darvozasidan to Nun darvozasigacha hammasi bir mahallani tashkil etgan shahristonning (to'rt qismi) to'rtidan bir qismi ushbu hujjatda qayd qilingan edi.

Buxoro shahri ichidagi mingta do'kon Buxoro suvi va islom dini qabul etilgandan keyin vujudga kelgan Faroizi Ulyo suvi yoqasidagi etmish beshta xos qishloqni ham xalifa oldida da'vo qildilar va hujjatlar ko'rsatdilar, guvohlar guvohlik berdilar. Xalifaning buyrug'i bilan hukmnoma muhrlatib Buxoroga olib keldilar va mazkur mulklarning xammasini qaytarib oldilar. Bundan keyin ularning bolalari bu mulklarni bo'lib-bo'lib har kimga sotdilar va oxiri mulklar odamlar qo'liga tarqalib ketdi.

Attorlar darvozasidan o'tgandan keyin, Bani Sad darvozasi va Bani Sad masjidi keladi. Hasan ibn Alo'i so'g'diy katta kishi bo'lib, shahristonda uning g'oyat darajada oliy bir ko'shki bor edi. Bunday ko'shk hech bir podshohda bo'lgan emas. Bu kishi Alo ko'chasini darvozayi Aloda barpo qildi hamda mana shu ihota qilingan joyni ham u barpo etgan edi, bu ihotali erdan unga har oyda bir ming ikki yuz dinorlik hosil unar edi. Shahriston ichida ham uning daromadli joylari bor edi. Bani Sad darvozasidan o'tgandan keyin Bani Asad darvozasi keladi. Buni johiliyat zamonida «Muhra darvozasi» der edilar. Bu darvozadan chiqib quyida tushilganda Xuroson amirining saroyi bo'lgan. Yana bir darvoza bo'lib, uni «Qandis darvoza»si der edilar, u darvozadan Hisorga chiqilgan. Hozir bu joy vayron bo'lib ketgan, u mahallani Fag'sodara deganlar, hozir bu joyda qabriston bo'lgan. Ilgari arablarning uylari o'sha darvoza tomonida bo'lgan. U darvoza Buxoro darvozalarining maxkamrog'i bo'lib, uzunligi oltmish qadam miqdorida katta kamari bor, u kamar tagida ko'pgina uylar joylashgan. Bu imoratlarni Suboshtegin nomli amir qurgan. Uning go'ri ham shu mavzeda. Yana boshqa bir darvoza – «Dari Haqrah» - «Haqrah darvozasi»dir.¹

Xoja imom Abu Hafs Kabir Buxoriy o'sha mahallada tutar edi. U kishi Buxorodan Bag'dodga borib, imom Muhammad Shayboniyga shogird tushgan. Bu Buxoro viloyatida unga teng hech kim bo'lmagan. U Buxoroning mutaaxxirlari

¹ Сухарева А. «К истории народов Бухарского ханства». Изд. Акад. наук. Т., 1958. стр 77-79.

jumlasidan bo'lib, ham zohid, ham olim edi. Buxoro o'sha kishi tufayli «Quvvat ul-islom» - «islom dinining gumbazi» deb atalgan. Buxoro aholisining ilmi bo'lishida, Buxoroda ilm keng tarqalishi va imomlar, ulamolarning hurmati oshishida u kishi sabab bo'lgan. Uning o'g'li Abu Abdullohning ham ilmi shu darajada ediki, hojilar karvoni hajdan qaytib kelayotganlarida ularning ulamolari Xoja imom Hafs oldiga kelib undan maslahat so'rar edilar. Shunda Abu «O'zing-ku uzoqdan kelayapsan, nima uchun uzoq yurt olimlaridan so'ramadingiz?», deb so'rar, u olim esa: «Bu masalada uzoq yurtlar olimlari bilan munozara qildim, ular javob bera olmadilar va menga Buxoroga borginingda bu masalani Xoja imom Abu Hafs Buxoriydan yoki uning farzandlaridan so'ra dedilar», deb javob berar edi. Shundan keyin Xoja imom Abu Hafs ular so'ragan masalada to'g'ri javob berar ekan Xoja imom Abu Hafs har kechayu-kunduz Qur'onni ikki marta xatm qilar va shu bilan birga, odamlarga ilm o'rgatar edi. U yoshi o'tib keksaygach, Qur'onni bir marta xatm qiladigan bo'ldi. Yana ham keksayib, zaiflashib qolgach, to dunyodan o'tganiga qadar, bir kecha-kunduzda Qur'oning yarmini o'qiydigan bo'ldi.

Xoja imom Abu Hafsning saroyi, kishilar u joyni qanchalik tuzatib turganliklariga qaramay, bugungacha saqlanib qolgan emas, lekin undan ayrim nishonalargina boqiydir. Savmao – ibodat qilinadigan joy ham uyda o'z joyida turibdi va duo qabul b'ladigan joydir. Uning vafoti 217 yili bo'lib, qabri darvozayi Navda, duo qabul qiladigan joy deb mashhur. U tepalikni Xoja imom Abu Hafs tepaligi deyishadi. U erda masjidlar va ibodatxonalar bo'lib, hamisha muxojirlar kelib o'tiradilar. Xalq uning qabri tuprog'ini tabarruk deb biladi. U joyni «Haqrah darvoza»si deyilishiga sabab shuki, odamlar o'sha erda, marhum Xoja imom Abu Hafs huzuriga kelib fatvo olar edilar va bu fatvoni haq deb bilar edilar. Shu jihatdan ular Haqrahni «hak» deb ataganlar.

Ettinchi darvozani «Darvozayi Nav» - «Yangi darvoza» deganlar, shu ma'nodagi u shahriston darvozalarining eng oxirgisidir. Bu darvozadan ichkariga kirganda o'ng tomonda, Xoja imom Abu Hafs saroyining yaqinida qurayshiylarning masjidi bo'lgan. Uni qurashiylar masjidi deyilishiga sabab shuki, Muqotil ibn Sulaymon al-Qurayshiy

shu erda bo'lgan. Bu Muqotil Hayonning ustozidir, Hayon esa Talxat ibn-Ubayrat ash-Shayboniyning ustози edi.

Hayon ulug' va qadrli kishi bo'lgan. U Xurosonga borgan va kofirlar Qutaybani Buxoro davrozasi oldida qurshab olgan vaqtda, Qutayba bilan So'g'd maliki Tarxun o'rtasida sulh tuzilgan. Keyin Hayon Farg'onada askar shaylagan va bu askar Qutaybani o'ldirgan. Havzi Hayon uning nomiga qo'yilgan. Qutaybaning qabri Farg'onada mashhur bo'lib, u «Raboti Sarxang» degan joyda Qoh deb ataladigan bir qishloqda o'rnatilgan. Viloyatlardan odamlar ziyorat uchun hamisha u erga borib turadilar. Qutayba shahid etilganida u 55 yoshda bo'lgan.

Somoniylar va ularning Nasabi haqida Asad ibn Abdulloh al-Qurayshiy Xuroson amiri qilib tayinlangach, Xurosonga keldi va 166 yilda dunyodan o'tgunicha o'sha erda bo'ldi. Aytishlaricha u yaxshi ishlarni qiluvchi va bahodir kishi bo'lib, ko'ngli arablar ham erli xalqlarning qadim ulug' oilalariga g'amxo'rlik qilishga va aslzodalarni do'st tutishga moyil edi. Somomniylarning bobosi bo'lmish Somonxudot Balxdan qochib, Marvga, uning oldiga kelganida u Somonxudotni izzatladi va himoya qildi. Uning dushmanlariga qahr qilib Balxni unga qaytarib berdi. Somonxudot uning qo'lida islom dinini qabul etdi. Uning Somonxudot deyilishiga sabab shuki, u bir qishloq barpo qilib, unga somon deb nom berdi va Buxoro amirini Buxorxudot deb ataganlaridek, uni qam shu qishloq nomi Somonxudot deb atadilar. Somonxudotdan bir o'g'il tug'ilganida u Asad Qurayshiyni do'st tutgandan o'g'liga Asad ismini bergan. Shu Asad amiri moziy, ya'ni amir Ismoil Somoniyning bobosidir. Ismoil Asadning o'g'li, Asad Somonxudotning o'g'li, Somonxudot esa Bahrom Etrubin malikning avlodlaridandir. Osha vaqtdan boshlab somoniylar davlati kundan-kunga rivoj topib, nihoyat istagan martabasigacha etdi.

Ahmad ibn Muhammad ibn Kasrning aytishicha, Muhammad ibn Ja'far o'z kitobida Muhammad ibn Solih Alaysiy va Abu-l-Hasan maydonidan keltirib, shunday rivoyat qilgan: Buxoro aholisi islom diniga da'vat qilgan bo'lib, bundan oldinroq zimmiy bo'lib, juzya to'lab turganlar. Buxoro podshohi Tug'shoda edi. U o'zi yashirin ravishda kofir bo'lganligi uchun bundan g'azablendi va Xuroson amiri Asad ibn Abdullohga xat yozdi: Buxoroda bir kishi paydo bo'lib, viloyatni betinch qilayapti va

bir guruhni bizga qarshi ko'tardi. U guruh biz musulmon bo'ldik deb yolg'on aytadilar, ular tillaridagina musulmon bo'lganlar, dillarida esa o'zlarining o'sha ilgarigi e'tiqodlari bilan mashhurlar. Shu bahona bilan ular viloyat va mamlakatni betinch qilmoqdalar hamda xiroj to'lamayaptilar. Shu sababli Asad ibn Abdulloh o'zining soliq yig'uvchisi Shariq ibn Horisga xat yozib unga: O'sha odamlarni qo'lga olib, Buxoro podshohiga topshir, toki u nimani xohlasa shuni qilsin, deb buyurdi. Aytishlaricha, u guruh masjidda bo'lib, hammalari baland ovozda: «Ashhaddi alla ilaha ilallohu va ashhadu anna Muhammadan Abduhu va rasulu»ni deyishar va «vo Muhammado vo Ahmado» deb faryod qilishar edilar. Tashqarida Buxorxudot ularning kallasini olar va ularga shafqat so'rashga hech kim botina olmas edi. Nihoyat u to'rt yuz kishining boshini oldirdi va qo'plarni dorga ostirdi, qolganlari esa Asad ibn Abdulloh nomidan asir qilib, uning oldiga Xurosonga yubordi. Bu jamoadan hech kim islom dinidan qaytmadi va Tug'shoda Buxorxudot o'lganlaridan keyin, asir qilib olingan jamoa Buxoroga qaytib keldi.

Shariq ibn shayx al-Mahriy. U arablardan bo'lib, Buxoroda yashagan va jangovar kishi bo'lib, shiya mahzabida bo'lgan. U odamlarni Amirul-mo'minin Ali avlodlaridan birini xalifa qilishga chaqirgan va: «Biz marvoniylar qiynog'idan endigina qutuldik, abbosiylar zulmiga tutilishimiz kerak emas, payg'ambarning xalifasi payg'ambar avlodidan bo'lishi kerak» degan. Uning atrofiga ko'p xalq yig'ilar edi. Shariqning chaqirig'ini oshkora qilishga va kimki ularga qarshi kelsa urush qilishga qaror qildilar. ...Buxoroga yaqin kelib lashkargox qildi. Shariq ibn Shayx ham ko'p sonli lashkar bilan Buxoro darvozasida lashkargoh qurdi. Butun Buxoro aholisi Abu Muslimga qarshi urushish uchun Shariqqa ittifoqlik bildirdilar. O'ttiz etti kun davomida urushdilar. Shayx o'g'li g'alaba qozonmagan biron kun bo'lmagan.¹

Muqqannanining Movaraunnahrga borish sababi bunday edi: Muqqana voqeasi xabari etgach, Xuroson amiri bo'lgan Xumayd ibn Qaxtaba uni tutishga buyurdi. Oxiri Muqqanaga Movaraunnahrga viloyatida ko'p xalq uning diniga kirgani va shu dinning tarqalgani ma'lum bo'ldi, u Jayxundan o'tishga qasd qildi. Xuroson amiri: «Jayxun daryosi labida uni soqchilar poylab tursinlar», - deb buyurgan edi. Muqanna Jayxun

¹ Сухарева А. «К истории народов Бухарского ханства». Изд. Акад. наук. Т., 1958. стр 80-84

daryosidan o'tmoqchi bo'lsa uni tutib olish uchun yuzta otliq askar Jayxun qirg'og'ida yuqori va quyi tomon hamisha yurib turdilar. Muqanna o'ttiz olti kishi bilan Jayxun daryosi labiga kelib sol tayyorlab Jayxundan o'tdi va Kesh viloyatiga bordi. U viloyat Muqannaga bo'ysindi va xalq unga rag'bat qildi. Som tog'i tepasida g'oyat mustahkam bir hisor bo'lib, unda oqar suv, daraxtlar va erlar bor edi. Muqanna uni tuzatishga buyurdi va uni tuzatdilar. Muqanna u erga ko'p mol va behisob oziq-ovqat yig'di. Soqchilar tayinlandi. Oq kiyimliklar ko'payishib ketdilar va musulmonlar ularga qarshi tadbir qo'lladilar. Bu ovoza Bag'dodga borib etdi. O'sha vaqtda Muxdiy Xalifa edi, u juda qayg'urib Mug'annaga qarshi kurash uchun ko'p lashkar yuboradi va oxiri bu fitnani daf qilish maqsadida o'zi ham Nishopurga keladi. Muxdiy islom dini xarob bo'lib, Muqanna dini butun dunyoga tarqalishi xafidan qo'rqqan edi. Muqanna turklarni chaqiriqda hamda musulmonlarning qoni va molini ular uchun halol qildi. Turkistondan talonchilik tamasida ko'p lashkar keldi. Ular viloyatlarni talar, musulmonlarning xotini va bolalarni asir qilib olar, o'ldirar edilar. Ular dastlab Buxoroda paydo bo'ldilar. Muqannaning hamkasblari bo'lgan oq kiyimliklardan bir guruhi Numijjat deb atalgan. Bir qoshloqqa bordilar va kechasi masjidga kirib muazzinni o'n besh kishi bilan birgalikda o'ldirdilar. Butun qishloq aholisini ham o'ldirdilar. Bu voqea 159 yilda sodir bo'ldi. Buxoro amiri Husayn ibn Maos edi. Muqanna tomondagilarining kattalaridan buxorolik Hakim Ahmad nomli bir kishi bo'lib, u bilan birga yana uchta lashkarboshi bor edi. Ulardan birining nomi Hachviy, ikkinchisiniki Bog'iy bo'lib, bu ... Fuzayil ko'shkidan edilar. Uchinchining nomi Girduk, u G'ijovon qishlovidan edi. Bularning har uchchalasi ham jangovar kishilar bo'lib, ayyor, bosqinchi va o'g'ri edilar. Ularning qishloq aholisini o'ldirganligi xabari shaharga etgach, Buxoro aholisi ham qo'zgaldilar va amirning oldiga borib oq kiyimliklar bilan albatta jang qilishimiz kerak, dedilar. Bir yuz mingliklar to'qqizinchi yil rajab oyida Maos o'z lashkari bilan chiqib, Narshaxiy qishlofiga bordilar – hozir bu qishloqni Narjaq deydilar, - oq kiyimlilar qarshisida lashkar tuzdilar. Shunda Buxoro qozisi: «Biz ularni haq diniga chaqiramiz, ular bilan urushish biz uchun munosib emas», - dedi qozi yaxshi tadbirkor odamlar bilan birga ularni haq dinga chaqirish uchun qishloqqa kiradi. Oq kiyimlilar: «Biz bu siz aytayotgan narsalarni

bilmaymiz», - deb kundan-kunga kofirliklarini kuchaytirdilar va nasihatni qabul qilmadilar. Shundan keyin jang boshlanib ketdi: birinchi bo'lib oq kiyimlilarga hamla qilgan kishi arablardan Naim ibn Sahl nomli kishi edi. U ko'p urushlar qilib bir qancha kishini o'ldirdi, etti yuz kishi o'ldirildi va qolganlari qochdilar. Shu bilan o'sha kuni tamom bo'ldi.

Ertasiga tong otgach oq kiyimlilar elchi yuborib musulmonlardan omon so'radilar va «Biz musulmon bo'ldik», - dedilar. Musulmonlar ular bilan sulh tuzib, sulhnoma yozdilar va ularga bundan buyon yo'lkesarlik qilmaslik, musulmonlarni o'ldirmaslik, o'z qishloqlariga tarqalish, o'z amirlariga bo'ysinish shartlarini qo'yib xudo va payg'ambar ahdini ularga maxkam yukladilar. Shaxarning hamma kattalari sulhnomalarga qo'l qo'ydilar. Musulmonlar qaytib kelgach ular ahdlaridan qaytib yana yo'lkesarlik bilan mashg'ul bo'ldilar. Jabroil urushni boshlab yubordi. To'rt oy mobaynida ertayu-kech uzluksiz urushdilar, oq kiyimlilar g'alaba qozonmagan bir kun ham bo'lmadi. Musulmonlar chorasiz qoldi, tadbir urushga tushdilar. Musulmonlar qilichbozlikka kirishib, ko'p kishini o'ldirdilar, qolganlar omonlik tilab, ilgarigi ahdnomaga muvofiq musulmonlarni ranjitmaslik, o'z qishloqlariga qaytib ketish, o'z ulug'larini xalifa oldiga yuborishga va o'zlari bilan birga qurol-yaroq olib yurmaslik shartlari bilan sulh tuzdilar. Tashkari chiqib xandaqdan o'tdilar. Ular yashirin suratda qurolga ega edilar. Oq kiyimlilarning kattasi bo'lgan Hakimni Jabroil o'z o'g'li Abbosga topshirib: «Buni olib borib, sarpardaga qo'y va yashirin ravishda o'ldir», - dedi. Uning amriga muvofiq I sh qilib Hakimni sarpadalarga olib bordilar. Oq kiyimlilar uzoqdan turgan edilar. Jabroil sarpardaga borgan edi, oq kiyimlilar Hakimning do'sti bo'lgan Xachviyni yuborib, u orqali Jabroilga: «Hakimni olmasdan ketmaymiz», - dedilar, Xachviy yangi etik kiygan edi. U Jabroilga shu so'zlarni aytib turgan ediki, Jabroilning o'g'li Abbos kelib: «Xalqimni o'ldirdim», - dedi. Jabroilning buyrug'i bilan darhol Xachviyni otdan tushirib, o'ldirdilar. Oq kiyimlilar qichqirishib qurollarni qo'lga oldilar va jang boshlanib ketdi.

Jabroil butun lashkarini otga minishga buyurdi. Ilgarigidan kuchliroq urush bo'ldi, qattiq janglar qildilar va oq kiyimlilar yana engilib, ulardan ko'p xalq o'ldirildi, tirik qolganlari qochdilar. Girdak Muqannaning oldiga ketdi. Ulardan biri

Bog'iy esa urushda o'ldirildi. Jabroil Sug'd oq kiyimlilarning dillariga qo'rqinch solish uchun o'ldirib, kallasini Sug'dga olib bordi. 161 yilda Marvga keldi va bu erdan ish boshlab, Omuy biyoboniga kirib ketdi. Sug'dda oq kiyimlilar ko'p edilar, turk lashkari ham kelgan edi. Maos ibn Muslim unga: «Dushmanimiz turklar, bu erga bizga yaqin joyda turibdilar, ular qo'yni juda yaxshi ko'radilar, bu qo'ylarni Buxoroga qoldir yoki menga sot, men ularni lashkarga taqsimlab berayin», - desa u rozi bo'lmadi. Maos ibn Muslim Sug'd va Samarqandga borib turklar hamda oq kiyimlilar bilan ikki yildan keyin Xuroson amirligidag iste'fo berdi, Musayib ibn Zaxayr az-Zabriy Marvda 163 yil Jumod al-avval oyida Xurosonga amir bo'ldi va rajab oyida Buxoroga keldi.

Hirot amiri bo'lgan Sail ko'p lashkar bilan Muqanna xisorining darvozasiga kelib qo'ndi, uylar va hammomlar qurib yozin-qishin shu erda bo'ldilar. Hisorning ichida chashma, daraxtlar va ekinzorlar bor edi. Muqanna xotinlari bilan hisorda turar edi. Musulmonlar hisorni oldilar. Muqanna ichki hisorni saqlab qolmasligini tushundi. Ahmad ibn Muhammad ibn Nasr shunday deydi: «Men qishloq keksalaridan shunday ulug' ne'matni u bir kishiga berib qo'yib, boshqalar o'zlarni undan mahrum qilishlarida qanday ma'no bor?», - deb so'raganida, keksalar: «Ularning odatlari shuki balog'atga etgan hur bir yigit to bir xotinga uylanguncha o'sha odam bilan o'z ehtiyojini qondirib yuradi va uning evaziga u yigit o'z xotinining avvalgi kechasini o'sha odamga beradi. U odam keksayib qolganida esa uning o'rniga boshqa birini tayinlaydilar. Bu qishloqning erkaklari hamisha o'sha odam bilan elda muomala qiladilar. Shu ish bilan shug'ullanuvchi kishini «takona» deb ataydilar», deb haqiqatdan voqif bo'la olmadim. Bu hikoyani qishloqning keksalari va qishloqlarida yashovchi jamoatdan eshitdim, olloh bizni bundan saqla.¹

Amiri Moziy Abu Ibrohim ibn Ahmad as-Somoniylar hukmronligining boshlanishi

U somoniylar sulolasi sultonlarining avvalgisi bo'lib, haqiqatdan ham podsholikka loyiq va haqli edi. U aqlli, adolatli, shafqatli, yaxshi fikr va tadbir egasi bo'lib, hamisha xalifalarga itoat izhor qilar va ularga tobe bo'lishni zarur va lozim bilardi. U 287 yili rabial-oxir oyining o'rtalarida shanba kuni Amir ibn Laysni

¹ Умняков Л.Л. «К запросу от исторической топографии». Изд. Акад. наук. М., 1938, стр.. 58-62.

Buxoroda vazir etib mamlakatga ega bo'ldi va sakkiz yil podsholik qildi. 234 yili shavvol oyida Farg'onada tug'ilgan. O'n to'rt yoshga etganida otasi vafot etdi. Katta akasi amir Nasr uni juda ulug' tutar, u ham amir Nasrning xizmatini qilar edi. Husayn ibn Tohir at-Toiy 260 yili rabial-oxir oyida Xorazmdan Buxoroga kelganida u bilan buxoroliklar o'rtasida urushlar bo'lib, besh kundan keyin shaharni oldi, buxoroliklarni shahar va qishloqda turishini man qildi va ko'p kishini o'ldirdi, lashkarlariga bosqinchilik qilishiga ruxsat berdi. Ular buxoroliklarning narsalarini musodara qilar, kechasi zo'rlik bilan uylariga bostirib kirar, zo'ravonliklar qilib, mol-mulklarini olib chiqar edilar. Buxoro aholisi Husayn ibn Tohirga qarshi urushga chiqdi, ko'p kishi o'ldirildi. Shahar aholisining qo'li baland kelgach Husayn ibn Tohir jarchi qo'yib aholiga ommaviy e'lon qildi. Kun bo'yi urush qildilar, kech bo'lgach, kirish darvozasini maxkam berkitdi. Xalq uni ushlab olish uchun darvozani qo'riqlab turar edi. Husayn ibn Tohir Buxoro xirojini tamom olgan, uning hammasini qidrijiy dirham bo'lib saroy o'rtasiga to'kib qo'yilgan edi. Husayn ibn Tohir qidrijiylarni kumushiga almashtirib olmoqchi edi, ammo bunga vaqt topa olmadi va o'sha kechasi devorni teshib o'zining yaqin kishilari bilan och va yalang'och holda qochib ketdi. Odamlar bundan xabardor bo'lib saroyga kirdilar va u pullarni taladilar. Ko'p kishilar o'sha pullardan juda boy bo'lib ketdilarki, boyliklari avlodlariga ham qolgan. Shaharda «Husayn ibn Tohir qochdi» deyishar edilar.

Husayn ibn Tohir qochgandan keyin ham Buxoro aholisi boshiga har xil mojarolar va har xil urushlar ko'p bo'ldi. Buxoroning ahli ilmlaridan Xoja Abu Xays Kabiriyning o'fli Abu Abdulloh al-Faqixning huzuriga yig'ildilar, u jasoratli kishi edi. Buxoro ishlari bo'yicha u bilan maslahat qildilar. Xoja Abu Xaysning o'g'li Abu Abdulloh Samarqandga Nasr ibn Ahmad ibn Ahad as-Somoniya u Samarqand va Farg'onaning amiri edi, xat yozib, Buxoroga yubordi. Amir Ismoil Karmanga etgach bir kun u erda turib, Buxorogaga, Buxoro amiri Husayn ibn Muhammad al-Xaboriyga elchi yubordi, uning elchisi bir necha marta borib-kelib turdi va oxiri amir Ismoil Buxoroga amir Husayn ibn Muhammad al-Xavoriyning esa unga xalifa bo'lishiga qaror qilindi. Husayn Xavoriyning lashkari bu qarorga bo'ysindi. Amir Ismoil Xavoriyning o'ziga xalifa tayin qilganliga haqida farmon bilan bayroq va sarpo yubordi. Xavoriy

bayrog'i va sarpō bilan Buxoro shahriga aylantiradilar. Buxoro aholisi shodligini namoyon etdi, o'sha kuni – seshanba kuni edi, juma kuni xutbani Nasr ibn Ahmad nomiga o'qidilar va Yaqub ibn Xays nomini xutbadan tushirdilar. Bu voqea amir Ismoilning Buxoroga kirishidan oldin bo'lib, o'sha juma kuni 260 yil muborak ramazon oyining birinchi kuni edi. Abu Xavs Kabiriyning o'g'li uning istiqboliga chiqdi, Buxoroni arab va boshqalardan iborat ulug' kishilari u bilan birga Kirmingacha bo'ldilar. Abu Abdulloh buyruqi bilan yaratdilar. Amir Ahmad Buxoroga kelganidan pushaymon bo'ldi, chunki uning lashkari oz, Buxoroda esa to'polon va g'avg'o ko'tarilgandi, o'ziga nisbatan buxoroliklar dilidan qanday munosabatda ekani unga ma'lum emas edi. Abdulloh ibn Xoja Abu Xavs Buxorodan chiqib Karmanaga kelgach amir Ismoilning dili quvvat topdi. Abu Abdulloh har nima qilsa ham shahar aholisi uni qaytara olmasligini bilib, o'z qarorini qat'iy qildi. Abu Abdulloh unga ko'p madhiya aytib dilini quvontirdi. Amir Ismoilni Buxoroga olib kelgach, uni ulug'lab, hurmat ko'rsatadilar. Amir Ismoil Husayn al-Xavoriyni tutib zindonga yubordi va barcha g'avg'olar tinchidi. Amir ibn Lays amir Ismoilga qarab «Men Balxda o'n xirvor oltin berkitganman, buyurgin uni olib kelsinlar, ularga ega bo'lishga bugun sen sazovorsan», - dedi. Amir Ismoil odam yuborib oltinlarni oldirib keldi va hammasini Amir ibn Laysga yubordi. Har qancha iltimos qilsalar ham amir Ismoil u oltinlardan hech qancha olmadi. Amir ibn Muhammad ibn Laysni o'ziga yuborilgani to'lov qilib yozgan xati Samarqandga etib keldi, xatning boshlanishiga shunday yozilgan edi: «Abdulloh ibn al-imom Abu-l-Abbos al-Mu'tazid biloh Amirul mo'minindan, Amirul mo'mininning g'ulomi Abu Ibrohim Ismoil ibn Ahmad». Bu xat amir Ismoilga etgach, u amir Laysga achinib g'amgin bo'ldi, ammo xatiga javobini qaytara olmadi. Nihoyat uning buyrug'i bilan amir Laysni kajavaga o'tkazib, Buxoroga olib keldilar. Amir Ismoil uyalganidan yuzini unga ko'rsatmadi va «Biron hojating bo'lsa so'ra» deb odam yubordi. Amir Lays: «Mening bolalarimni yaxshi kishilar hamda bu meni olib ketayotganlarga nasihat qildim toki ular menga nisbatan yaxshi muomalada bo'lsinlar», deb javob qaytardi. Amir Ismoil shunday qildi va uni kajavaga o'tkazib Bag'dodga yubordi. Xullon dovonidan boshlab, Xurdon viloyati Movaraunnahr, Turkiston, Hind va qo'rg'onlar hammasi uniki bo'ldi. Uh bir shaharda axloq bilan ish yuritadi, kimki fuqaroga zulm

qilsa unga jazo berdi. U zohid bo'la turib shunday ediki, somoniylar sulolasidagi hech kim uningdek bo'lmagan. U davlat ishiga hech beparvolik qilmas, hamisha hali o'zinga sherik qildim, sen do'st bo'lib men bilan yaxshi munosabatda bo'lishingni, hech bir badiiy bizning oramizga kirishga yo'l topa olmasin, o'rtamizda do'stlik va birlik bo'lsin, bundan ilgari aytgan gaplaringiz yo'foqlik yuzasidan aytilgan edi, biz u gapdan kechdik. Sen Movaraunnahrga viloyatini qo'riqla, fuqaroga g'amxo'rlik qil! Amir Ahmad orqaga qaytdi va ko'p kumush, kiyim-kechak, tilla va qurol-yarog'lar Buxoroga keldi.¹

Amir Ahmad Buxoroga kelishi

Bu voqea 260 yil muborak ramazon oyining o'n ikkinchi (1 iyul 874) kunida sodir bo'ldi va shu sababli shahar tinchidi. Buxoro aholisi qiyinchiliklardan qutulib, rohatga etishdi. Shu yili Movaraunnahning Jayxun daryosidan tortib to mashriq shaharlarining eng yirog'igacha bo'lgan barcha erlar hukmronligi amir Nasr ibn Ahmadga berilganligi haqida xalifa Muvofiq Olohdan farmon keltirdilar va Buxoroda xutbani amir Nasr ibn Ismoil nomiga o'qidilar. Yaqub ibn amir Ismoil bir muddat Buxoroda turdi va undan keyin o'z birodarining o'g'li Abu Zakariyo yoxud ibn Ahmad ibn Asadni Buxoroga o'z o'rniga xalifa qilib qoldirib, amir Nasrning buyrug'ini Samarqandga berdi. Amir Ismoil bundan xabar topib uning ruxsatisiz kelishin yoqtirmadi, kutib olishga buyruq bersa ham o'zi istiqboliga chiqmadi va hech qanday hurmat ko'rsatmadi. Uning farmoni bo'yicha amir Ismoilni Samarqand hisoriga keltirib, Samarqandning soqchiboshchilik mansabini unga berdilar. Amir Nasr unga achchiq qilganicha berdi. Amir Ismoil uning oldiga salomga borib turdi. U Buxoroga borishdan oldin bunday qilmas edi.

Muhammad ibn Umarni unga xalifa qilib tayinladilar. Amir Ismoil salomga kelib bir ancha vaqt turar va qaytib ketardi. Amir Nasr esa unga hech bir so'z so'zlamas edi. Shu ahvolda o'n oy o'tdi, oxiri u amakisining o'g'li Nuxaniy ibn Abdujabbor ibn Hamzani yrtaga qo'ydi, uni yana Buxoroga yuborib, Ismoil ibn Muhammadal-Marviziyni unga vazir, Fazl ibn Ahmad al-Marviziyni esa dabir qilib tayinladi. Endi

¹ Умняков Л.Л. «К запросу от исторической топографии». Изд. Аккад. наук. М., 1938, стр. 63-65.

amir Nasr Samarqandning barcha ulug'lari, e'tiborli kishilari bilan birga uni kuzatishga chiqdi. Shu asnoda amir Nasr Abduljabbor ibn Hamzaga qarab: «Yo Adu-l-Fatx! Bu go'dakni yuborayapmizu, lekin undan nima ko'rmoqchimiz?», - dedi. Abduljabbor: «Bunday dema u sening qo'ling, sen nima buyursang shuni qiladi, hargiz sening xilofingga ish tutmaydi», - dedi. Shu vaqtda o'g'rilardan biri to'da xalqni o'z atrofida to'plagan, yigitlari bebosh va bezorilardan to'rt mingta odam jam bo'lgan edi. Ular hammasi Pomtin bilan Varkad o'rtasida yo'lto'sarlik qilar va shaharga ham xavfi yaqin edi. Amir Ismoil o'zining soqchiboshisi Buxoro devorini qurgan va «Kayi Alo» - Alo ko'chasining nomi bilan ataladigan Husayn ibn Aloni u o'rilarga qarshi urushga yubordi. Buxoro aholisining ulug' sarkardalar mag'lub etdilar. Husayn ibn Alo o'g'rilar ustidan g'alaba qozonib, ularning boshliqlarini tutib o'ldirdi va uning boshini olib keldi, unga yor bo'lgan bir guruh kishilarni ham tutib oldi. Amir ismoil ularning qo'llarini bo'lab, Samarqandga yubordi. Bu ishdan forig' bo'lganlarida Husayn ibn Tohir yana Buxoroga qasd qilib, ikki ming kishi bilan kelganligi haqida xabar qildilar. Amir Ismoil eplay olgunicha lashkar jam qilib urushga jo'natdi. Husayn ibn Tohir ikki ming xorazmliklar bilan Jayxundan o'tdi, degan xabarni etkazdilar. Amir Ismoil otga minib ularga qarshi chiqdi. Qattiq jang qildilar. Husayn ibn Tohir engildi, uning lashkarlaridan ko'pi o'ldirildi, ko'pi g'arq bo'ldi va etmish kishi asir tushdi. Bu amir qilgan urushlarning dastlabkisi edi.

Ertalab bo'lgach amir Ismoil asirlarni chaqirib har biriga bittadan chopon berdi va qaytarib yubordi. Husayn ibn Tohir ularga qarab keldi va amir Ismoil Buxoroga qaytdi. Shunda o'z hukmronligi ahvoli haqida o'ylab, o'zining Buxoro sarkardalari huzurida u qadar baland hurmati yo'qligidan, o'ziga biron bir manfaat etmasligini bildida, shunday ish qilishni to'g'ri topdi. Buxoro sarkardalaridan bir guruhini chaqirib, ularga: «Men uchun Samarqandga borib, amir Nasr huzurida mening nomimdan uzr so'rashingiz lozim», - dedi. Ular: «Eshitamiz va bo'ysinamiz», - dedilar-da, bir necha kun ruxsat berilishini so'radilar va undan keyin jo'nab ketdilar. U guruh amir Ismoildan ilgari Buxoro amirlari bo'lib kelgan edi. Abu Muhammad Buxoriy Buxoro amirlari podshohi. Abu Hotam Yassariy esa h'oyat darajada boy bo'lib, mol-mulkinging ko'pligi sababli bo'ysunmas edi. Buxoro ulug'lari mana shu ikkalasi bilan birgalikda Samarqandga

bordilar. Amir Ismoil amir Nasrga xat yozib, o'zining Buxoro podsholigini ushlab tura olishi uchun u kishilarni tutib zindonga solishini so'ragan edi. Amir Nasr uning aytganidek qilib, u guruxni to Buxoro ishlari tinchiguncha bir qancha vaqt Samarqandda ushlab turdi. Amir Ismoil yana amir Nasrga xat yozib, ularni talab qilib oldi, shundan keyin ular yaxshi muomalada bo'lib, hojatlarini ravo etdi, huquqlarini rioya qilishni o'ziga lozim bildi. Nasr ibn Ahmad amir Ismoilning gardaniga har yili Buxoro molidan besh yuz ming dirhamni yuborib turishni vazifa qilib yuklagan edi. Shundan keyin amir Ismoil bir qancha urushlarda bo'ldi va u mollar xarj bo'lib ketib, yubora olmadi. Amir Nasr yana odamlarni yuborib, o'sha molnii talab qildi. Amir Ismoil yubormadi va shu sababdan oralarida noxushlik paydo bo'ladi. Amir Nasr lashkar yig'di va Farg'onaga o'z birodarlari Abu-l-Ashustga xat yozib, uni ko'p lashkar bilan kelishga va yana bir xatni Shoshga boshqa birodari Abu Yusuf Yoqub ibn Ahmadga yozib, uni ham o'z lashkari bilan kelishga va Isfijob turklarini ham olib kelishga buyurdi. Ular ko'p lashkar yig'dilar va 272 yili rajab oyida (dekabr 885 – yanvar 886) Buxoroga qarab yurdilar. Amir Ismoil bundan xabar topgach o'z birodariga hurmat yuzasidan Buxoroni bo'shatib, Turobga ketdi. Amir Nasr Buxoroga keldi va amirlar Ismoilni uchratmagach Baykondga borib, shu erda qo'ndi. Baykondliklar uni kutib olib, ustidan ko'p oltin-kumush sochdilar va ko'p tuhfarlar chiqardilar. Amir Ismoil bilan o'sha vaqtda Xuroson amiri bo'lib turgan Rofe ibn Xursama o'rtasida do'stlik bor edi. Amir Ismoil unga xat yozib yordam so'radi. Rofe o'z lashkari bilan kelib, Jayxun daryosi muzlagan edi, muz ustidan o'tdi. Amir Nasr Rofening kelganidan xabar topib, Buxoroga qaytdi. Amir Ismoil Rofe bilan borib Samarqandni olishga ittifoq tuzdi. Bu xabar amir nasrga etgach, u tezlik bilan Talasga borib yo'lni to'sdi. Amir Ismoil va Rofe cho'l yo'li bilan ketdilar. Buxoroning hamma qishloqlari amir Nasrning tasarufida edi. Ular cho'lda va oziq-ovqat, em-xashak topa olmas edilar. U yil qahatchilik yili edi. Ularning ahvollari og'irlashdi. Amir Nasr Samarqandga o'z o'g'li Ahmadga xat yozib unga Samarqand Sug'didan jangchilar to'plashni buyurdi. Viloyat aholisi: «Ular isyonchilardir, ularga yordam berish halol bo'lmaydi», deb amir Ismoilga «em-xashak» bermadilar.¹

¹ Умняков Л.Л. «К запросу от исторической топографии». Изд. Аккад. наук. М., 1938, стр. 67-70.

Amir Ismoilning buyrug'i bilan undan qanday qilib asir tushib qolganligi haqida so'ragan edilar, u: «Chopib kelayotgan edim, o'tim charchab qoldi, otdan tushib uxladim, uyg'onganimga boshimda uchta qul turganini ko'rdim ulardan biri qamchin bilan burnimga turti. Men qari tulkidan nima istaysan», dedim va meni xalos qilmasliklarini o'tinib so'radim. Ular otlardan tushib, oyog'imni o'pdilar va zinhor dedilar. Ulardan biri meni otga mindirdi. Odamlar yig'ildilar va mendan «Nimang bor?», deb so'radilar. Men: «Har biri etmish ming dirham qiymatida ancha marvarid bor»,- dedim va uzugimni berdim. Ular oyog'imdan etigimni echib bir qancha qimmatbaho gavharlarni topib oldilar. Meni lashkar topdi va Muhammadshoh odamlarni mendan uzoqlatib turgan asnoda uzoqdan Amir Ismoilni ko'rib otdan tushmoqchi bo'ldim, u o'z joni va boshi hurmatini o'rta qo'yib: «Otdan tushma!», - dedi. Mening ko'nglim qaror topdi. U meni surpadorga tushurdi, Abu Yusuf men bilan birga chodirga o'tirib, meni qo'riqlab turdi, suv so'ragan edim menga gulob berdilar va menga izzat-ikrom ko'rsatdilar. Keyin Amir Ismoil mening oldimga kirib mehribonlik ko'rsatdi, seni o'ldirmayman deb ahd qildi va meni kajavaga o'tkazib, hurmat bilan shaharga etkazishga buyurdi. Kechasi Samarqand shahriga olib keldilar, bundan Samarqand aholisidan hech kimning xabari bo'lmadi. Amir Ismoil mening uzugimni tortib olgan kishidan uch ming dirhamga sotib oldi, bahosini to'ladi va uzukni menga yubordi. Uzukning ko'zi yoqut edi, dedi. Amir Lays «Jang kuni menga qirq ming dirham bor edi, uni urush vaqtida mendan tortib oldilar. Men ellik farsang masofaga chopib bora oladigan va o'zim ko'p sinagan bir ot ustida edim. O'sha kuni u shunday sust yurar ediki, men uning ustidan tushishni istar edim. Otning oyoqlari ariqqa tushib ketdi, men otdan yiqildim va o'zimdan umid uzdim, haligi ikki kishi meni o'ldirishga qaror qilgan vaqtda o'zim bilan birga qoch», -dedim, u otga minib oldi, qarasam ot xuddi bulutdek yugurar edi. Men tushunmadim, bu mening davlatim kelganligidan ekan, ayb otda emas ekan, dedi.

Amir Ismoil bemor bo'lib ancha vaqt yotdi. Uning kasalligi ko'proq chutbotdan edi. Tabiblar: «U joyi mo'liyonning havosi salqinligi ko'proq tabiatdan edi. Uni o'zining xos mulkidan bo'lgan Zurman qishlog'iga olib bordilar. Bu erning havosi unga muvofiq keldi», dedilar. Amir bu qishloqni yaxshi ko'rar va ov qilish uchun

hamma vaqt o'sha erga borar va u erda bog' qurgan edi. Bir muddat u erda bemor yotib, 295 yili safar oyining o'n beshinchisida xuddi shu bog'da katta bir daraxt tagida vafot etdi. O'sha davrda hukmdorlik muddati o'ttiz yil edi. U yigirma yil Xuroson amiri bo'ldi. Uning davrida Buxoro poytaxt bo'ldi. Somoniylar sulolasidan chiqqanamma amirlar Buxoroda turadigan bo'ldilar, ular Buxoroda turishni o'zlari uchun muborak deb hisoblar edilar. Uning ko'ngli Buxorodan boshqa hech bir joyda orom topmas va qaerda bo'lmasin «Bizning shahar, ya'ni Buxoro ana bunday, ana shunday», der edi. Amir Ismoil vafotidan keyin o'rniga o'g'li o'tiradi. Unga «Amiri Moziy» - Dunyodan o'tgan amir degan laqab berdilar.

Amiri Shahid Ahmad ibn Ismoil as-Somoniyni hukmronligi.

U Xuroson amiri bo'ldi. Uni amiri Shahid der edilar, u o'z otasining yo'lidan yurib, adolat ko'rsatgan va barcha fuqaroga doimo insof yuzasidan qarar edi. Uning davrida fuqaro rohat va osoyishtalikda yashaydi. Amir Shahid u erdan xurosonga borib, o'z mamlakatini ko'zdan kechirdi Slistonni oldi. Sliston Amiri Shahid davrida uning nomida edi. U erdan Buxoroga keldi. U ov qilish uchun Jayxun labiga borib, qaytib kelganida bir chopar Tabariston amiri Abu-l-Abbosdan xat olib keldi. Amiri Shahid xatni o'qiganda, xatda: «Husayn ibn Alo xarj qilib turgan va tabariston viloyatlarining ko'p erlarini oldi, mening zarurat yuzasidan qo'shinim kichik bo'lib qoldi», deb yozilgan edi. Bundan amir diltang bo'lib, juda g'amginlikka tushdi. U «Ey xudo! Agar bu podsholik mendan ketadigan bo'lsa, mening ajalimni ber», deb nola qildi-da surapurdaga kirdi.¹

Amiri Shahidning shunday odati bor edi, uning bir sheri bo'lib, har kecha uning yotadigan uy eshigiga o'sha sherni zanjir bilan bog'lab qo'yar edilar, kim u uyga kirmoqchi bo'lsa, sher uni halok qilar edi. O'sha kecha amir g'amgin bo'lganidan uning hamma xos kishilari ham u bilan mashg'ul bo'lib, sherini olib kelishni unutib qo'yidilar. Amir uxlab yotganida bir to'da dushmanlari kirib, uni o'ldirdilar. Hijratdan 301 yil jumod-al-oxir oyining o'n birinchisida payshanba kuni uni Buxoroga olib kelib, Navkanda qabristoniga qo'yidilar va unga «Amiri Shahid» deb nom berdilar. «Bu ishni

¹ Хамидов А. «Арабские рукописи и арабские традиции». Изд. «Наука», М., 1985. стр. 44-48.

Abul Hasan boshqargan», - deb unga tuhmat qildilar va uni Buxoroga olib kelib, dorga osdilar. Amirga suiqasd qilgan qullardan ba'zilarini topib o'ldirdilar, ba'zilar Turkistonga qochdilar. Uning podsholik muddati olti oy bo'ldi.

Amiri Sa'id Abu-l-Husan Nasr ibn Ahmad ibn Ismoil as-Somoniylar hukmdorligi.

Amiri shahidni dafn etib bo'lgach, uning o'g'li Nasrga «Said», «Saodatlik» laqabini berdilar. U sakkiz yoshda ekanligida otasining o'rniga podsho bo'ldi. Unga vazir Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad al-Jayxuniy edi. Hamaviya ibn Siroj bo'lib, uni «Butun Xuroson egasi» deb atar edilar. Dastlab amiri Said bo'sh ish olib borganligidan har erda fitna paydo bo'ldi. Uning otasining amakisi Ishoq ibn Ahmad Samarqandda o'ziga tobe bo'lishni talab etadi va Samarqand aholisi unga bo'ysunadilar. Uning o'g'li Abu Solih Mansur ibn Ahmad isyon ko'tarib, Xuroson shaharlaridan birini oldi. Samarqandda Ishoq ibn Ahmad hukmronligi kuchaydi va amir Said o'z sipohlari Nammaviya ibn Ahmad hukmronligi kuchaydi va amir Said mag'lubiyatga uchrab Samarqandga qaytib keldi. Ishoq ikkinchi marta urushga chiqqanda va Samarqand ahli va u bilan birga shahardan tashqariga chiqib, Hamaviyaga qarshi urushdilar va mag'lub bo'lganlar. Ishoq ibn Ahmad uchinchi marta yurish qilganda bu gal u asir tushdi. Uning o'g'li Masur ibn Ishoq Nishopurda edi dedi: Bizni Xuroson va Movaraunnahr faqat amir Saidga o'tdi, Fors, Kermon, Tubirikon qo'rg'on va Iroqda uning nomiga xutba o'qidilar. Samarqanddagi odamlar bu olovni ko'rib turdilar. Buxoroliklar: «Bu olov osmondan keldi», -der edilar. Olovni o'chirish mumkin bo'lmay, mahalla butunlay kuydi. Shu orada amiri Saidning birodarlari xarj qildilar va ko'p fitnalar qo'zg'atdilar. Oxir fitnanning asoschisi bo'lgan Abu Zakariyo hech narsani qo'lga kirgiza olmay, ozgina odam bilan Xurosonga keldi. Amir Saidning omonlik berib, oldiga chaqirib oldi va shu bilan fitna tinchidi. Yana amir Said Nasr ibn Ahmad ibn Ismoil davrida 325 yil rajab oyida Buxoroda uch yuz xamma bozorlar deydi: ... biz Halimpazning do'konidan boshlangan, u do'kon Samarqand darvozasida bo'lib, Halimpaz halim qozoni tagidan kulni tomga olib chiqib, tomga chinqorlik bor ekan. Halimpaz uni sezmagan ekan.

Xulosa

«Buxoro tarixi» asaridagi manbalar ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganilib chiqilgan. Narshaxiyning ushbu asari O'rta Osiyo xalqlari tarixini o'rganishda muhim manba bo'lib hisoblanadi. Bu asar asosan O'rta Osiyo arablar istilosi natijasida islom dinining tarqatilishi (VIII asr) va undan bevosita oldingi davrlar hamda IX-XII asrlardagi Buxoro va unga yaqin shahar, qishloqlar xalqlarining iqtisodiy, madaniy, ijtimoiy, siyosiy tarixiga oid muhim ma'lumotlarni o'z ichiga olgan edi. «Buxoro tarixi» asarining qimmatli manba sifatidagi o'rni ko'plab tadqiqotchilar tomonidan e'tirof etilgan. Ammo asarning hozirgi davrgacha etib kelgan tarixi boshqa qo'lyozma manbalardan ko'ra boshqacharoq bo'lib uni o'rganishdan oldin bu haqdagi ma'lumotlar, manbalarni batafsil o'rganib chiqish lozim ekanligi aytib o'tilgan edi.

«Buxoro tarixi» asarida keltirilgan manbalar ilmiy-tarixiy adabiyotda boshqa yozma manbalar hamda arxeologik, topografik, etnografik va hokazo turli xil tarixiy materiallar bilan solishtirilib, bir qadar kengroq yaratilgan. Tadqiqotchi V.V.Bartoldning «Turkestan v epoxu mongol'skogonashestviya» (M., 1963), O.A.Suxarevning «K istorii gorodov Buxarskogo xanstva» (T., 1958) kabi kitoblar Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asaridagi manbalardan bevosita foydalanilgan. «Buxoro tarixi» asaridagi manbalarni o'rganishda, yana bir qancha tadqiqotchilarni ko'rsatib o'tish mumkin. Bular A.Likoshin, V.O'rinbaev, V.Rasulov, I.M.Umnyakov, G.A.Pugachenkova, L.I.Rempel, A.A.Semenov, V.Vamberi, B.luninlar hisoblanadi. Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far an-Narshaxiy asli Buxoroning Narshax qishlog'idan bo'lib, «Buxoro tarixi» asarini 943-944 yillarda arab tilida yozgan. Hozirda Narshaxiyning nomi O'rta Osiyoning VIII-XII asrlarga (tarixiga) oid deyarli barcha ilmiy-tadqiqot ishlarida tilga olinadi. Haqiqatdan ham yuqorida aytib o'tganimizdek, Narshaxiyning hayotiga oid ma'lumotlar kamchilikni tashkil etadi. Uning to'liq nomi – Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far ibn Zakariyo ibn Xattob ibn Sharik ekanligi esa, Sam'oniyning «Kitob ul-ansab» asarida tasdiqlab o'tgan. Unda ko'rsatilishicha Narshaxiy Buxoro ahlidan bo'lib 286 (899) yili tug'ilgan. Vafot etgan yili 960 yil ekanligi e'tirof etilgan. Asarni arabchadan fors-tojik tiliga tarjima qilgan kishi Abu Nasr Ahmad ibn Muhammad ibn Nasr al-Qubaviy bo'lib, hozirgi Quva shahridan. Tarjima

1128 yili amalga oshirilgan bo'lib, kitobni o'qish engilroq bo'lishi maqsad qilinganligi bizga ma'lum. 1178-1179 yillar esa, Muhammad ibn Zafar ibn Umar fors-tojik tilidagi tarjimani ikkinchi marotaba qisqartirib bayon qilgan. Ammo asardagi manbalarda 1178-1179 yildan 1220 yilgacha bo'lgan tarixiy voqealar ham qisqacha kiritilgan. Bu albatta keyingi tarjima, qayta ishlash natijasi bo'lib hisoblanadi. Tarjima Abu Nasr Ahmad va undan keyingi muharrirlar asar matniga anchagina o'zgartirishlar kiritgan bo'lsalarda, lekin Narshaxiyning asosiy yozib qoldirgan manbalarini qoldirib ketgan emas.

Narshaxiy aslida o'z asariga qanday nom berganligi ma'lum emas. Shu sababli asar qo'lyozma nusxalarda va keyingi ilmiy-tarixiy adabiyotlarda «Tarixi Narshaxiy» («Narshaxiy tarixi»), «Tarixi Buxoro» («Buxoro tarixi»), «Tahqiq ul-viloyat» («Viloyat haqiqatini aniqlash»), «Axbori Buxoro» («Buxoro haqida xabarlar») kabi har xil nomlar bilan atalib kelingan. Ulardan eng aniq shakli «Tarixi Buxoro» hisoblanadi. «Buxoro tarixi» asaridagi manbalarga doimiy ravishda qiziqish bo'lib, imkon qadar kengroq yoritish yuzaga kelmoqda. «Buxoro tarixi» asaridagi manbalar: Buxoroda qozilik qilgan kishilar haqida batafsil ma'lumotlar berib o'tilgan. Bulardan biri Sebayx ibn Abdulaziz al-Buxoriy an-Nahviy hisoblanadi. Qozilar quyidagilar ekanligi ko'rsatib o'tiladi: Muhammad ibn Umar, Abu Daym Hozim Sadusiy, Iso ibn Muso at-Taymiy, Amir ibn Umar ibn Umron, Ishoq ibn Ibrohim ibn al-Xitiy, Savud ibn Xalaf al-Balxiy, Abdulmajid ibn Ibrohim an-Narshaxiy, (Sulton Ahmad ibn Ismoil as-Samoni davridagi qozilar ham e'tirof etilgan) Ahmad ibn Ibrohim al-Barkadiy, Abu Zar Muhammad ibn Yusuf al-Buxoriy kabilar alohida o'rin egallagan. Muhammad ibn Ja'far aytadi: «Bidun Buxorxudot o'lgan vaqtda yosh o'g'il bola qoldi. Uning nomi Tag'shoda edi». Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asaridagi manbalarda Buxoro va unga yaqin qo'shiladigan joylar ham izohlab berilgan.

Qadimgi Buxoro qishloqlari jumlasidan, uning suvi Buxoro suvidan kelishi, Jome masjidi borligi, Nur, Tavois kabi Buxoro viloyatlari mavjudligi, ularning asosiy joylashuvi, ijtimoiy-siyosiy munosabatlari ko'rsatib o'tilgan. Vardona katta qishloq bo'lib, katta va mustahkam hisorga ega ekanligi, qadim vaqtlardan podshohlarning turar joylari bo'lganligi, Vardona Buxoro shahridan qadimiyroq ekanligi ta'kidlab

o'tilgan. Shu bilan birgalikda Afshona, Barkad qishloqlari haqida ham asar manbalarida ma'lumot berib o'tilgan. «Romiton – katta kuhandiv va muhtasham qishloq bo'lib, Buxorodan qadimiyroqdir. Ba'zi kitoblarda bu qishloqni Buxoro deb ataganlar. Bu qishloq qadim vaqtlarda podshohlarning turar joylari bo'lgan» kabi ma'lumotlar aynan, Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asaridagi manbalarda qayd etilgan. Aynan Romiton bilan bog'liq ma'lumotlar asardagi manbalar ichida alohida o'rin egalladi. «Marhum Abu Muslim Buxoroga kelganida shu qishloqda turgan. (Bu qishloqni Afrosiyob bayon qilganligi bilan birga afsonaviy hikoyalar ham berib o'tilgan)». Shu bilan birgalikda, Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asarida Varaxsha, Poykand haqida ham qiziqarli ma'lumotlar berib o'tilgan. Buxorodagi ilk to'qimachilik korxonasi – «Bayt ut-tirov», «Bozori shoh» asar manbalarida alohida o'rin egallaydi. Ahmad ibn Muhammad ibn Nasr ham Buxoro ko'p ismlarga ega ekanligini ilgari surgan. Dastlab ko'rsatib o'tilgan tadqiqotchilarning monografiya, tarixiy adabiyotlarida ham «Buxoro tarixi» asaridagi manbalarga ko'proq e'tibor beriladi. Asarda Buxoro arkining qurilishi bilan bog'liq ko'plab manbalar keltirib o'tilgan. Asar ichida o'rin egallagan Abul Hasan Nishopuriyning «Xazoin ul-ulum» kitobi xususida ham asosli manbalar berilgan. Narshaxiyning «Buxoro tarixi» asaridagi manbalarda podshohlarning Buxoroda bo'lgan manzillari, Buxoroda dirham va kumush tangalar zarb qilinishi, arablarning bostirib kirishi, somoniylar hukmronligi, ijtimoiy-siyosiy ahvol batafsil yoritilib o'tilgan. Asardagi manbalarning alohida ahamiyat kasb etishidan guvohlik beradi.

Foydalanilgan adabiyot va manbalar ro'yxati

1. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. Toshkent «O'zbekiston», 1995.
2. Karimov I.A. O'zbekiston: Milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild, Toshkent: «O'zbekiston», 1996.
3. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lida. 4-jild, Toshkent, «O'zbekiston», 1996.
4. Karimov I.A. Yangicha fikr etish va ... davr talabi. 5-jild, «O'zbekiston», 1997.
5. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. Toshkent, «O'zbekiston», 1997.
6. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. Toshkent, «Sharq», 1998.
7. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-jild, Toshkent, «O'zbekiston», 1999.
8. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. Toshkent, «Ma'naviyat», 2008.
9. Ahmadov B. Tarixdan saboqlar. Toshkent, «O'qituvchi», 1994.
10. Ahmedov B. O'zbekiston tarixi manbalari. Toshkent, O'qituvchi», 2001.
11. Бартольд В.В. К истории арабских завоеваний в Средней Азии. Изд. Вост. лит. М., 1928.
12. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху Мангольского нашествия. Отв. Ред. Гафуров Б.Г. и Петрушевский И.П. Изд. Вып. Вост. лит. М., 1963.
13. Вамбери Г. История Бухары или Прансаксание с древнейших времен до настоящего. Изд. Вып. Вост. лит. М., 1964.
14. Восточное историческое источниковедение и специальные исторические дисциплины. Выпуск 1. Изд. «Наука», М., 1989.
15. История Бухары с древнейших времен до наших дней. Под.ред. Лунин Б. Изд. «Фан», Т., 1976.
16. Источниковедение: Теория. История. Метод. Изд. «Наука», М., 1998.
17. Крачковский В.А. Памятники арабского письма в Средней Азии и Закавказье до конца IX века. Изд. «Прогресс», М., 1952.

18. Meros: Abu Tohirxo'ja va boshqalar «Samariya». Abu Tohirxo'ja «Buxoro tarixi» Narshaxiy. Tahrir hay'ati: Ahmedov B. va boshqalar. T., «Kompleks», 1991.
19. Murodov A. O'rta Osiyo xattotlik san'ati tarixidan. Toshkent, «Fan», 1971.
20. Narshaxi M. «Istoriya Buxary». Perevod s pers. Likashin K. Pod. red. Bartol'd V.V. Izd. inost. lit. T., 1997.
21. Нильсон В.А. Бухарский намазгах. Изд. Акад.Наук. Т., 1950.
22. Очерки историографии истории народов Средней Азии. Под. ред. Саидкулова Т. Тошкент, «Ўқитувчи», 1992.
23. Пугаченкова Г.А., Ремпел Л.И. Бухара. Изд. иностр. лит. М., 1954.
24. Рукописная книга в культурах народа Востока. Книга первая. Изд. «Наука», М., 1987.
25. Saʼdullaev A.S. Qadimgi O'zbekiston tarixi manbalaridan. Toshkent, «O'qituvchi», 1996.
26. Saidqulov T.S. O'rta Osiyo xalqlari tarixining tarixnavisligidan lavhalar. Toshkent, «O'qituvchi», 1993.
27. Семенов А.А. Описание персидских, арабских и турецких рукописей. Изд. САГУ. Т., 1935.
28. Семенов АА. Описание таджикских персидских и турецких рукописей. Изд. Гос. Т., 1956.
29. Сухарева Г.К. К вопросу об исторической топографии Бухары. Изд. Акад. Наук. М., 1952.
30. Сухарева Д.А. К истории народов Бухарского ханства. Изд. Акад.Наук. Т., 1958..
31. Собрание Восточных рукописей Академии наук Республики Узбекистан «История». Сост. Юсупова Д.Ю., Жалилова Р. Изд. «Фан», Т., 1998.
32. Tarixiy manbashunoslik. Tuzuvchilar: Madraimov A., Fuzaylova G. T., «Fan», 2006.
33. O'zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari. Ma'sul muharrir: Alimova D., Rtveladze K. T., «Sharq», 2001.

34. O'zbekiston tarixi. Murtazaeva R. Tahriri ostida. T., «Fan», 2003.
35. Умняков И.И. К вопросу об исторической топографии. Изд. Акад. наук. М., 1938.
36. Qayumov A., Ishoqov M., Otaxo'jaev A., Sodiqov A. Qadimgi yozma yodgorliklar. T., «Yozuvchi», 2000.
37. Habibullaev A. Adabiy manbashunoslik va matnshunoslik. Toshkent: Tosh. 2000.
38. Хамидов А. Арабские рукописи и арабские традиции. Изд. «Наука», 1985.